

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**



**ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYALARI FAKULTETI
QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA
ISHLASH TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**

“AGROLOGISTIKA” fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	400000 – Qishloq va suv xo‘jaligi
Ta‘lim sohasi:	410000 – Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
Ta‘lim yo‘nalishi:	5410500 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi

GULISTON – 2020

O'quv – uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
05.07.2019 yil tasdiqlangan “Agrologistika ” fani namunaviy dasturi (№ BD –
5410500 – 2.07) talablari asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:

Bababekov U.J. “Agrologistika” fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy
majmua. Guliston, 2020 y

Taqrizchilar: Nuriev K.K. (GudDU)
Qurbonov E.S. (GudDU)

Fanning O'UM “QXMQIT” kafedrasining 2020 yil “25” 08 № 1-sonli
majlisida ko'rib chiqilib, universitet Ilmiy–uslubiy Kengashida ko'rib chiqish
uchun tavsiya qilindi.

O'UM Guliston davlat universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2021 yil
“01” 22 dagi № 06-sonli yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Kirish

“Bugun jamiyatimiz shuni anglab oldiki, hayotimizni yaxshilash, aholi turmush darajasini ko‘tarish, iqtisodiyotimizning samaradorligini oshirish, xalqimizni boqish, istiqbolimizni rejalash - xullas, qanday muammo, qanday masalani ko‘rmaylik, ularning aksariyati birinchi navbatda qishloq xo‘jaligiga borib taqaladi. Hammamizni boqadigan, ozuqa beradigan soha-qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridir».

O‘zbekiston agrar-industrial davlat bo‘lganligi sababli, mamlakat iqtisodiyotida agrar soha muhim o‘rinni egallaydi. +ishloq xo‘jaligi mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatini xom-ashyo bilan ta‘minlash bilan bir qatorda, ishga yaroqli aholining katta qismini ish bilan ta‘minlash va jamiyatdagi barcha tabaqalarning kayfiyatiga ham ta‘sir ko‘rsatib turadi.

Shu bois iqtisodiy islohotlar dastlabki navbatda agrar sektordan boshlanib har bir bosqichda o‘z ijobiy natijalarini berib kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning tahlili va tajribalar natijalari shundan dalolat bermoqdaki, soha rivoji uni intensivlashganlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir, ushbu muhim omilga yetarlicha e‘tibor bermaslik, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga mo‘ljallangan barcha islohot va dasturlarning barbod bo‘lishiga olib keluvchi sabablardan biri bo‘lgan. Shuning uchun agrar isloh qilish yoki tarmoqni rivojlantirish strategiyasini belgilashda tarmoqda innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, yangi texnika va texnologiyalari jalb qilish orqali uni intensivlashtirish darajasini oshirishga katta e‘tibor berilmoqda.

Agrar sohada tub o‘zgarishlarga erishish hamda, islohotlarni keng joriy etish uchun eng avvalo, iqtisodiyotni erkinlashtirish va shu asosda qishloq xo‘jalik tizimida logistikani qo‘llash mavjud muammolarni yechishni osonlashtiradi.

Ma‘lumki turli sifatga ega bo‘lgan moddiy oqimlarning harakatlanishiga oid faoliyat turlari logistikaning mazmunini tashkil etadi. Logistika asosiy mazmun va mohiyati jihatidan xomashyo va materiallarni ishlab chiqaruvchilarga, istemolchilarga yetkazish jarayonlarini rejalashtirish, nazorat qilish, transport operatsiyalarini tashkil etish va boshqarish, yuklarni omborlarda saqlashni tashkil etish, mahsulotlarni istemolchiga uning talablariga ko‘ra yetkazib berish bilan bog‘lik muammolar yechimini topishni ko‘zda tutadi.

Bu vazifalarni amalga oshirish ularni o‘zaro bog‘liklikda tahlil va tadqiqot etish, tizimli yondashuv va logistik yondashuvni talab qiladi, chunki umumiy jarayonlarning har biri o‘z navbatida juda murakkab ishlab chiqarish va realizatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni optimallashtirishni talab qiladi.

Shuning uchun ham qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini optimallashtirish logistikani qo‘llashni taqozo etadi va bu fanni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik tizimida logistik ta‘minotining nazariy asoslarini va ularni O‘zbekistonning o‘ziga xos sharoitlariga tadbiiq qilish imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, hozirgi kun talabidir.

Logistikaning ijobiy xususiyatlarini ongli ravishda qo‘llashni boshlagan olimlar va amaliyotchilar qatorida, birinchi navbatda, atrof muhitning tahlili, amaliy hisob yuritish, oziq-ovqatlarni taqsimlash, inson faoliyati bilan bog‘liq jarayonlarni bashorat qilish va boshqa sohalarda ish yuritgan qadimgi va o‘rta asrlardagi yirik mutaxassislarni tilga olish lozim. Ammo ularning ko‘pchiligining nomlari bizgacha yetib kelmagan. Fransuz olimi Vett (16 asr), fransuz keyinchalik esa rus olimi Jomini (19 asr), nemis olimi Ryustov (19 asr), kabilar birinchilardan bo‘lib, logistika, uning xususiyatlari va uslublari haqidagi ma‘lumotlarni yig‘ib, rivojlantirib, ularni yetarlicha butun bo‘lgan ilmiy-amaliy tizim ko‘rinishiga keltirganlar. O‘sha paytlarda atrof muhit tahlili, inson hayotiy faoliyatining eng ahamiyatli jarayonlarini boshqarish hamda tizimli ravishda aniq hisob-kitoblar asosida bashorat qiluvchilarni logistika bo‘yicha mutaxassis deb hisoblashgan.

Harbiy, xo‘jalik va ilmiy tizimlarni logistik boshqaruvning amaliyoti samarasini oshirishga va nazariyasini keskin rivojlanishiga, o‘tgan asrning 30-chi va 50-70 yillarida chet

el olimlari, izlanishlar olib boruvchi tashkilotlar, hamda dunyoning kuchli ishlab chiqarish, transport, tijorat kompaniyalarining jamoalari ulkan hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda ilk bor olib borilayotgan logistik izlanishlar hamda ishlab chiqarish va tijorat faoliyatining har xil turlarini boshqarishda logistik yondashuvning amaliyotga kirib borishi, yangi xo'jalik sharoitlariga o'tayotgan, mamlakat iqtisodiyotidagi rivojlanayotgan ustuvor yo'nalishlar va ehtiyojlarga javoban turli sohalarga logistika tamoyillari izchillik bilan amalga oshmoqda.

Logistikaning ijobiy xususiyatlarini joriy qilinishiga, birinchi navbatda, ishlab chiqarish faoliyati yo'nalishini ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi bozoridan iste'molchi bozori tomon o'zgarishi sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida moddiy-texnik ta'minot, sotish, transport ta'minoti va mamlakatda ilgari mavjud bo'lmagan ulgurji va chakana savdo sohaslaridagi qator jiddiy va chuqur izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Xarajatlarni logistik optimallashtirishning zarurligi va maqsadga muvofiqligini, ishlab chiqarish, moddiy-texnik ta'minot, sotish, savdo va faoliyatning boshqa yo'nalishlarida yuzaga kelayotgan yangi sharoitlarda transport xizmatlari ko'rsatishning dolzarbligi va ishonchliligini hisobga olgan holda, mamlakatda qishloq xo'jaligi logistikasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning safi shakllanmoqda.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'lik ayrim funksional jarayonlarning murakkabligi va o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligi uchun, axborot va moliyaviy oqimlarni boshqarishda logistik yondashuv imkoniyatlarini, hamda logistik xizmat ko'rsatishning huquqiy ta'minoti muammolari ustida izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Milliy tovar ishlab chiqaruvchilar, tovarlarni mijozlarga yetkazib beruvchilar va ushbu bozorni chet el kontragentlari bilan integratsiyalashuvi jarayonlari, xalqaro iqtisodiy aloqalar logistika sohasidagi tadqiqotlarni, ustuvor ekanligini belgilab beradi.

Logistik tadqiqotlar o'tkazilishi jarayonida, yig'ilgan ilmiy salohiyat, jumladan, kibernetika, tizimlar, graflar, ishonchlilik, kelishuvchanlik, tasodifiy jarayonlar, iqtisodiy-matematik va iqtisodiy-statistik modellashirish, dasturlash nazariyalarini va ilmiy izlanishlarning boshqa usullarini, va shuningdek axborot va kompyuter texnikasini qo'llashning shakllari va uslublari takomillashib bormoqda. Bundan tashqari logistika o'z xususiyatlariga muvofiq, bozorning talablariga mos keladigan yangi izlanishlar uslubiyotlarini va ularni amalga oshirish texnologiyalarini tizimli va majmuaviy tarzda yondashishga turtki bo'lishi va yordam berishi lozim.

1. Agrologistik tizim to'g'risida asosiy tushunchalar

Logistikaning rivojlanish bosqichlari

Zamonaviy iqtisodiyotda logistika fanini rivojlanishining quyidagi bosqichlarini ajratadilar:

Birmchi bosqich - 60chi yillarga to'g'ri keladi, va muomala sohasida moddiy oqimlarni boshqarish uchun logistik yondashishni qo'llash bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda ikkita asosiy qoidaga rioya qilish boshlandi:

- ishlab chiqarish va tashishdagi alohida mavjud bo'lgan moddiy oqimlar boshqaruvning yagona tizimi bilan o'zaro bog'lik ekanligi.


- moddiy resurslar jismoniy taqsimotining ayrim funksiyalarini integratsiyalashuvi sezilarli iqtisodiy samara berishi mumkinligi.

Jismoniy taqsimotning optimallasuvi masalalari hamma vaqt kun tartibida turgan. Masalan, yetkazilayotgan partiyalar chastotasi va o'lchamining optimallasuvi, omborlar joylashishi va amal qilishining optimallasuvi, transport yo'nalishlari va grafiklarining optimallasuvi va hokazo. Odatda ushbu masalalar alohida-alohida tarzda yechiladi, va bu tizimli samaradorlikni ta'minlamaydi. Logistik yondashishning xususiyati esa, ularni tizimli yechimini topishdan iboratdir.

Logistika rivojlanishining birinchi bosqichida, tovar mahsulotlarni ishlab chiqarishning barcha jarayonlari mustahkam o'zaro aloqalarga ega bo'ladilar. Masalan logistika rivojlanishining birinchi bosqichidagi moddiy oqimlar harakati jarayoni ishtirokchilarining logistik integratsiyalashuvi darajasi, 1.1 rasmda ko'rsatilgan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha masalalarni birgalikda yechish, ularni alohida yechishga nisbatan murakkabroqdir. Bunda boshqacha uslublar, hamda mutaxassislarning boshqacha tayyorgarligi talab etiladi.

Logistika rivojlanishidagi ikkinchi bosqich XX asrning 80chi yillariga to'g'ri keladi. Ushbu davrda logistikaning integratsion asosi kengayib, u ishlab chiqarish




jarayonini ham qamrab oldi.

1.1- Rasm. Logistika rivojlanishining birinchi bosqichi - transport-ombor jarayoni integratsiyasi

Logistika rivojlanishi nuqtai nazaridan 80chi yillar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- jismoniy taqsimot qiymatining tez o'sishi;
- logistik jarayonlar boshqaruvini ^{ma'sulot} amalga oshiruvchi menedjerlarning kasbiy mahorati darajasini oshishi;
- logistika sohasidagi uzoq muddatli rejalashtirish;
- axborot to'plash va logistik jarayonlarni ^I nazorat qilish uchun kompyuterlarning keng miqyosda qo'llanilishi;

80-chi yillarda erishilgan logistik integratsiya darajasi 1.2 rasmda namoyish etilgan.



1.2- Rasm. Logistika rivojlanishining ikkinchi bosqichi: ishlab chiqarish sexi, transport va ombor yagona mexanizm sifatida ish yurita boshlaydi

- jismoniy taqsimotning markazlashishi;
- material o'tkazuvchi zanjirlarda zaxiralarning keskin kamayishi;
- taqsimotning haqiqiy xarajatlarini to'g'ri aniqlanishi;
- moddiy oqimning oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakati qiymatini pasaytirish bo'yicha tadbirlarni belgilash va amalga oshirish.

Ko'rib turganimizdek bu yerda, mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish ombor va transportning o'zaro faoliyatiga ishlab chiqarishni rejalashtirish ham qo'shiladi. Bu zaxiralarni kamaytirish, buyurtmalarni o'z vaqtida bajarilishi hisobiga xaridorlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, uskunalardan foydalanishni yaxshilash



imkonini beradi.

1.3- Rasm. Logistika rivojlanishining uchinchi bosqichi: logistik jarayon ishtirokchilarining yig'indisi umumiy lashib bormoqda

Uchinchi bosqich esa hozirgi vaqtga tegishli bo'lib, u quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- butun jahon iqtisodiyotidagi bozor jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda fundamental o'zgarishlar sodir bo'ladi;
- material o'tkazuvchi sub'ektlar yig'indisi umumiy lashib boradi (1.3 rasm)
- moddiy va axborot oqimlarini tezda o'tishini ta'minlovchi, zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar, mahsulot harakatining barcha bosqichlari monitoringini amalga oshirishga imkon beradi;
- logistika sohasida xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar rivojlanadi;
- logistika konsepsiyasi (uning asosiy qoidasi bu integratsiyadir), ta'minot, ishlab chiqarish va taqsimot zanjirlari ishtirokchilarining ko'pchiligi tomonidan tan olina boshlaydi.

2. Agrologistik tizim va moddiy oqimlar tushunchasi

Logistik tizim tushunchasi, logistikaning asosiy (negiz) tushunchalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy mexanizmlar faoliyatini ta'minlovchi turli xil tizimlar mavjud. Ushbu ko'plikdan aynan logistik tizimlarni, ularni tahlil qilish va yanada takomillashtirish maqsadida, ajratish lozim.

Logistik tizim xaqida gap yuritishdan oldin, «tizim» tushunchasini ta'riflab o'tamiz. Tizim (yunonchadan olingan bo'lib - qismlardan tashkil topgan bir butun; birlashma ma'nosini anglatadi) - bu muayyan bir butunlikni paydo qiluvchi, va bir- biri bilan aloqa va munosabatlarda bo'luvchi unsurlar ko'pligidir. Yuqoridagi 4-ta xususiyatga ega bo'lgan ob'ektni bimalol «tizim» deb atashimiz mumkin:

1. butunlik va alohidalik
2. o'zaro aloqa
3. tashkil etish, tartib
4. integrativ jihatlar (ya'ni faqat unsurlar birgaligida yuzaga keladigan xususiyatlar)

Moddiy oqimlar harakati malakali xodimlar tomonidan, turli xil texnika: transport vositalari, ortish-tushirish uskunalari va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, logistik jarayonga turli bino va inshootlar ham jalb etilgan bo'ladi. Jarayonning kechishi esa harakatlanayotgan va yig'ilayotgan yuklarning, ushbu jarayonga tayyorgarlik darajasiga ham bog'liq. Yuklar o'tishini ta'minlovchi ishlab chiqarish kuchlarining yig'indisi, yaxshimi yomonmi, ammo tashkil etilgan. Umuman olganda, biror-bir moddiy oqimlar mavjud bo'lsa, qandaydir tovar o'tkazuvchi tizim ham mavjud bo'ladi. Odatda, bunday tizimlar maxsus loyihalanmasdan, ayrim unsurlarning (turli korxonalar yoki ularning bo'limlari) faoliyati natijasida yuzaga keladilar.

Logistika, bir-biri bilan kelishilgan material o'tkazuvchi (logistik) tizimlarni loyihalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Ushbu tizimlardan chiquvchi moddiy oqimlar parametrlari oldindan berilgan bo'ladi. Bu tizimlar, ularga kiruvchi ishlab chiqarish kuchlarining yuqori darajada kelishilganligi bilan, boshqalardan farq qiladilar.

Yuqorida aytib o'tilgan tizimning 4-ta xususiyatini, logistik tizimga nisbatan ko'rib chiqamiz:

Birinchi xususiyat: tizim bu bir-biri bilan aloqador bo'lgan unsurlar yig'indisining butunligidir. Logistik tizimni unsurlarga ajratishni turlicha amalga oshirish mumkin.

Makrodarajada moddiy oqim bir korxonadan ikkinchisiga o'tadi, va unsur sifatida ushbu korxonalar, hamda ularni bog'lovchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

Mikrodarajadagi logistik tizimni esa quyidagi tizimchalar ko'rinishida tasvirlash mumkin: (mukammal qaralganda ushbu tizimchalarning har biri murakkab bir tizim ekanligi ayon bo'ladi)

Xarid - ushbu tizimcha logistik tizimga moddiy oqimni kirishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish - bu tizimcha esa xarid tizimchasidan moddiy oqimni qabul qilib oladi va turli texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonida uni boshqarib turadi. Aynan ushbu texnologik operatsiyalar mehnat predmetini mehnat mahsulotiga aylantiradilar.

Realizatsiya (savdo) - bu tizimcha moddiy oqimni logistik tizimdan chiqib ketishini ta'minlaydi. (2.1-rasm)



2.1. -Rasm. Mikrologistik tizim sxemasi

Ko‘rib turganimizdek, logistik tizim unsurlari turlicha va bir vaqtning o‘zida bir-biriga mos. Ularning mosligi maqsad yagonaligi bilan ta’minlanadi, va ushbu maqsadga logistik tizimni har bir unsuri xizmat qiladi.

Ikkinchi xususiyat (aloqalar): Logistik tizim unsurlari orasida muhim aloqalar mavjud. Ular biror-bir qonuniy zaruriyat bilan integrativ jihatlarini ham belgilaydilar. Makrologistik tizimlarda, unsurlar orasidagi aloqa asosini shartnoma tashkil etadi. Mikrologistik tizimlarda esa unsurlar ichki ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog‘langan bo‘ladilar.

Uchinchi xususiyat (tashkil etish): logistik tizim unsurlari orasidagi aloqalar ma’lum tarzda tartiblashtirilgan bo‘ladi, bu esa logistik tizim tashkil etilganidan dalolat beradi.

To‘rtinchi xususiyat (integrativ jihatlar): logistik tizim, uning biror-bir unsuri ham alohida ravishda ega bo‘lmagan jihatlariga (xususiyatlarga) ega. Bu zarur bo‘lgan tovarni, zarur vaqtda, zarur joyga, lozim bo‘lgan sifatda va minimal xarajatlarni bilan yetkazish qobiliyati, hamda tashqi muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga (talabning o‘zgarishi, texnik vositalarning ishdan chiqishi va h.) moslashish qobiliyatidir.

Logistik tizimning integrativ jihatlarini, unga materiallarni xarid qilish, uni o‘z ishlab chiqarish quvvatlaridan o‘tkazish hamda tashqi muhitga chiqarish imkonini beradi, va shu bilan birga oldindan belgilangan maqsadlarga ham erishiladi.

Paydo bo‘lgan talabga, mahsulotni tezda yetkazib berish bilan javob beradigan logistik tizim, ishlab chiqarish korxonasi hududidan to mamlakat hududigacha va undan ham katta bo‘lishi mumkin. U tashqi muhit o‘zgarishlariga moslashib, ko‘nikib, ularga tezda javob qaytarishi mumkin.

Logistik tizimga berilgan umumiy ta’rif quyidagicha: *logistik tizim* -u yoki bu logistik funksiyalarni bajaruvchi, teskari aloqaga ega bo‘lgan, tashqi muhit sharoitlariga yaxshi moslashuvchan tizimdir. U odatda bir necha tizimchalardan tashkil topgan, va tashqi muhit bilan mustahkam aloqalarga ega bo‘ladi. Logistik tizim sifatida sanoat korxonasi, qishloq xo‘jalik korxonasi, hududiy ishlab chiqarish majmuasi, savdo korxonasi va boshqalar ko‘rilishi mumkin. Logistik tizimning maqsadi - bu xarajatlarning berilgan chegarasida, tovar va buyumlarni belgilangan joyga, zarur bo‘lgan miqdorda va assortimentda, hamda mumkin bo‘lgan maksimal darajada ishlab chiqarish va shaxsiy iste’molga tayyorlangan holda yetkazib berishdir.

Logistik tizim chegaralari ishlab chiqarish vositalarini aylanish sikli bilan belgilanadi. Oldin ishlab chiqarish vositalari xarid qilinadi. Ular moddiy oqim ko‘rinishida logistik tizimga kelib tushadilar, omborga qo‘yiladilar, qayta ishlanadilar,

saqlanadilar, va keyinchalik, logistik tizimga kelib tushgan moliyaviy mablag'lar evaziga, logistik tizimdan iste'molga chiqib ketadilar.

3. Ishlab chiqarish logistikasi

3.1. Ishlab chiqarish logistikasi tushunchasi

Moddiy oqim, xom-ashyoning birinchi manbasidan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan yo'lida qator ishlab chiqarish bo'g'inlaridan o'tadi. Bu bosqichda moddiy oqimlarni boshqarish, o'ziga xos xususiyatlariga ega, va *ishlab chiqarish logistikasi* deb ataladi.

«Ishlab chiqarish» atamasining ma'nosini eslatib o'tamiz. Ma'lumki jamiyat ishlab chiqarishi moddiy va nomoddiy qismlarga bo'linadi (3.1-rasm). Ishlab chiqarish logistikasi, moddiy ishlab chiqarish sohasida yuz beradigan jarayonlarni ko'rib chiqadi.



3.1- Rasm. Jamiyat ishlab chiqarishining tuzilmasi

Ishlab chiqarish logistikasining maqsadi bu moddiy boyliklar yaratuvchi yoki saqlash, qadoqlash, joylash kabi moddiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar ichidagi moddiy oqimlarni optimizatsiyalashtirishdir. Ishlab chiqarish logistikasida o'rganiladigan ob'ektlarning tavsifiy belgisi - bu ularning hududiy ixcham joylashishidir. Adabiyotlarda ularni «logistikaning orol ob'ektlari» deb ham atashadi.

Ishlab chiqarish logistikasi doirasidagi logistik jarayon ishtirokchilarini ichki ishlab chiqarish munosabatlari bog'lab turadi (tovar-pul munosabatlari bilan bog'langan makro darajadagi logistik jarayon ishtirokchilaridan farqli ravishda).

Ishlab chiqarish logistikasida ko'riladigan logistik tizimlar, ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari nomi bilan yuritiladi. Ularga: sanoat korxonalarini, ombor inshootlariga ega ulgurji savdo korxonalarini, xo'jalik hamda fermer xo'jaliklarini va boshqalarni kiritish mumkin.

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarini mikro va makro darajalarda ko'rib chiqish mumkin.

Makro darajada ishlab chiqarish logistik tizimlari makrologistik tizimlarning unsurlari sifatida namoyon bo'ladilar. Ular moddiy oqimlar manbalari bo'lib, ushbu tizimlar ishining bir tekis borishini ta'minlaydilar. Makrologistik tizimlarni tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvi, ularning ichidagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari ishlab chiqaradigan mahsulotning assortimenti va miqdorini tez o'zgartira olish qobiliyatiga bog'liq.

Mikro darajadagi ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari, bir-biri bilan o'zaro munosabatda va aloqalarda bo'lib, ma'lum birlikni, butunlikni vujudga keltirgan tizimchalar qatoridir. Bu tizimchalar: xaridlar, omborlar, zaxiralar, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, transport, axborot, sotish va kadrlardir. Ular moddiy oqimni tizimga kirishi, undan o'tishi va chiqib ketishini ta'minlaydilar. Logistika konsepsiyasiga muvofiq ichki ishlab chiqarish logistik tizimlarining yaratilishi, korxona ichidagi ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bo'g'inlarining rejaları va ishlarini doimiy ravishda o'zaro kelishilishi va to'g'rilanib borishi

imkoniyatini ta'minlashi lozim.

3.2. Ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy va logistik konsepsiyalari

Ishlab chiqarishni tashkil etishning logistik konsepsiyasi quyidagi asosiy holatlarni o'z ichiga oladi:

- ortiqcha zaxiralardan voz kechish;
- asosiy va transport-ombor operatsiyalarini bajarish uchun ortiqcha vaqtdan voz kechish;
- iste'molchi buyurtmasi bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan voz kechish;
- uskunalar to'xtab turishini yo'q qilish;
- sifatsiz mahsulotlarni yo'q qilish;
- xo'jalik ichidagi noratsional tashishlarni yo'q qilish;
- yetkazib beruvchilarni hamkorlarga aylantirish.

Logistikadan farqli o'laroq ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy konsepsiyasi quyidagilardan iborat:

- mahsulotni iloji boricha yirik partiyalarda ishlab chiqarish;
- «har extimolga qarshi» moddiy resurslarning maksimal katta zaxirasiga ega bo'lish.

Konseptual hollarning mazmuni shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy konsepsiyasi «sotuvchi bozori» sharoitlari uchun eng qulay bo'lsa, logistik konsepsiya «xaridor bozori» sharoitlari uchun eng qulaydir.

Talab taklifdan ko'p bo'lsa, hych ikkilanmasdan aytish mumkinki, bozor konyukturasini hisobga olib ishlab chiqarilgan mahsulot to'liq sotiladi. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlari maksimal yuklash ustuvorlikga ega bo'ladi. Shu bilan birga ishlab chiqarilgan partiya qancha yirik bo'lsa mahsulot birligining tannarxi shuncha kam bo'ladi. Mahsulotni sotish birinchi darajali muammo bo'lmaydi.


Bozorga iste'molchi «diktaturasi» kelishi bilan vaziyat o'zgaradi. Raqobat sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Bozor talabini muntazam emasligi va oldindan bilib bo'lmazligi sharoitida katta zaxiralar yaratish va saqlash maqsadga muvofiq emasdir. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi bitta buyurtmani ham qo'yib yubormaydi. Bundan, paydo bo'lgan talabga tez javob qaytara oladigan, egiluvchan ishlab chiqarish quvvatlariga ehtiyoj paydo bo'ladi.

3.3. Ishlab chiqarish tizimlarining sifat va miqdor egiluvchanligi

Ishlab chiqarish o'z mahsuloti assortimenti va miqdorini tez o'zgartira olgan taqdirdagina, bozor sharoitida faoliyat yuritishi mumkin. 70-chi yillargacha, butun dunyo, bu masalani ombordagi tayyor mahsulot mavjudligi hisobiga yechardi. Bugungi kunda esa logistika, talab o'zgarishiga, ishlab chiqarish quvvatlarining zaxiralari hisobiga moslashishni taklif etadi.

Ishlab chiqarish quvvatlari zaxirasi, ishlab chiqarish tizimlarining sifat va miqdor egiluvchanligi mavjudligi yuzaga keladi. Sifat egiluvchanligi universal xizmat ko'rsatuvchi personal (xodimlar) va egiluvchan ishlab chiqarish mavjudligi hisobiga ta'minlanadi. Miqdor egiluvchangligi har xil usullar bilan ta'minlanishi mumkin. Masalan, xo'jaliklarda asosiy ishchilarning maksimal sonini 20% dan oshmasligi qolgan 80%-mavsumiy ishchilar bo'lishi mumkin. Shunday qilib xo'jalik 200ta

xodimga ega bo'lib, lozim bo'lganda, 1000ta kishigacha jalb etish imkoniyatiga ega. Ish kuchi rezervi (zaxirasi) mehnat vositalari rezervi (zaxirasi) bilan to'ldirilib turadi (3.2 rasm)




3.2- Rasm. Ishlab chiqarish quvvati egiluvchangligi

3.4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag'batlantiruvchi tizimlari

Ichki ishlab chiqarish logistik tizimlari doirasidagi moddiy oqimlarning boshqaruvi har xil usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu usullardan, bir-biridan prinsipial farq qiluvchi, ikkita asosiysini alohida ko'rib chiqish lozim, bular itaruvchi va yetaklovchi boshqaruv usullaridir.

Birinchi variant «rag'batlantiruvchi tizim» deb nom olgan, va uning ishlab chiqarishni tashkil etish tizimi 3.3-rasmda ko'rsatilgan. Moddiy oqim, ishlab chiqarishni boshqarishning markaziy tizimidan kelgan buyruqqa binoan oldingi bo'g'indan iste'molchi tomon «itarib chiqariladi».



3.3- Rasm. Ishni ishlab chiqarish logistik tizimi doirasidagi moddiy oqim boshqaruvini rag'batlantiruvchi tizimining prinsipial sxemasi

Oqimlarni boshqarishning rag'batlantiruvchi modellari, ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy uslublari uchun xarakterlidir. Ishlab chiqarishning logistik tashkil etilishi uchun ularni qo'llashning qulay imkoniyati, hisoblash texnikasini ommaviy tarqalishi munosabati bilan paydo bo'ldi. Ularning birinchilari 60-chi yillarda ishlab chiqargan, xo'jalikning barcha bo'limlari (ta'minot, ishlab chiqarish va sotish) reja va xarajatlarini, kelishilishi va operativ to'g'irlanishi imkonini beradi (real vaqtdagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda). Ushbu tizimlar kiritilishi natijalarini bitta jumlada ifoda etish mumkin: «Bir necha haftada ishlab chiqariladigan ishlab chiqarish rejasini, endilikda bir necha soatda ishlab chiqarishimiz mumkin».

Mikroelektronika yordamida murakkab ishlab chiqarish mexanizmini bir butun qilish imkoniyatiga ega itaruvchi tizimlar, unga qaramasdan o'z imkoniyatlarining tabiiy chegaralariga ega. Boshqaruv tizimi, bo'limdagi ishlab chiqarish vaziyatiga ta'sir etadigan omillarni qay darajada hisobga olsa va baholasa, ushbu bo'limdagi «itarib chiqariladigan» moddiy oqim parametrlari ham shunchalik optimal bo'ladi. Ammo boshqaruv tizimi korxona ko'p sonli bo'limlarining har biri bo'yicha qancha ko'p omillarni hisobga olishi lozim bo'lsa, uning dasturiy, axborot va texnik ta'minoti ham shunchalik takomillashgan va qimmat bo'ladi.

Amaliyotda, rag'batlantiruvchi tizimlarning turli xil variantlari mavjuddir. Ularning yaratilish imkoniyati hisoblash texnikasini ommaviy qo'llanilishiga bog'liqdir. Itaruvchi tizimlari boshqaruv avtomatizatsiyasining yuqori darajasi bilan tavsiflanadi, va bu avtomatizatsiya quyidagi asosiy funksiyalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ishlab chiqarish zaxiralarining joriy boshqaruvi va nazoratini ta'minlash;
- korxonaning ta'minot, ishlab chiqarish, sotish xizmatlari rejalari va harakatlarini, real vaqt miqyosida, kelishilishi va operativ to'g'irlanishi.


Rag'batlantiruvchi tizimlarining zamonaviy, rivojlangan variantlarida bashorat qilishning ham turli xil masalalari yechiladi.

3.5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlar boshqaruvining yetaklovchi tizimlari

Ishlab chiqarishdagi logistik jarayonlarni tashkil etishning ikkinchi varianti, moddiy oqimlarni boshqarishning prinsipial boshqacha usuliga asoslangan. U «etaklovchi tizim» deb nomlanadi. Bu ishlab chiqarishni tashkil etishning shunday tizimiki, unda zarur mahsulotlar keyingi bo'g'indan oldingisiga lozim bo'lgan taqdirdagina yetkaziladi.

Bu yerda markaziy boshqaruv tizimi korxonaning har xil bo'limlari orasidagi moddiy oqimlar almashinuviga aralashmaydi, va ular uchun joriy ishlab chiqarish vazifalarini belgilamaydi. Ayrim texnologik bo'g'in ishlab chiqarish texnologik zanjirining oxirgi bo'g'ini oldida vazifa qo'yadi.

yetaklovchi tizimning amal qilish mexanizmini tushunish uchun, 3.4-rasmdagi misolni ko'rib chiqamiz.



Shartli belgilashlar:

- | | |
|--|------------------------|
| - moddiy oqim, a) - meva | - axborot oqimi, b) |
| yetkazilishi v) -sharbat yetkazilishi d) - | - qayla yetkazilishi |
| mevaga buyurtma j) - sharbatga | g) - tayyor mahsulot |
| buyurtma | ye) - qaylaga buyurtma |

3.4- Rasm. Ishlab chiqarish logistik

tizimi doirasidagi moddiy oqim boshqaruvinini
yetaklovchi tizimining prinsipial sxemasi

Faraz qilaylik meva qayta ishlash korxonasi 1500 birlik mahsulot (meva sharbati) ishlab chiqarishga buyurtma qabul qildi. Bu buyurtmani boshqaruv tizimi qadoqlash (tayyor mahsulot) bo'limiga jo'natadi. Qadoqlash bo'limi buyurtmani bajarish uchun sharbat bo'limidan 1500ta qadoq mahsulotga ketadigan sharbat so'raydi. Sharbat bo'limi o'z zaxirasidan so'ralgan mahsulotni yetkazadi va uni o'rnini to'ldirish uchun qayla bo'limidan 1500ta qadoq sharbat ishlab chiqarish uchun qayla so'raydi. Qayla bo'limi o'z zaxiralaridan so'ralgan mahsulotni yetkazadi va uni o'rnini to'ldirish uchun ombordan meva so'raydi. Shunday qilib moddiy oqim har bir oldingi bo'g'in tomonidan «tortib olinadi».

Bunda ayrim bo'lim xodimlari, markaziy boshqaruv tizimiga nisbatan, optimal buyurtma o'lchamini aniqlovchi, ko'proq o'ziga xos omillarni hisobga olish imkoniyatiga ega.

3.6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashuvni qo'llashning samaradorligi

Ma'lumki, ishlab chiqarish korxonasidagi materialning 95-98% vaqti ortish- tushirish va transport-ombor ishlariga to'g'ri keladi.

«Bosh», «Simens», «Mitsubisi» va «Djeneral motors» firmalari ma'lumotlariga ko'ra, korxonada moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashish, logistik operatsiyalar majmui bajarilishini maksimal optimallashtirishga imkon beradi.

Korxonada moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashuvni qo'llashdan vujudga keladigan umumiy samaraning tarkibiy qismlari quyidagilar:

1. Ishlab chiqarish bozorga mo'ljallangan. Kam hajmdagi va individual ishlab chiqarishga samarali o'tish mumkin bo'ladi.
2. yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik munosabatlari o'rnatiladi.
3. Uskunalar to'xtab turishi qisqaradi. Bu, ish joylarida kerakli materiallar doimo mavjud bo'lishi bilan, ta'minlanadi.
4. Ishlab chiqarayotgan mahsulot sifati oshadi.
5. Ishlab chiqarish sikli kamayadi va xarajatlar minimallashtiriladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan sabablarga to'laroq to'xtalib o'tamiz.

❖ Zaxiralar optimizatsiyasi - logistikaning markaziy muammolaridan biri. Zaxiralarni saqlash, moliyaviy mablag'lar ajratilishini, moddiy texnika baza va mehnat resurslarining katta qismining ishlatilishini talab qiladi. Ishlab chiqarishni tashkil etishning zamonaviy logistik uslublarini qo'llayotgan qator /arbiy yevropa firmalari tajribalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, logistikani qo'llanilishi ishlab chiqarish zaxiralarini 50% ga kamaytirish imkonini beradi.

❖ Yordamchi ishchilar sonini kamayishi. Tizimlilik (ishni tizimli amalga oshishi) darajasi qancha past bo'lsa, mehnat jarayoni shunchalik aniqlanmagan bo'ladi, bu esa ishning katta hajmlarini bajarishda yordamchi ishchilarga bo'lgan ehtiyoj shunchalik ortishiga olib keladi.

❖ Materiallar yo'qotilishini kamayishi. Istalgan logistik operatsiya - bu potensial yo'qotishlar. Logistik operatsiyalar optimizatsiyasi - bu yo'qotishlarnig kamayishidir.

❖ Ishlab chiqarish va ombor maydonlari ishlatilishini yaxlitlash. Oqim jarayonlarining noaniqligi ko'proq qo'shimcha maydonlarni oldindan egallab qo'yishga undaydi. Masalan, ulgurji savdo bazalari loyihasida, oqim jarayonlarining noaniqligi ombor maydonlarini 30%ga oshirilishiga majbur qilgan.

❖ Jarohatlarning kamayishi. Logistik yondashuv o'z ichiga mehnat xavfsizligi tizimini ham kiritadi.

4. Xarid logistikasi

4.1. Xarid logistikasining mohiyati va vazifalari.

Xarid logistikasi - bu, korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlash jarayonida, moddiy oqimlarni boshqarishdir.

Mikrologistik tizimning katta ahamiyatga ega unsurlaridan biri bu xarid tizimchasidir, u moddiy oqimni logistik tizimga kirib borishini tashkil etadi. Bu bosqichda moddiy oqimlarni boshqarish ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega, aynan shu holat xarid logistikasini ayrim bob sifatida o'rganilishiga sabab bo'ladi.

Moddiy oqimlarni qayta ishlovchi har bir korxona, jumladan qishloq xo'jalik korxonalari ham, o'z tarkibida, mehnat buyumlarini (urug'lik, o'g'it, yoqilg'i moylash materiallari va b.) sotib olishni, yetkazishni va vaqtinchalik saqlashni amalga oshiruvchi bo'limga egalar. Bu bo'lim faoliyatini uchta pog'onada ko'rib chiqishimiz mumkin, chunki bu bo'lim bir vaqtning o'zida;

❖ korxona kiruvchi makrologistik tizim maqsadlarini aloqasini va amalga oshishini ta'minlovchi unsuri;

❖ mikrologistik tizim unsuri, ya'ni korxona maqsadlarini ro'yobga chiqishini ta'minlovchi korxona bo'limlaridan biri;

❖ o'z unsurlari, tuzilmasi va maqsadlariga ega mustaqil tizim ham bo'lishi mumkin.

Har bir belgilangan pog'onada ta'minot bo'limi faoliyatining maqsadlarini ko'rib chiqamiz:

1. Makrologistik tizim unsuri sifatida, ta'minot bo'limi mahsulot yetkazib beruvchilar bilan, tovarlarni yetkazishga doir texnik-texnologik, iqtisodiy va uslubiy (metodologik) muammolar bo'yicha kelishib, xo'jalik aloqalarini o'rnatadi. Ta'minot bo'limi yetkazib beruvchining savdo bo'limlari va transport korxonalari bilan aloqada bo'lib, korxonani makrologistik tizimga kirishini ta'minlaydi. Logistika g'oyasi - barcha ishtirokchilar o'zaro kelishgan holda faoliyat ko'rsatishidan qo'shimcha daromad olish uchun, ta'minot bo'limi xodimlari o'z korxonasi maqsadlarini ro'yobga chiqishini ta'minlashda ushbu korxonani alohida ob'ekt tarzida emas, balki butun bir logistik tizimning bo'g'ini sifatida ish ko'rishlari lozim. Ya'ni, ta'minot bo'limi, o'z korxonasiga ishlash bilan birga, butun makrologistik tizim faoliyatining samaradorligi oshishini ham nazarda tutishi lozim. Bunday yondashuvda o'z korxonasiga butun makrologistik tizim unsuri sifatida qaraladi: tizim ahvoli yaxshilansa - uning bo'g'ini bo'lmish korxonaning ahvoli ham yaxshilanadi. Masalan qishloq xo'jaligida ham, agarda har bir pudratchi o'z manfaatini ko'zlash bilan birga boshqa pudratchilarga ziyon yetkazmaslik, iloji bo'lsa yordam berishni ham o'ylasa, unda butun xo'jalikning ishi ham a'lo darajada bo'ladi.

yetkazib beruvchilar bilan logistik integratsiya iqtisodiy, texnik, texnologik va uslubiy xarakterdagi tadbirlar majmui hisobiga erishiladi. Integratsiya, ishonchli hamkorlik munosabatlariga, agarda daromad bo'lmasa ham hamkorga qo'l uzatishga, asoslangan bo'lishi kerak. «Menga baribir...» falsafasini ilgari suruvchilar, hozirgi tadbirkorlar dunyosida o'z o'rnini topa olmaydilar.

Logistikada yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak.

1. yetkazib beruvchilar bilan xuddi mijozlar bilan bo'lgandek munosabatda bo'lish.
2. Maqsadlar birligini amalda namoyon qilishni unutmaslik.
3. yetkazib beruvchini o'z maqsadlari bilan tanishtirish va uni ishidan ham xabardor bo'lish.
4. yetkazib beruvchida muammolar paydo bo'lsa unga yordam berishga tayyor turish.
5. Olgan majburiyatlariga amal qilish.
6. Ish amaliyotida yetkazib beruvchi maqsadlarini ham hisobga olish.

Ta'minot bo'limi, yangi mahsulotni ishlab chiqish yo'llarini izlash bosqichidan boshlab, korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlash masalasini yechishga kirishadi. Logistik tashkil etilgan tizimlarda esa, bu bosqichda yetkazib beruvchi ham ishtirok etishi mumkin.

1. Ta'minot bo'limi, uni tashkil etgan korxonaning unsuri bo'lishi bilan birga, *ta'minot - ishlab chiqarish - sotish* zanjiridagi moddiy oqimni o'tib ketishini ta'minlovchi makrologistik tizimga ham mos tarzda kirib borishi lozim. Ta'minot bo'limining ishlab chiqarish va sotish bo'limlari bilan, moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha, faoliyatlarini yuqori darajada o'zaro kelishilgan bo'lishini ta'minlash, butun korxonani logistik tashkil etishning vazifasidir. Zamonaviy ishlab chiqarish va moddiy-texnik ta'minot tizimlari, korxona miqyosidagi ta'minot, ishlab chiqarish va sotish bo'g'inlari rejalarining o'zaro kelishilgan bo'lishi va ularga operativ tarzda o'zgartirishlar kiritilishi imkoniyatini ta'minlaydilar. Bunda real vaqtdagi doimiy o'zgarishlar ham hisobga olinadi.

Ta'minot - ishlab chiqarish - sotish zanjiri zamonaviy marketing konsepsiyasi asosida barpo etilishi lozim, ya'ni birinchi navbatda sotish strategiyasi, keyinchalik undan kelib chiqqan xolda ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyasi va undan keyingina ishlab

chiqarishni ta'minlash strategiyasi ishlab chiqilishi lozim. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki marketing bu masalani faqatgina konseptual nuqtai nazardan belgilaydi. Sotish bozorlarini har tomonlama tekshirishga mo'ljallangan marketing ilmiy qurollari, mos talablarga bog'liq bo'lgan, yetkazib beruvchilarni texnik- texnologik kelishishi masalalarini yechishga imkon beradigan uslublarni ishlab chiqmagan. Shuningdek marketing, xom ashyoning birlamchi ishlab chiqaruvchisidan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan materiallar harakati jarayonidagi barcha ishtirokchilarning tizimli tashkil etish uslublarini ham taklif etmaydi. Bu nuqtai nazardan logistika ishbilarmonlik faoliyatiga marketing yondashuvini rivojlantiradi, marketing konsepsiyasini amalga oshirish imkonini yaratuvchi usullarni ishlab chiqadi, konsepsiyaning o'zini ham sezilarli darajada kengaytiradi va to'ldiradi.

2. Ta'minot bo'limining samarali faoliyat yuritishi, korxona miqyosida ham, makrologistika miqyosida ham sanab o'tilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish, bularning barchasi ta'minot bo'limini tizimli tashkil etilishga bog'liqdir.

Xarid logistikasining vazifalari

Qishloq xo'jalik korxonalarini mehnat buyumlari bilan ta'minlash jarayonidagi asosiy savollar an'anaviy va ta'minot logikasi bilan belgilanadi:

- ❖ nima xarid qilish;
- ❖ qancha xarid qilish;
- ❖ kimdan xarid qilish;
- ❖ qaysi shartlarda xarid qilish.

Bu an'anaviy ro'yxatni logistika o'z savollari bilan to'ldiradi:

- ❖ qanday qilib xaridlarni ishlab chiqarish va sotish bilan tizimli bog'lash;
- ❖ qanday qilib korxona faoliyatini yetkazib beruvchilar bilan tizimli bog'lash;

Aynan ushbu savollar xarid logistikasining amaliy sohasidagi vazifalarini va qilinadigan ishlarini belgilaydi.

Xarid logistikasiga doir vazifalar va ishlarni ko'rib chiqamiz.

1. Moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash

Moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash jarayonida qishloq xo'jaligi korxonasi ichidagi, moddiy resurslar iste'molchilarini aniqlash zarur. Keyinchalik moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyoj hisoblanadi. Bunda mahsulot yetkazishning og'irligi, o'lchami, va boshqa parametrlariga, hamda servisiga talablar o'rganiladi. Bundan keyin nomenklatura va (yoki) nomenklatura guruhlarining har bir pozitsiyasiga reja-grafiklar va maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Iste'mol qilinadigan moddiy resurslar uchun «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» muammosi ko'rib chiqilishi mumkin.

2. Xarid bozorini tekshirish.

Xarid bozorini tekshirish, yetkazib beruvchilar bozorining hatti-harakatlari tahlilidan boshlanadi. Bunda, bevosita bozorlar, o'rmini bosadigan bozorlar va yangi bozorlar bo'yicha barcha mumkin bo'lgan yetkazib beruvchilarni aniqlash lozim. Keyinchalik, sotib olinayotgan moddiy resurslarning barcha mumkin bo'lgan manbalarini boshlang'ich baholash, hamda muayyan bozorga chiqish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni tahlil qilish lozim.

3. yetkazib beruvchilarni tanlash.

yetkazib beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashni, ularning ma'lumotlari bankini yaratishni, optimal yetkazib beruvchini izlashni, tanlangan yetkazib beruvchi bilan olib borilgan ish natijalarini baholashni o'z ichiga oladi.

4. Xaridlarni amalga oshirish.

Ushbu funksiyani ro'yobga chiqishi muzokaralar olib borishdan boshlanadi va shartnoma imzolanishi bilan yakunlanishi lozim. Shartnoma munosabatlari xo'jalik aloqalarini shakllantiradi, ularning ratsionallashuvi esa logistikaning vazifasidir. Xaridlarni amalga oshirishni, xarid qilish uslubini tanlashni, yetkazish va pul to'lash shartlarini ishlab chiqishni, hamda moddiy resurslarni tashishni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Bunda yetkazishlar grafigi tuziladi, ekspeditsiya ishlari amalga oshiriladi, va, lozim bo'lsa, bojxona ishlari ham tashkil

etilishi mumkin. Xaridlar, qabul qilish nazoratini tashkil etish bilan nihoyasiga yetadi.

5. yetkazib berishlarning nazorati.

yetkazib berishlarning nazoratini eng muhim vazifalaridan biri bu sifat nazoratidir, ya'ni sifatli va brak mahsulotlar sonini hisoblab borish. Shuningdek yetkazib berishlar nazoratiga yetkazishlar muddatini kuzatish (erta yoki kech yetkazishlarni soni), buyurtmani qabul qilinishi muddatlarini, tashish muddatlarini kuzatish, hamda moddiy resurslar zaxiralari holatining nazorati ham, kiradi.

6. Xaridlar byudjetini tayyorlash.

Xarid qilish faoliyatining muhim qismi bu iqtisodiy hisob-kitoblardir, chunki har bir ish bo'yicha xarajatlar qancha bo'lishini aniq bilish lozim. Bunda xarajatlarning quyidagi turlari aniqlanadi:

- ❖ moddiy resurslarning asosiy turlari bo'yicha buyurtmalarni bajarish xarajatlari;
- ❖ tashish, ekspeditsiya va sug'urta xarajatlari;
- ❖ yukni qayta ishlash xarajatlari;
- ❖ yetkazib berish shartnomasi shartlari bajarilishini nazoratiga bo'lgan xarajatlar;
- ❖ moddiy resurslarni qabul qilish va tekshirishga bo'lgan xarajatlar;
- ❖ potensial yetkazib beruvchilar xaqida ma'lumot izlashga bo'lgan xarajatlar.

Iqtisodiy hisob-kitoblar qilish doirasidagi xarid logistikasi vazifalariga, moddiy resurslar tanqisligi tufayli yuzaga kelgan chegirmalarni ham kiritish lozim.

1. Xaridlarning ishlab chiqarish, sotish, omborga qo'yish va tashish, hamda yetkazib beruvchilar bilan tizimli o'zaro aloqasi.

Xarid logistikasining ushbu o'ziga xos masalasi, yuqorida qayd etilganidek, xaridlarning ishlab chiqarish va sotish bilan tizimli o'zaro aloqalarini tashkil etish vositasi orqali, hamda rejalashtirish, iqtisodiyot, texnika va texnologiya sohalarida yetkazib beruvchilar bilan aloqalar o'rnatish orqali yechiladi.

4.2 Qishloq xo'jaligi korxonalarida ta'minot funksiyalarini amalga oshirish

Logistika konsepsiyasiga muvofiq, korxonani mehnat buyumlari bilan ta'minlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarishga tizimli yondashishni amalga oshirish bo'yicha tadbirlar ham bo'lishi lozim.

Xarid logistikasining oldingi paragrafdagi vazifalarini bajarishning, O'zbekiston sharoitida murakkablashuviga yaqin o'tmishimiz sabab. Ilgari korxonalar oldida bunday vazifalar umuman turmasdi, chunki resurslar qayta taqsimlanardi.

Ta'minotni tashkil etishning ikki variantini ko'rib chiqaylik. Ular, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonani xom ashyo bilan ta'minlash jarayonida moddiy oqimlarni boshqarishga tizimli yondashish imkoniyatlari borasida bir-biridan prinsipial tarzda farqlanadilar.

4.1- rasmda, tepada qayd etilgan masalalar har xil funksional bo'limlar o'rtasida taqsimlangan korxonaning tashkiliy tuzilmasi taqdim etilgan. Bunda ko'rinib turibdiki, nima sotib olish va qancha sotib olish masalasi ishlab chiqarish bo'yicha masala rahbariyat tomonidan yechiladi.

4.1- Rasm. Ta'minot funksiyasini amalga oshirish bilan bog'liq ishlar va masalalar

4.2- rasmda keltirilgan variantda, korxona ta'minoti bo'yicha barcha funksiyalarni bir qo'lda, masalan moddiy-texnikaviy ta'minot bo'limida, mujassamlanishi ko'zda tutiladi.

Xarid qilingan mehnat buyumlarini omborga qo'yish ishlari ham shu yerda bajariladi.

Ta'minot ishlari ham shu yerda bajariladi, ya'ni shartnomalar tuziladi, ularning bajarilishi nazorat qilinadi, sotib olingan mahsulotlarni yetkazish tashkil etiladi. Natijada ta'minot jarayonidagi moddiy oqimlarni boshqarish funksiyasi har xil bo'limlar orasida

taqsimlangan va uni samarali amalga oshirilishi qiyinlashgan vaziyatga duch kelamiz.

Bunday tuzilma, mehnat buyumlarini xarid qilish bosqichida moddiy oqimlarni logistik optimallashtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

4.3. Xarid logistikasida «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» masalasi

Xarid logistikasida «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» kabi masalaga ikki xil alternativ (muqobil) variantdan birini tanlash kiradi:

- bevosita ishlab chiqaruvchidan tovar resurslarini sotib olib, mustaqil ravishda assortimentni shakllantirish;
- yirik partiyalarni maydalashtirish, keng assortimentni shakllantirish va iste'molchilarga butun holda yetkazish bilan shug'ullanadigan vositachilardan tovar resurslarini sotib oli

4.2- Rasm. Ta'minot funksiyasini amalga oshirish bilan bog'liq ishlar va masalalar

Bevosita ishlab chiqaruvchidan ko'ra vositachidan sotib olish qulay bo'lgan hollarning sabablarini ko'rib chiqamiz.

1. Tovar resurslarini vositachidan xarid qilib, korxona, odatda, keng assortimentni kichik partiyalar bilan olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, zaxiralarga, omborlarga bo'lgan ehtiyoj kamayadi, assortimentni ayrim turlarini ishlab chiqaruvchilar bilan ishlar hajmi ham kamayadi.?

2. Mahsulotning vositachidagi narxi, ishlab chiqaruvchidan past bo'lishi mumkin. Faraz qilaylik, ishlab chiqaruvchi quyidagi narxlarda o'z mahsulotini sotadi:

- A) kichik hajmdagi xaridorlar uchun - 10 so'm (bir birlik mahsulotga)
- B) yirik hajmdagi xaridorlar uchun - 8 so'm (bir birlik mahsulotga)

Vositachi, yirik partiyani 8 so'mdan sotib oladi, va uni mayda xaridorlarga, ustiga 12% qo'shib, 8so'm 96 tiyindan sotadi. Vositachi bu ishni amalga oshirishi mumkin, chunki u aynan yirik partiyalarni maydalashtirish bilan shug'ullanadi. Ishlab chiqaruvchiga esa bu ish qimmatga tushadi, va u 10 so'mdan sotishga majbur.

3. Mahsulot ishlab chiqaruvchi, vositachidan ko'ra uzoqroqda joylashgan bo'lishi mumkin. Bu degani transport xarajatlari ham qo'shilib, narx orasidagi farq yanada oshib ketadi.

4.4. yetkazib beruvchini tanlash masalasi

«Ishlab chiqarish yoki xarid qilish» masalasi yechilgandan, va korxona qaysi xom ashyo va qaysi mahsulotlarni xarid qilish zarur ekanligi belgilab olganidan so'ng, yetkazib beruvchini tanlash masalasini hal qilishga kirishiladi. Bu ishning asosiy bosqichlarini sanab o'tamiz va tavsiflaymiz.

1. Potensial yetkazib beruvchilarni izlash.

Bunda quyidagi uslublar qo'llanilishi mumkin:

- tender e'lon qilinishi;
- reklama ma'lumotlarini: firma kataloglarini; ommaviy axborot vositalaridagi e'lonlarni va boshqalarni, o'rganib chiqish;
- ko'rgazma va yarmarkalarga tashrif buyurish;
- potensial yetkazib beruvchilar bilan aloqada bo'lish.

Sanab o'tilgan tadbirlar natijasida potensial yetkazib beruvchilar ro'yxati shakllanadi, va u doimo yangilanib turiladi.

2. Potensial yetkazib beruvchilarning tahlili.

Potensial yetkazib beruvchilarning tuzilgan ro'yxati, talablarga mos keladigan yetkazib beruvchilarni tanlash imkoniyatini beradigan maxsus mezonlar asosida tahlil qilinadi. Bunday mezonlar soni bir necha o'ntagacha bo'lishi mumkin. Ammo ko'pgina

hollarda yetkazilayotgan mahsulotning narxi va sifati bilan, hamda yetkazib beruvchining ishonchliligi (bunda yetkazib beruvchining mahsulotni yetkazish muddati, assortimenti, butligi, sifati va miqdori bo'yicha olgan majburiyatlarini bajarish tushuniladi) bilan cheklanadilar.

yetakzib beruvchini tanlashda e'tibor berilayotgan boshqa mezonlarga quyidagilar kiradi:

- yetkazib beruvchini iste'molchidan yiroqda joylashishi;
- joriy va tezkor buyurtmalarni bajarish muddatlari;
- zaxira quvvatlari mavjudligi;
- yetkazib beruvchida sifat boshqaruvini tashkil etilishi;
- yetkazilayotgan uskunalarning butun xizmat muddati davomida ehtiyot qismlarini yetkazib berish qobiliyati;
- yetkazib beruvchining moliyaviy ahvoli va boshqalar.

Potensial yetkazib beruvchilarni tahlili natijasida aniq yetkazib beruvchilar ro'yxati shakllanadi, va ular bilan shartnoma munosabatlarini o'rnatish bo'yicha ish olib boriladi.

3. yetkazib beruvchilar bilan olib borilgan ish natijalarini baholash.

Imzolangan shartnomalar bo'yicha ish natijalari yetkazib beruvchini tanlashga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun maxsus baholar shkalasi ishlab chiqiladi, u yetkazib beruvchini reytingini hisoblash imkonini beradi.

Reytingni hisoblashdan oldin xarid qilinayotgan mehnat buyumlarini farqlanishini (differensiatsiya) amalga oshirish lozim.

Xarid qilinayotgan tovarlar, xom ashyo va butlovchi mahsulotlar, odatda, ishlab chiqarish nuqtai-nazaridan bir xil qimmatga ega emas. Masalan, urug'ning yo'qligi qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish jarayonini to'xtab qolishiga olib keladi (xuddi savdoda ayrim tovarlarning tanqisligi - savdo korxonasi daromadining kamayishiga olib kelgani kabi), xuddi shunday o'g'it, yoqilg'i va ehtiyot qismlarning o'z vaqtida yetkazilmasligi ham yig'im-terim mavsumini ancha orqaga surishi yoki yetishtirilayotgan mahsulotni umuman nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin. Mehnat buyumlarining ushbu kategoriyasida yetkazib beruvchi tanlashning asosiy mezonlari yetkazishlarning ishonchliligi hisoblanadi.

yetakzib beruvchining reytingini hisoblashga misol keltiramiz (4.1-jadval). Faraz qilaylik, korxona A mahsulotni xarid qilishi lozim, va uni tanqisligiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Demak, yetkazib beruvchini tanlashda birinchi navbatda yetkazishning ishonchliligi mezonlari e'tiborga olinadi. Boshqa mezonlarning ahamiyati esa, ta'minot bo'limi xodimlari tomonidan ekspert yo'li bilan aniqlanadi (4.1-jadval).

Agarda xarid qilinayotgan mehnat buyumlari ishlab chiqarish yoki savdo jarayoni nuqtai-nazaridan ahamiyatsiz bo'lsa, u holda yetkazib beruvchilarni tanlashda asosiy mezon bo'lib sotib olish va tashish xarajatlari xizmat qiladi.

Reytingni jami ifodasi, mezon bahosi va ahamiyatlilik darajasini ko'paytmalari summasidan kelib chiqadi. Har bir yetkazib beruvchi uchun reyting hisoblanib eng yaxshi yetkazib beruvchi aniqlanadi.

Noma'lum yetkazib beruvchilar bilan xo'jalik aloqalari o'rnatib, korxona ma'lum tavakkalchilikga yo'l qo'yadi. Agarda yetkazib beruvchi o'z majburiyatlarini bajara olmasa, iste'molchi ishlab chiqarishida uzilishlar yoki moliyaviy yo'qotishlar bo'lishi mumkin. Ko'rilgan zararlarni qoplash esa, odatda, ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi.

Shunday ekan korxonalar noma'qul bo'lgan yetkazib beruvchilarni aniqlashning turli usullarini izlaydilar, masalan chet el firmalari yetkazib beruvchilar to'g'risida ma'lumot yig'uvchi maxsus firmalarga murojaat etadilar, ular esa norasmiy manbalardan ham foydalanadilar.

4.1- jadval

yetakzib beruvchining reytingini hisoblash

yetkazib beruvchini tanlashning mezonlari	Mezonning ahamiyatlilik darajasi	Berilgan yetkazib beruvchida mezonni baholash (10 ballik shkala bo'yicha)	Mezon bahosini uning ahamiyatlilik darajasiga ko'paytmasi
1. yetkazib berishning ishonchliligi	0,30	7	2,1
2. Narx	0,25	6	1,5
3. Mahsulot sifati	0,15	8	1,2
4. To'lov shartlari	0,15	4	0,6
5. Rejadan tashqari yetkazishlar imkoni	0,10	7	0,7
6. yetkazib beruvchining moliyaviy ahvoli	0,05	4	0,2
Jami:	1,00		6,3

Bu ma'lumotlar yetkazib beruvchining moliyaviy ahvoli to'g'risida quyidagi axborotlarni berishlari mumkin:

- yetkazib beruvchi likvidligining qarz majburiyatlariga nisbati to'g'risida;
- sotuvlar hajmini debitor qarzlarga nisbati to'g'risida;
- sof foydaning sotuvlar hajmiga nisbati to'g'risida;
- naqd pul harakati to'g'risida;
- zaxiralar aylanmasi va boshqalar to'g'risida;

O'zbekistondagi korxonalar, hozirgi kunda, yetkazib beruvchi tanlashda asosan o'z axborotlaridan foydalanadilar. Ko'p yetkazib beruvchilar bilan ish olib boradigan korxonada yaxshi ma'lum bo'lgan, obro' qozongan yetkazib beruvchilar ro'yxati mavjud. Bunday yetkazib beruvchilar bilan tuziladigan shartnomalar tezda imzolanib ishlay boshlaydi. Agarda notanish yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuziladigan bo'lsa, u holda shartnoma tasdiqlanishi va to'lov amalga oshirilishi, moliyaviy xavfsizlikni ta'minlovchi chora-tadbirlar bilan, mukammallashadi. Ishloq xo'jaligiga to'xtaladigan bo'lsak hozirgi kunda bu ish umuman yo'lga qo'yilmagan, va barcha xo'jaliklar mavjud yetkazib beruvchidan (u odatda bitta) foydalanadilar xolos.

yetakzib beruvchi tanlash bo'yicha misol keltiraylik.

Tasavvur qilamiz, bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, ikkita xo'jalik xo'jaligi mavjud (A va V). Ularning mahsulotlarini sifati ham bir xilda. Har ikkala xo'jalik ham yaxshi tanish va ishonchli. A xo'jalikning kamchiligi shuki u iste'molchidan Vga nisbatan 200km yiroqroqda joylashgan (A xo'jalikgacha 500km, V xo'jalikgacha 300km). Ammo, A xo'jalik o'z mahsulotini avtomobillar yordamida ortish-tushirish mumkin bo'lgan qadoqlarda jo'natadi. V xo'jalikning mahsulotini esa qo'lda tushirish lozim. 500 km-ga yukni tashish uchun har kilometriga 50 so'm sarflanadi. 300 km-ga yukni tashish esa qimmatroq bo'lib har kilometriga 70 so'mga teng.

A xo'jalikning mahsulotini tushirish vaqti - 30 daqiqa, V xo'jalikning mahsulotini tushirish vaqti - 10 soat. Har bir ishchining tushirish uchun stavkasi soatiga 600 so'mni tashkil etadi.

Agarda faqat tashish xarajatlarini e'tiborga oladigan bo'lsak V xo'jalikni tanlash lozim. Ammo ortish-tushirish ishlarini ham hisoblab A xo'jalikni tanlash ma'qul ekanligini ko'ramiz. (4.2-jadval)

4.2- jadval

Mahsulotni yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni hisoblash

Ko'rsatkich nomi	A xo'jalik	V xo'jalik
Transport xarajatlari	$50 \text{ so' m/km} * 500 \text{ km} = 25000 \text{ so' m}$	$70 \text{ so' m/km} * 300 \text{ km} = 21000 \text{ so' m}$
Tushirish xarajatlari	$600 \text{ so' m/soat} * 0,5 \text{ soat} = 300 \text{ so' m}$	$600 \text{ so' m/soat} * 10 \text{ soat} = 6000 \text{ so' m}$
Jami xarajatlar:	25300 so'm	27000 so'm

Shunday qilib, barcha shart-sharoitlar bir xil bo'lganda V xo'jalikdan ko'ra A xo'jalikdan xarid qilish ma'qul, chunki bu har bir yetkazib berishda 1700 so'm tejash imkonini beradi.

4.5. Xarid logistikasida «aniq muddatga» yetkazish tizimi

«Aniq muddatga» yetkazish tizimi, logistik tizimning biror-bir bo'g'inida qandaydir mahsulotga o'tkir ehtiyoj paydo bo'lmasa unga hech qanday mahsulot kirib bormasligiga asoslangan. Masalan: o'g'itlarni aynan sepiladigan vaqtiga yetkazish yoki yem-xashakni aynan chorva iste'mol qiladigan vaqtga yetkazish.

Bu tizimning mohiyati shundaki, uning har bir bo'g'inidagi talab zanjirning so'ngi bo'g'ini talabi bilan aniqlanadi. Agarda zanjir oxirida talab paydo bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarilmaydi va yig'ilmaydi. Bunday mahsulot harakati xuddi daryoga o'xshaydi. Talab daryoning pastki nuqtasidan oqimga qarshi uzatiladi, unga javoban moddiy oqim qaytariladi. Talab kamaysa oqim tezligi pasayadi, va aksincha. (4.3-rasm)

Bu tizimga qarama-qarshi bo'lib talabni kutgan holda mahsulotlarni omborlarda yig'ish tizimi chiqadi. (4.3a-rasm).

4.3- Rasm. Bozor talabini qondirishning ikki varianti

Ushbu tizimning odatdagi ta'minotdan prinsipial farqi 4.4-rasmda ko'rsatilgan.

4.4- Rasm. Oddiy ta'minot bilan «aniq muddatga» tizimi bo'yicha ta'minot sxemalarining taqqoslama tavsifi

Shunday qilib, «aniq muddatga» yetkazish tizimi - bu ehtiyot qismlar yoki tovarlarni, ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan joyga yoki savdo korxonasida sotish vaqtiga, talab qilingan miqdorda va kerak bo'lgan vaqtda, ishlab chiqarish va yetkazib berish tizimidir.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, iste'molchida sifat nazorati yo'q. Demak, bu ishni yetkazib beruvchi o'z zimmasiga olishi lozim. Bunday sharoitlarda yetkaziladigan partiyada sifatsiz mahsulot bo'lishi mumkin emas.

yetkazib beruvchi va xaridor orasidagi, «aniq muddatga» tizimini qo'llash imkonini beruvchi munosabatlar uzoq muddatli xo'jalik aloqalari va shartnomalar asosida barpo etiladi. Shundagina barcha masalalar bo'yicha ikkala tomonni ham qoniqtiradigan yechimlarni topish mumkin.

«Aniq muddatga» tizimi yetkazib beruvchilarni, oddiy ta'minot sharoitidagiga nisbatan, kamroq zaxira bilan ishlashini ko'zda tutadi. Demak, logistik jarayonning barcha ishtirokchilariga qo'yilgan talab yanada kuchayadi, shu jumladan transportchilarga ham. Shuning uchun ham oddiy sharoitda tashuvchi tanlayotganda asosiy e'tibor tashish narxiga qaratilsa, «aniq muddatga» tizimida tashuvchini belgilangan muddatga yetkazib bera olish kafolatiga e'tibor beriladi.

«Aniq muddatga» tizimini qo'llash ishlab chiqarish va tovar zaxiralarini keskin

kamaytirishga imkon yaratib, ombor quvvatlari va xodimlariga bo'lgan talabni kamaytiradi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishda bu tizim quyidagi sxemalarning biri bo'yicha amalga oshadi:

- ❖ Chakana savdo korxonasi ombori - do'kon
- ❖ Ulgurji savdo korxonasi ombori - do'kon
- ❖ Xo'j alik xo'j aligi - do'kon

«Aniq muddatga» tizimini qo'llash juda ham mashaqqatli ishdir. Uni qo'llashdan oldin, «aniq muddatga» tizimi uslubi bo'yicha ishlash eng katta samara berishi mumkin bo'lgan ahamiyatli pozitsiyalarni aniqlash maqsadida, yetkazib berilayotgan tovar yoki ishlab chiqarish resurslari assortimentini differensiatsiyalash kerak. Differensiatsiya quroli sifatida turli tahlil usullarini qo'llash mumkin.

«Aniq muddatga» tizimini qo'llashdan olinadigan asosiy samarani quyidagicha ifodalasak bo'ladi:

- yetkazib berishlarning texnologik zanjiridagi bir qator operatsiyalar chiqarib tashlanadi;

- joriy zaxiralar kamayadi, chunki mehnat buyumlari to'g'ridan-to'g'ri sexga yoki do'konga borib tushadi;

- yaxshi ma'lum bo'lgan yetkazib beruvchilar va tashuvchilar bilan uzoq muddatli munosabatlar o'rnatilishi hisobiga yetkazib berishlarning ishonchliligi oshadi, bu esa sug'urta xarajatlari kamayishiga olib keladi;

- yaqin masofada joylashgan yoki omborlari mavjud yetkazib beruvchilar bilan ishlash natijasida yo'l xarajatlari ham kamayadi;

- mahsuloti sertifikatlangan yetkazib beruvchilar bilan ishlash natijasida, mahsulot sifati ham oshadi;

- «aniq muddatga» tizimini qo'llashdan ikki tomonlama manfaat ko'zlanadi, bu esa yetkazishlar ishonchliligining oshishiga olib keladi.

«Aniq muddatga» tizimini qo'llash oldida turgan ayrim muammolarga ham to'xtalib o'tish lozim.

Iste'molchining sifatga bo'lgan talablari, yetkazib beruvchi xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin.

Iste'molchining yiroqligi, kichik partiyalarni tez-tez tashib turilishi yetkazib beruvchi uchun foydasiz bo'lishi mumkin.

yetakzish muddatlari jadvali, «aniq muddatga» tizimida mahsulotlar ularga ehtiyoj paydo bo'lgandagina olib kelinadi, yetkazib beruvchi uchun esa yagona bir jadval bo'yicha (belgilangan vaqt va hajmda) yetkazish qulayroq.

yetakzishlar hajmi va davriyligi. yetkazib beruvchi va iste'molchi uchun ushbu ikkita parametr bir-biridan farqli o'lchamlarda foydali bo'lishi mumkin.

Mavzu yakunida «aniq muddatga» tizimini loyihalash va kiritish jarayonida yechilishi lozim bo'lgan ayrim masalalarni sanab o'tamiz.

1. yetkazib beruvchilar bilan munosabatlar sohasida:

- yaqin joylashgan yetkazib beruvchilarni izlash;
- uzoq muddatli xo'jalik aloqalariga o'tish;
- tekshirilgan yetkazib beruvchilar bilan shartnoma munosabatlarini uzaytirish (prolongatsiya);

- yetkazib beruvchilarni «aniq muddatga» tizimini qo'llashga qiziqtirish va ularning yetkazib beruvchilariga ham bu tizimni yoyish;

- uzoq muddatli rejalashtirish va xaridlar kafolati hisobiga yetkazib beruvchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- yiroqdagi yetkazib beruvchilarni uyushtirish (to'plash);

- xarid narxlarini har ikkala tomonga ham qulay darajaga olib kelish;

- qog'ozsiz axborot almashinuvini tashkil etish;
 - yetkazib beruvchi kuchi va vositalari yordamida markazlashgan yetkazishni tashkil etish;
 - moddiy oqimlar bilan ishlashda texnologik kartalardan foydalanish.
- 2.** yetkazishlar hajmi bo'yicha:
- ishlab chiqarish tezligi bilan kelishilgan xaridlar tezligini quvvatlash (savdo korxonasi uchun sotish tezligi);
 - kichik hajmlardagi tez-tez yetkazishlarni ta'minlash;
 - shartnoma umumiy hajmi o'zgarmasdan, har bir yetkazish hajmining o'zgarishi bilan ishlash;
 - yetkazib beruvchilar talab qilinayotgan miqdorda mahsulotni qadoqlashga tayyorgarligi uchun ularni mukofotlash.
- 3.** yetkazilayotgan mahsulot sifati sohasida:
- sifat uchun javobgar bo'lgan ishlab chiqaruvchi va iste'molchi xodimlarining o'zaro aloqada bo'lishi.
- 4.** Ortish sohasida:
- yuklar kelishini aniq jadvalini tuzish va unga rioya qilish;
 - doimiy, tekshirilgan tashuvchilardan foydalanish;
 - omborga qo'yish va tashishni o'z ichiga oladigan majmuaviy logistik xizmat ko'rsatishga uzoq muddatli shartnomalar tuzish.

4.6. Tez amal qilish uslubi

Tez amal qilish uslubi «aniq muddatga» tizimining rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Bu uslub - chakana savdo korxonalariga va taqsimot markazlariga mahsulot yetkazib berishlarni rejalashtirish va tartibga solish uslublarini o'z ichiga oladi. Uning asosida esa, savdo korxonasi, uning yetkazib beruvchisi va transport o'rtasidagi logistik o'zaro aloqa yotadi. Uslub mazmuni uning nomida aks ettirilgan: bozorda paydo bo'lgan talabga qarab logistik tizimning tez amal qilishi (4.5-rasm).

4.5- Rasm. Bozor talabiga qarab amal qiluvchi logistik tizim

Agarda yetkazib beruvchi ishlab chiqarish korxonasi bo'lsa, u operativ tarzda o'z ishlab chiqarishini, yangi mahsulot chiqarish maqsadida, qaytadan tashkil etishi lozim. yetkazib beruvchi bozordagi real talab xaqidagi axborotni tezda olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Ishlab chiqaruvchi korxonadan savdo korxonasiga biror-bir mahsulot, o'sha mahsulotga real ehtiyoj paydo bo'lishi extimoli yuqori bo'lgandagina yetkazib beriladi. Buyurtmani topshirish va mahsulotni yetkazish hyech qanday tutilishsiz amalga oshishi kerak. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonani oladigan bo'lsak, u o'z ishlab chiqarishini tezda bir mahsulotdan ikkinchi mahsulotga o'tkaza olsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tez amal qilish uslubi uchta texnologiya va biznesning yangi konsepsiyasini qo'llashga asoslangan:

Birinchi texnologiya: mahsulot shtrix kodlarini avtomatik ravishda aniqlash. Xozirgi vaqtda nima sotilayotgani to'g'risida aniq ma'lumotni tez yig'ishga imkon beradi.

Ikkinchi texnologiya: ma'lumotlarning elektron almashinuvi. Bu nafaqat internet, balki korxonalarga hujjatlangan ma'lumotlar bilan operativ almashish imkonini beruvchi boshqa standartlar majmuasi hamdir.

Uchinchi texnologiya: yuk birliklarini (masalan, tashish konteynerlarini) avtomatik aniqlanishi.

Biznesning yangi konsepsiyasi, bu tovar harakatida ishtirok etuvchi tashkilotlar

orasidagi hamkorlik tuygʻusidir. Ishtirokchilarning oʻzaro kelishuvi nihoyatda katta rol oʻynaydi. Masalan, 80chi yillarning oxirida A+Shda 90%tovarlarda shtrix kod mavjud edi. Ammo tez amal qilish texnologiyasi bilan atigi bir necha yuzta hamkorlar oʻzaro bogʻlangan edilar xolos. Joriy etishning sekinligiga texnologiya yangiligi emas, balki ishtirokchilar (chakana savdogarlar, distribyutorlar, ishlab chiqaruvchilar) orasidagi bir-biriga boʻlgan ishonchsizlik tuygʻusi sabab. Tarixan shunday boʻlganki har bir tashkilot koʻproq foyda olishni, va bu ishni boshqa tashkilot foydasi hisobiga amalga oshirishni koʻzlaydi. Ushbu raqiblik munosabatlarini yengish, texnik-texnologik masalalarni yechishdan ham murakkabroqdir.

5. Taqsimot logistikasi

5.1. Taqsimot logistikasi tushunchasi

«Taqsimot» soʻzi juda keng qoʻllaniladi, uning lugʻaviy maʼnosi - biror-bir narsani kimlargadir (nimalargadir) boʻlib berish, unda har biriga oʻziga tegishli qismi taqdim etilishi tushuniladi.

Iqtisodiyotdagi taqsimot - bu ishlab chiqarish jarayonining bir bosqichidir, oldin moddiy neʼmatlarni ishlab chiqarish, keyin esa taqsimlash, yaʼni yaratilgan mahsulotdagi har bir ishlab chiqaruvchining ulushini aniqlash, lozim. Bunda ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotga boʻlgan egalik xuquqi taqsimlanadi. Mahsulotlarning oʻzi esa, masalan ombordagi sabzavotlar, ishlab chiqarish jarayoni ishtirokchilari orasida taqsimlanmaydi.

Logistikada taqsimot deganda ushbu jarayonning buyumlashgan, seziladigan bir maʼnosi tushuniladi. Egalik xuquqlari taqsimoti bilan bogʻliq qonuniyatlar ham eʼtiborga olinadi, ammo ular tekshirish va optimallashtirishning asosiy predmeti hisoblanmaydi. Taqsimot logistikasida oʻrganiladigan asosiy predmet - mavjud materiallar zaxirasining jismoniy taqsimot jarayonini ratsionallashtirishdir. Mahsulotni qanday qadoqlash lozim, qaysi yoʻnalish boʻyicha joʻnatish kerak, omborlar tarmogʻi kerakmi (kerak boʻlsa, qanday?), qanday vositachilar kerak - aynan shu masalalarni taqsimot logistikasi yechishi lozim boʻladi.

Logistika moddiy oqimlarning toʻliq boshqaruvini oʻrganadi va amalga oshiradi, shuning uchun ham barcha bosqichlarda taqsimot masalalarini yechish, yaʼni nimanidir kimlargadir boʻlib berish zarur boʻladi:

- ❖ tovarlar xarid qilinganda yetkazib beruvchilar orasida buyurtmalar taqsimlanadi;


- ❖ yuklar korxonaga kelib tushgandan soʻng, ular saqlash joylari boʻyicha taqsimlanadi;

- ❖ ishlab chiqarishning har xil boʻlimlari oʻrtasida moddiy zaxiralar taqsimlanadi;

- ❖ savdo jarayonida moddiy oqimlar taqsimlanadi va hokazo.

Taqsimot logistikasi chegaralarini belgilab olish uchun, kapital ishlab chiqarish jarayonining chizmasini koʻrib chiqamiz (7.1-rasm), maʼlumki u uchta bosqichdan iborat.

Ishlab chiqarish vositalarini xarid qilish bosqichidagi moddiy oqimlar xarid logistikasining oʻrganish va boshqarish obʼekti boʻlsalar, ishlab chiqarish bosqichidagi moddiy oqimlar- ishlab chiqarish logistikasi obʼekti hisoblanadi. Tayyor mahsulotlarning taqsimoti va realizatsiyasi bosqichidagi moddiy oqimlar esa - taqsimot logistikasining obʼekti boʻladilar.



5.1-Rasm. Kapital ishlab chiqarish jarayoni va logistikaning funksional sohalari

Taqsimot logistikasi bu isteʼmolchining talab va manfaatlariga muvofiq tayyor mahsulotni ungacha yetkazish jarayonidagi tashish, omborga qoʻyish va boshqa moddiy va

nomoddiy operatsiyalarni rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish to'g'risidagi bilimlar majmuidir. Shu bilan birga ushbu axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash ham taqsimot logistikasi doirasiga kiradi.

Taqsimot logistikasi quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- moddiy va axborot oqimlarini boshqarish jarayonini marketing maqsadlari va vazifalariga bo'ysunishi;
- taqsimot jarayonining ishlab chiqarish va xarid jarayonlari bilan tizimli o'zaro aloqasi (moddiy oqimlarni boshqarish nuqtai- nazaridan);
- taqsimot ichidagi barcha funksiyalarning tizimli o'zaro aloqasi.

Taqsimot logistikasining ta'rifi quyidagicha ifodalanadi: taqsimot logistikasi - bu xar xil ulgurji xaridorlar o'rtasidagi, ya'ni ulgurji savdo jarayonida amalga oshiriladigan, o'zaro aloqador funksiyalar majmuasidir.

Chakana savdo jarayoni, odatda, logistikada tadqiqot etilmaydi. Bu jarayon samaradorligi, logistika doirasidan tashqaridagi omillarga bog'liq, masalan iste'molchilar psixologiyasini bilishga, savdo zalini bezash mahoratiga, reklamani tashkil etishga va boshqalarga. Chakana savdo jarayonida moddiy oqimlarning ratsional tashkil etilishi albatta zarur, ammo uning ahamiyati moddiy oqim harakatining oldingi bosqichlaridagiga nisbatan ancha kam.

Shuni ham aytish lozimki yuqorida aytilganlarning barchasi butun chakana savdo jarayoniga emas, (u o'z ichiga ulgurji xarid va chakana savdolarni oladi), balki faqatgina chakana savdoga, ya'ni iste'molchilarga xizmat ko'rsatishga, tegishli.

Taqsimot logistikasining o'rganish ob'ekti - yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bo'lgan harakat bosqichidagi moddiy oqimlardir.

Moddiy oqim taqsimoti anchadan buyon faoliyatining ahamiyatli tomoni bo'lib kelmoqda edi, ammo nisbatan yaqindagina u eng muxim funksiyalardan biri mavqeyiga ega bo'ldi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda 50-60chi yillargacha taqsimot tizimlari hеч qanday boshqaruvsiz rivojlanib keldi. Taqsimot kanallarini tanlash, tovarlarni qadoqlash, ularni tashish va iste'molchiga yetkazishga tayyorlash, ishlab chiqarish va materiallarni xarid qilish masalalari bir-biri bilan o'zaro aloqada yechilar edi. Birgalikda taqsimot funksiyasini tashkil etuvchi ayrim kichikroq funksiyalar, mustaqil funksiyalar sifatida ta'riflanar edi. 60-70chi yillarning boshlaridagina, ishlab chiqilgan mahsulot taqsimotiga doir barcha funksiyalarni yagona boshqarish funksiyasiga birlashtirish samaradorligini oshirishga olib kelishini angladilar. Buning natijasida taqsimot funksiyalari korxona va tashkilotlarning funksional boshqaruvi tuzilmasiga kiritildi.

Savdodagi taqsimotning har xil funksiyalari integratsiyasiga, do'konlarni ta'minlovchi maxsus tuzilmalarni bo'linishi va rivojlanishi misol bo'lishi mumkin. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, 70-chi yillarda, bunday taqsimot tuzilmalarini yirik chakana savdo tashkilotlari barpo etib, ularni rivojlantirishga kirishdilar. Taqsimot markazlarining samaradorligiga tovarlarning yirik partiyalarini olish munosabati bilan beriladigan chegirmalar hisobiga, yetkazib berish samaradorligi hisobiga, hamda bir taqsimot markazida xizmatlardan foydalanuvchi do'konlar zaxirasi to'planishi hisobiga erishiladi.

5.2. Taqsimot logistikasining vazifalari

Taqsimot logistikasi, yetkazib beruvchi - iste'molchi munosabatlarida moddiy oqimni boshqarish bo'yicha barcha vazifalar majmuini o'z ichiga oladi. Bunda tayyor mahsulotni iste'molchigacha harakati jarayonida yechiladigan moddiy oqimlar boshqaruvi vazifalari asosiy o'rinni egallaydi.

Taqsimot logistikasi vazifalarini yechish jarayonida quyidagi savollarga javob topish lozim:

- qaysi kanal bo'yicha mahsulotni iste'molchiga yetkazish;
- mahsulotni qanday qadoqlash;

-logistikaga omborlar tarmog'i kerakmi, agarda kerak bo'lsa, qanday, qancha va qaerda;

-xizmat ko'rsatishning qaysi darajasini ta'minlash, va boshqa qator masalalar.

Mikro va makro darajadagi logistik taqsimot vazifalari tarkibi har xil. Korxona darajasida, ya'ni mikro darajada logistika quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi: - realizatsiya jarayonini rejalashtirish;

-buyurtma qabul qilishni va qayta ishlashni tashkil etish;

-qadoq turini tanlash, butlash haqida qaror qabul qilish, va yuklashdan oldingi boshqa operatsiyalar bajarilishini ta'minlash;

-mahsulot yuklashni tashkil etish;

-yetkazib berishni tashkil etish va tashishni nazorat qilish;

-realizatsiyadan keyingi xizmat ko'rsatishni tashkil etish.

Makro darajadagi logistika vazifalari quyidagilar:

-moddiy oqimni taqsimlash chizmasini tanlash;

-xizmat ko'rsatiladigan hududdagi taqsimot markazlarning (omborlarning) optimal miqdorini aniqlash;

-xizmat ko'rsatiladigan hududda taqsimot markazi (ombor) joylashuvining optimal joyini aniqlash, hamda moddiy oqimni tuman, viloyat, mamlakat hududidan o'tish jarayonining boshqaruvi bilan bog'liq boshqa qator vazifalar.

5.3. Logistik kanallar va logistik zanjirlar.

Moddiy oqim xom - ashyo manbaidan, yoki ishlab chiqarishdan, yoki taqsimot markazidan chiqib, ishlab chiqarishga, taqsimot markaziga yoki oxirigi iste'molchiga borib tushadi (5.2-rasm).

5.2- Rasm. Moddiy oqimni iste'mol tizimiga tushish variantlari

Barcha xollarda moddiy oqim iste'molga borib tushadi, u esa ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish bo'lmasligi mumkin.

Ishlab chiqarish iste'moli - bu jamiyat mahsulotini ishlab chiqarish ehtiyojlarida, mehnat vositasi yoki predmeti (buyumi) sifatida joriy ishlatilishidir. Noishlab chiqarish iste'moli - bu jamiyat mahsulotini noishlab chiqarish sohaslarining korxona va muassasalaridagi shaxsiy yoki aholi iste'moliga joriy ishlatilishidir.

Moddiy oqimning logistika chegaralarida harakatlanishining barcha bosqichlarida uni ishlab chiqarish iste'moli sodir bo'ladi. Logistik zanjirni yakunlovchi so'nggi bosqichdagina, moddiy oqim noishlab chiqarish iste'moli sohasiga tushadi.

Logistik zanjir ishlab chiqarish iste'moli bilan yakunlanishi xam mumkin. Masalan: mehnat qurollari oqimi, zavodda ishlab chiqarilgan traktorlar keyinchalik yana ishlab chiqarishda «iste'mol» qilinadi. Shuningdek, ishlab chiqarish iste'moliga, moddiy oqimlarning taqsimot markazidagi shakllanishi jarayoni ham kiradi. Bu yerda saralash, qadoqlab yuk partiyalarini shakllantirish, saqlash, butlash kabi operatsiyalar amalga oshiriladi. Bu operatsiyalar majmui aylanish sohasidagi ishlab chiqarish jarayonini tashkil etadi.

Harakatlanishning barcha bosqichlarida, moddiy oqim logistik jarayon ishtirokchilarining mehnat predmeti sifatida xizmat qiladi. Ishlab chiqarish texnik maqsadlarda ishlatiladigan mahsulot harakati bosqichida bu qayta ishlanmagan xom- ashyo materiallari, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Tovar harakati bosqichida moddiy oqim tayyor istemol mollari harakatidan iborat bo'ladi.

Umumiy holda, moddiy oqimlarning yetkazib beruvchisi va iste'molchisi ikkita mikrologistik tizim sifatida nomoyon bo'ladi, ular logistik kanal, yoki

boshqacha qilib aytganda taqsimot kanali bilan o'zaro bog'langanlar. **Logistik kanal** - bu moddiy oqimni muayyan ishlab chiqarishdan uning iste'molchisigacha yetkazishni amalga oshiruvchi, qisman tartibga solingan har xil vositalar ko'pligidir.

Moddiy oqimni yetkazib beruvchidan iste'molchigacha bo'lgan harakati jarayonining muayyan ishtirokchilari tanlanmaguncha bu ko'plik qisman tartibga solingan bo'lib qolaveradi. Bundan keyin esa logistik kanal logistik zanjirga aylanadi (4.3-rasm). Masalan mahsulotni vositachi firma orqali realizatsiya qilish xaqida qaror qabul qilinganligi, bu iste'molchi bilan bevosita ishlashni rad etib, taqsimot kanalini tanlashdir. Muayyan vositachi firmasini, muayyan tashuvchini, muayyan sug'urta korxonasini tanlash esa - bu logistik zanjirni tanlashdir. **Logistik zanjir** - bu tashqi moddiy oqimni bir logistik tizimdan ikkinchisigacha yetkazish bo'yicha logistik operatsiyalarni amalga oshiruvchi, logistik jarayon ishtirokchilarining chiziqli tartibga solingan ko'pligidir.

$$T_n \quad D_m \quad T_n$$

a)

$$T_i \quad D_j \quad T_k$$

$$T_1 \quad D_1 \quad T_1$$

b)

shartli belgilashlar:

$T_1...T_n$ - tovarlarni yetkazish bo'yicha xizmatlar majmuini ko'rsatuvchi, transport-ekspeditsion firmalar ko'pligi;

$D_1...D_n$ -distribyuterlar ko'pligi;


5.3- Rasm. Logistik kanalning logistik zanjirga o'tishi

Iste'mol mollari taqsimot kanallarining ayrim variantlari 5.4-rasmda keltirilgan.

Makro logistika darajasida, logistik kanallar va logistik zanjirlar bu makro logistik tizimlar orasidagi aloqalardir. Makrologistik tizimning turiga bog'liq holda taqsimot kanallari har xil ko'rinishga egadirlar. To'g'ri aloqalarga ega bo'lgan logistik tizimlarda taqsimot kanallari hech qanday ulgurji - vositachi firmalarga ega emas. Egiluvchan tizimlarda esa bunday vositachilar mavjud.

Taqsimot kanalini tanlashda, tovar harakati shaklini - tranzit yoki ombor - tanlash amalga oshiriladi. Logistik zanjir tanlanganda - muayyan distribyutor, tashuvchi, sug'urtalovchi, ekspeditor, bankir va hokazolar tanlovi amalga oshiriladi. Bunda turli xil ekspert baholari uslubiyotlari, operatsiyalarni tekshirish uslubiyotlari va boshqalar ishlatilishi mumkin.

Logistik kanalni tanlash imkoniyati, logistik jarayonlar samaradorligi oshishini muhim rezervi (zaxirasi) hisoblanadi.



5.4- Рasm. Iste'mol mollari taqsimoti kanallarining turli xil variantlari

Taqsimot kanallarini ko'rib chiqamiz, ular bo'yicha tovarlar so'nggi ishlab chiqarishdan taqsimot markazlari orqali oxirgi iste'molchiga borib tushadilar (7.5- rasm).

5.5- Рasm. Iste'mol mollarini taqsimot kanallarining tuzilmaviy chizmasi

Ikkinchi yo'nalish 1-6 aynan shu sabablarga ko'ra noqulay. №1 taqsimot markazi ishlab chiqarish to'plangan joyda joylashgan, va, odatda, bir xil tovarning katta hajmlarini olib-sotadi. Vositachilarning bu turi ham keng assortimentni shakllantirmaydi. Keng assortimentni, iste'mol to'plangan joyda joylashgan, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi №2 taqsimot markazi shakllantiradi. Bu vositachi, iste'molchiga maksimal xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. Shunday qilib, 1-7-5 kanali iste'molchiga eng yaxshi xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi, lekin o'z ichiga ikkita vositachini ham oladi, ya'ni tovar narxi ham eng yuqori bo'ladi.

6. Logistika va marketing

Yuqorida ta'kidlanganidek, logistikaning eng so'nggi maqsadi firma mahsulotini samarali sotish hisoblanadi. Aynan tovarlarni sotish, iste'molchi talabi darajasini kengaytirish va oshirish firmaning ishlab chiqarish-sotish faoliyatini aniqlashi hamda uni iqtisodiy jihatdan oqlashi kerak. Shunday qilib, bozor holatini o'rganish, talab va ob'ektiv mavjud iste'molni qondirishga intilish zamonaviy firma faoliyati asosiga yaxlit holda qo'yilgan bo'lishi lozim. Bu marketing vazifasi asosini tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, logistika o'z ichiga marketing tadqiqotlarni olgan holda ancha katta tushuncha hisoblanadi.

Marketing bozor va uning ahvolini, aynan mavjud talab va ehtimolli ehtiyojlarni, takliflarning borligini o'rganish, raqobat xususiyati hamda darajasi bilan shuqullanadi. Logistika firmaning amaliy ishlab chiqarish-sotish faoliyatida marketing tadqiqotlarni jismoniy mavjud bo'lgan ehtimolli talablarini qondirishga yo'naltirilgan tarzda tashkil etib, uning natijalarini amalga oshiradi. Buni quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Amerika Marketing assotsiatsiyasi ta'rifiga muvofiq: marketing g'oyani rejalashtirish va tatbiq etish, ayrim shaxs hamda tashkilotlar maqsadlarini qondiruvchi ayriboshlash orqali g'oya, tovarlar va xizmatlarning harakati va ularni amalga oshirish jarayonini ifoda etadi.

Shunday qilib, marketing bir martalik tadbir bilan cheklanib qolmasdan keng ko'lamli faoliyatni ifoda etadi. Marketing reklama va tovar omborlaridagi mahsulotni sotishni tezlashtirish bo'yicha an'anaviy tadbirlarni istisno qilmaydi. Marketing iste'molchilarning mavjud talablariga va uning bozor ahvolidan o'zgarishiga moslashtirishga mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Marketing tamoyillari asosida boshqarish uchun rahbar yoki rahbariyat organ yuqorida zikr etilganidek, bozor konyukturasi to'g'risidagi to'liq axborotga ega bo'lishi kerak. Ushbu axborot - birlamchi yoki ikkilamchi, marketingdan qat'i nazar firma ichida yoxud tashqarisida bor bo'lishi, shuningdek, marketing tadqiqotlar natijasida maqsadga muvofiq tarzda shakllanishi mumkin.

Axborotning birlamchi turiga quyidagilar kiradi:

- ichki axborot, masalan, arizalar, buyurtmalar, bitimlar, shartnomalar, ombor naqdligi, tannarx, narxlar, mavjud kataloglar va preyskurantlar bo'yicha ma'lumotlar va boshqalar;
- joriy tashqi axborot, masalan, bozor muhitidagi yo'nalishlar, xo'jalik va moliyaviy aloqalar, konyutura o'zgarishlari va boshqalar to'g'risidagi tezkor ma'lumotlar.

Yo'naltirilgan marketing tadqiqotlar natijasida yangi tovarlar, ularni taqsimlash mumkin bo'lgan kanallar, narxlar darajasi, baho belgilash, mijozlar bilan ishlashga taaluqli holat, sotishdan keyingi talab etiladigan servis xizmati darajasi, reklama samaradorligi, darajasi va hokazolar aniqlanadi.

Logistika marketing tomonidan barcha parametrlar bo'yicha mos ravishda aniqlangan talab va uning o'zgarish yo'nalishlariga hozirjavoblikni amalga oshiradi. Bunday bir xil hozirjavoblik uchun ingliz tilidagi adabiyotda "tezda javob berish texnologiyasi" atamasi mavjud. Logistika umumiy ilmiy-amaliy yul yalish bo'lib, firmaning yagona tashkiliy-texnologik faoliyati bosqichini qamrab oladi.

Shuningdek, marketing haqiqatdan mavjud bo'lgan ehtimolli talabni tahlil qiladi va qaerda, qachon, qancha miqdorda, qanday sifatda qanaqa mahsulot talab etilishi to'g'risidagi axborotni shakllantiradi. Logistika aniqlangan ehtiyojni eng kam harajatlar va katta iqtisodiy samaradorlik bilan qondirish masalasini hal etadi. Iste'molchi tomonidan aniqlangan talabni qondiradigan tovarni haqiqatdan olganligi va eng kam harajatlar bilan transport-ekspeditsiya ishlarini bajarishda ushbu ishni samarali tashkil etish bilan bog'liq masalalar doirasi logistikaning taqsimlash logistikasi, deb ataladigan funksional sohasi vakolatiga kiradi.

Marketingni logistik boshqaruvning umumiy chizmasiga kiritish firma oldida tovarlarning bozorda muvaffaqiyatli harakatlanishi, mijozlar doirasini kengaytirish va ularning darajasini oshirish, iqtisodiy jihatdan narx va texnik siyosatni o'tkazish uchun kerak bo'lgan vazifalarni ta'riflaydi.

Boshqaruv logistikasi buning uchun tadbirlarning ikkita guruhini taklif etadi:

- firmaning ishlab chiqarish faoliyatini sotish jarayonini modellashtirish yo'li bilan rejalashtirishni tekshirish;
- sotishni tashkil etish va uning ko'rsatkichlaridan ishlab chiqarish dasturlarini ishlab chiqish hamda to'qirlashda foydalanish bo'yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqish va qabul qilish.

Taqsimlash logistikasining ahamiyati ayniqsa zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari tahlili muomala va sotish sohasining roli yanada oshib borayotganini

ko'rsatayotgani munosabati bilan ortib bormoqda.

Bu tovar mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar, ayniqsa yirik ishlab chiqaruvchilar mustaqil ravishda ko'proq sotib olib, kam ishlab chiqaradi degani. Masalan, qator mashinasozlik va metalni qayta ishlovchi firmalarda tadqiqot ishlarini o'tkazgan Shveysariyaning bank uyushmasi ma'lumotlari ko'ra, boshqa korxonalardan sotib olish uchun ushbu firma aylanma mablag'ining 40 foizi to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich o'sishi mumkin.

Shu bois ishlab chiqarish-sotish faoliyatini zamonaviy tashkil etish uchun quyidagi yo'nalishlarda harakat qilish kerak:

- sotishni, an'anaviy va yangi tovarlarni reklama qilishni raqbatlantirish, mijozlarga servis xizmati, shu jumladan sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va hajmini ko'paytirish, turli lizing shartnomalar tuzish, diskontlash va chegirma tizimni rivojlantirish va hokazolar;

- o'z transport-taqsimlash faoliyati, mahsulotni iste'molchiga tegishli ravishda tashkil etilgan taqsimlash kanallari orqali haqiqatdan yetkazib berishni amalga oshirish;

- firmaning sotish talablarini qondirishga texnologik jihatdan tayyorgarligini ta'minlash, texnologiyalar portfelini tashkil etish;

- sotishning o'zgarishiga bir xil javob beradigan integratsiyalashgan tadbirlar kompleksini o'tkazish.

Ushbu tasnifni ko'rib chiqishda bitta muhim holatni qayd etish lozim. Firmaning uning faoliyatini davom ettirish va rivojlanishining garovi hisoblangan o'rab turgan iqtisodiy muhit bilan ko'p qirrali aloqalarini rivojlantirish, kengaytirish va diversifatsiyalash sotish shartlari o'zgarishiga tez va bir xil javob qaytirishni talab etadi. Buning uchun esa firma ma'lum texnologik imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Oddiy qilib aytganda, o'zgarib borayotganda sharoitlarda nima ishlab chiqarish talab etilishini aniqlashning o'zi yetarli emas, qulay fursatlarda ushbu mahsulotni ishlab chiqarishni amaliy tashkil etish imkoniyatiga ham ega bo'lish lozim.

Ko'plab yetarli darajada yirik va mashhur firmalarning beqaror moliyaviy ahvolidan asosiy sabablari ularning texnologik bazasi sotishning o'zgarishiga nisbatan faoliyatsizligidadir. Agarda marketing faoliyati texnologiya sohasida taraqqiyotni hisobga olmasa, uning natijalari adashish xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Texnologik bazaning marketing tadqiqotlar natijalari bilan moslashish muammosi ayniqsa murakkab mahsulot turlari va texnologik bazasining yuqori darajasi bilan ajralib turadigan firma mahsulotlarini samarali sotish uchun dolzarbdir. Firmaning texnologik imkoniyatlarini oshirishda asosiy jihat ko'p ixtisosli texnologiyalar portfelini shakllantirish hisoblanadi.

Asosiy ko'p ixtisosli texnologiyalarni tashkil etish jarayoni ularning raqobatbardoshligini bir qancha manfaatdor tashkilotlarning birgalikdagi say'- harakatlari bilan ta'minlash bosqichida NIR va OKRni o'tkazishni nazarda tutadi. Ba'zida bu ish davlat ko'magidan (hattoki asosida) foydalanilgan holda bajariladi. Texnologiyalar portfelini shakllantirish maqsadida yoki ularni selektiv qo'llab- quvvatlashni tashkil etish uchun bunday texnologiyani tanlash uslubiyati ekspert baholash uslubiga asoslanadi.

Marketing samaradorligi firma strategiyasining sotuvlarning tushishi yoki ko'tarilishi sharoitlarida mosligini baholashda ham ifoda etiladi. Faol strategiyalar ehtiyojlar o'zgarishini tekzor kuzatishni emas, balki ushbu o'zgarishlarga ta'sirlarni anglatadi. Qator holatlarda bozorni "bo'ysindirish" haqida gapiriladi. Vaholanki bunga faqat yirik kompaniyalar qodir.

Integratsiyalar bo'yicha tadbirlar bozor talablari o'zgarishiga faol ta'sir qilish imkonini beradi.

Sotishlarning ishlab chiqarishni oshirish maqsadida o'sishi sharoitida firma dastlabki materiallarni xarid qilishni ko'paytirish lozim. Biroq bu yetkazib berishlar raqobatchilar tomonidan sotib olinishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik va materiallarni sotishlarning o'sib borayotgan sharoitida yetkazib berishni kafolatlash uchun firma dastlabki xomashyoni yetkazib beruvchi firmalarni sotib olishi ham mumkin. Bunday holatda "pastga qarab

integratsiyalashish” sodir bo‘ladi.

Sotishlar tushib ketgan holatda imkoniyatli xaridor jami mahsulotni va butun bir firmani umuman sotib olishi mumkin. Bu esa “yuqoriga qarab integratsiyalashish”ni anglatadi. Xarid qilayotgan ishlab chiqaruvchi firma integratsiyaning bunday turini sotishlarning kerakli darajasini saqlashni ta'minlash mumkinligi bois qo‘llashi mumkin.

Integratsiyaning ikkala turi ham o‘zib ketuvchi bo‘lishi mumkin. Biroq “yuqoriga qarab integratsiyalashish”ni o‘zib ketuvchi sur'atda amalga oshirish afzalroqdir. Bu holatda integratsiyalashish sotishlar darajasi deyarli tushmagan bo‘lsada, uning pasayishga bo‘lgan yo‘nalishi aniqlanganligi bois taxminiy marketing tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi.

Va nihoyat, ikki yoki undan ortiq bir xil yo‘naltirilgan, bitta yoki bir-biriga yaqin mahsulotni ishlab chiqaradigan firmani birlashtirish natijasi “gorizontal integratsiyalashish” hisoblanadi. Gorizontal integratsiyalashish umumiy bo‘lgan resurslardan foydalanishni yaxshilash, buyurtmalarni maqsadga muvofiq tarzda taqsimlash, yagona narx siyosatini o‘tkazish, integratsiyalashgan kompaniyaning bozordagi ulushini ko‘paytirishga olib keladi. Ushbu ulush bu kabi integratsiyalashgan ayrim kompaniyalar ulushining qimaytidan oshirish kerak.

Qator holatlarda esa (ayniqsa monopoliyaga qarshi faoliyatga davlat organlarining aralashuvi natijasida) yirik kompaniyalarni kichiklashtiriladi. Bunda ularning avvalgi yo‘nalishi saqlanishi yoki o‘zgarishi mumkin. Bu jarayon tarkibiy qismlarga bo‘lish, deb ataladi.

Shunday qilib, marketing dastlabki ma'lumotlarni logistika tizimining ishlashi uchun yetkazib beradi. Keng ma'noda logistika vazifasi ehtiyoj o‘zgarishlariga mos keladigan sotish darajasini ta'minlashdan iborat. Tor ma'noda esa iste'molga tayyor mahsulot o‘z vaqtida, eng kam harajatlilar bilan sifatiga zarar yetkazilmasdan, talab etilgan miqdorda va kelishilgan muddatda uni talab qilgan iste'molchilarga yetkazib berilishi lozim. Logistikaning yuqorida zikr etilgan tor ma'nodagi mahsulotni taqsimlashga taaluqli funksional sohasi shaxsiy taqsimlash logistikasi, deb ataladi.

Keyingi yillarda sotish faoliyati mexanizmlarini rivojlantirish jarayoni davom ettirishi mumkin. Bu rivojlanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- taqsimlashni markazlashtirish, bu yetkazib berishlar ishonchliligini oshiradi va zahiralar miqdorini kamaytirishga olib keladi, shuningdek, kichik yetkazib beruvchilarga ushbu jarayonda ishtirok etish imkonini beradi;

- yetkazib berish bo‘yicha turli iste'molchilardan kelib tushgan buyurtmalarni bir yerda to‘plash;

- tovarlarni yetkazib berishni reklama faoliyatini kengaytirish, ommaviylikni ko‘paytirish, kataloglar va preyskurantalrning xilma-xilligi bilan birikkan holda rag‘batlantirish darajasini oshirish;

- tovarlarni sotish va yetkazib berish bo‘yicha barcha hamkorlarni axborot bilan ta'minlash darajasini oshirish va ko‘paytirish.

Shu tarzda taqsimlash yoki sotish logistikasi taqsimlashning butun bir zanjirini - mahsulotni transportda tashish, omborlarga joylashtirish va sotish jarayonlarini qamrab olishi kerak.

7. Qishloq xo‘jaligi logistikada zaxiralar

7.1. Moddiy zaxira tushunchasi

Moddiy zaxira tushunchasi logistikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Tabiatdan olingan xom-ashyo, oxirgi iste'molchiga tayyor mahsulot ko‘rinishida yetib borgunga qadar, harakatlanadi, boshqa materiallar bilan birikadi va ishlab chiqarishda qayota ishlanadi. Moddiy zanjir bo‘ylab harakatlanayotgan xom-ashyo (keyinchalik esa yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ham) u yoki bu ishlab chiqarish yoki logistik operatsiyaga kirish navbatini kutib to‘xtalib turadi.

Moddiy zaxiralar - bu ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida turgan, shaxsiy yoki ishlab chiqarish iste'moli jarayoniga kirishishni kutayotgan, ishlab chiqarish - texnik maqsadda, aholi iste'molida va boshqalarda ishlatiladigan tovarlardir.

Agarda, birlamchi xom-ashyoni aholi iste'moli mollariga aylanishini va uni harakatlanishini ta'minlovchi ishtirokchilarning butun zanjiri yagona mexanik konveyer kabi ishlaganda, kutish vaqtini deyarli nolga tushirish mumkin bo'lar edi. Ammo hayotda bunday kutishlarsiz bo'lmaydi.

Zaxiralarni yaratish doimo xarajatlar bilan bog'liq. Zaxiralarni yaratish va saqlash bilan bog'liq bo'lgan, xarajatlarning asosiy turlarini sanab o'tamiz:

- «muzlatib qo'yilgan» moliyaviy mablag'lar;
- maxsus jihozlangan xonalarga bo'lgan xarajatlar;
- maxsus xodimlarning ish xaqi;
- nosozliklar, o'g'irliklarning doimiy xavfi;

Zaxiralar mavjudligi - bu xarajatlardir. Ammo zaxiralar yo'qligi - bu ham xarajat, faqatgina ular turli xildagi yo'qotishlar ko'rinishida bo'ladilar. Zaxiralar yo'qligi bilan yuzaga keladigan yo'qotishlarning asosiy turlariga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarishdagi to'xtalishlardan bo'lgan yo'qotishlar;
- talab qilingan vaqtda omborda tovar bo'lmaganidan yuzaga kelgan yo'qotishlar;
- tovarlarning kichik partiyalarini yuqori bahodan sotib olgandan yuzaga kelgan yo'qotishlar.

Zaxiralar mavjudligi muayyan xarajatlar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, ishbilarmonlar ularni yaratishga majburlirlar, chunki zaxiralar yo'qligi undan kattaroq foydani yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Zaxiralarni ratsional boshqaruvi, zaxiralarga bo'lgan minimal xarajatlarda, ishlab chiqarish va savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlashga imkon beradi.

7.2. Zaxiralar hosil qilishning zarurligi

Ishbilarmonlar moddiy zaxiralarni yaratayotganda tayanadigan asosiy omillar quyidagilar.

Talabning o'zgarish ehtimoli (chiquvchi moddiy oqim intensivligini bashorat qilib bo'lmaydigan pasayishi). Tovarga bo'lgan talab o'zgarib turadi, va uni o'zgarishini har doim ham oldindan bilib bo'lmaydi. Shuning uchun, agarda yetarlicha zaxiraga ega bo'lmasa to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan talab qondirilmasligi mumkin, ya'ni ishbilarmonda tovar bo'lmagandan keyin mijozning puli o'zida qolib u xaridsiz ketib qoladi.

Tovarlarning ayrim turlariga bo'lgan talabni mavsumiy o'zgarishi. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlariga tegishlidir. Masalan, O'zbekistonda kartoshka hosili yig'iladi. Ammo kartoshka oqimlari tovar o'tkazuvchi zanjirlar (bozorlar, do'konlar) bo'ylab yil davomida harakatlanadi. Demak, qaerdadir zaxira yig'ilishi lozim bo'ladi.

Tovarlarning yirik partiyalarini xarid qilganlarga beriladigan chegirmalar ham zaxiralar yaratishning sababchisi bo'lishi mumkin (ayrim yurtdoshlarimiz aynan shu sababli uylarida oziq-ovqatlarning nisbatan katta zaxiralarini saqlaydilar).

Mahsulotlarni olib-sotish. Ayrim tovarlarning narxi keskin oshib ketishi mumkin. Bu oshishni oldindan ko'ra bilgan korxona, bozor narxini o'zgarishi hisobiga foyda olishni ko'zlab zaxira yaratadi.

Buyurtmani joylashtirish va yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning kamayishi.

Har bir yangi buyurtmani rasmiylashtirish va yetkazish jarayoni qator xarajatlar bilan kuzatiladi:

- ma'muriy xarajatlar: yetkazib beruvchini izlash, u bilan muzokaralar olib borish, xizmat safarlari, shaharlararo telefonda so'zlashuvlar va hokazolar;
- buyurtmani tashishga bo'lgan xarajatlar;

Bu xarajatlarni, buyurtmalar miqdorini kamaytirgan holda, pasaytirish mumkin. Bu esa buyuriladigan partiya hajmini oshishiga, va zaxira ko'payishiga olib keladi.

yetkazishlarning belgilangan grafigini buzilish ehtimoli (kiruvchi moddiy oqim intensivligini bashorat qilib bo'lmaydigan pasayishi). Bunday holda, savdo jarayoni to'xtab qolmasligi uchun, zaxiralar zarur bo'ladi. Bu ayniqsa korxona daromadini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydigan tovarlar uchun muhimdir.

Ishlab chiqarishda esa, jarayonlarning rejalashtirilmagan to'xtab qolishi, ishlab chiqarishning uzluksiz sikliga ega bo'lgan korxonalar uchun ayniqsa xavflidir.

Mahsulot birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish. Mahsulotlarni talab paydo bo'lgan sari kichik partiyalar bilan ishlab chiqarish mumkin. Unda zaxiralar kichik bo'ladi, ammo bir birlik mahsulot tannarxi oshadi. Ikkinchi variant - bitta katta partiya ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni zaxirada saqlab turish. Bunday holda, zaxira oshgan taqdirda ham, bir birlik mahsulot tannarxi pasayishi mumkin.

Ishlab chiqarish va taqsimot operatsiyalarini bir tekisda amalga oshirish imkoniyati. Faoliyatning bu ikkita turi o'zaro bog'langan bo'ladi: ishlab chiqarilgan narsagina taqsimlanishi mumkin. Zaxiralar yo'qligida, taqsimot tizimidagi moddiy oqimlar intensivligi ishlab chiqarish intensivligini o'zgarishlariga muvofiq ravishda o'zgarib turadi. Taqsimot tizimida zaxiralarning mavjudligi, ishlab chiqarishdagi vaziyatdan qat'iy nazar, realizatsiya jarayonini yanada tekisroq amalga oshirishga imkon beradi.

O'z navbatida, ishlab chiqarish zaxiralarning mavjudligi, xom-ashyo yetkazishdagi o'zgarib turishlarni tekislab, ishlab chiqarish jarayonining bir tekisligini ta'minlaydi.

Xaridorga tezda xizmat ko'rsatish imkoniyati. Xaridor buyurtmasini quyidagi usullarning biri bilan bajarish mumkin:

- buyurilgan tovarni ishlab chiqarish;
- buyurilgan tovarni sotib olish;
- buyurilgan tovarni mavjud zaxiradan tezda olib berish;

Oxirgi usul, odatda, eng qimmat bo'ladi, chunki u zaxiralarni saqlashni talab etadi. Ammo raqobat muxitida aynan ushbu omil hal qiluvchi bo'lishi mumkin.

Ehtiyot qistlar bo'lmaganligi uchun yuzaga keladigan ishlab chiqarishdagi to'xtashlarni kamaytirish. Asbob-uskunalarni ishdan chiqishi, ehtiyot qismlarning zaxirasi bo'lmagan taqdirda, ishlab chiqarish jarayonining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin. Bu ayniqsa uzluksiz ishlab chiqarish jarayoniga ega bo'lgan korxonalar uchun muhimdir, chunki ishlab chiqarishning to'xtab qolishi ular uchun qimmatga tushishi mumkin.

Ishlab chiqarishni boshqarish jarayonining soddalashuvi. Bunda korxona ichidagi ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida yarim tayyor mahsulotlar zaxiralarni yaratish tushuniladi. Ushbu zaxiralarning mavjudligi har xil uchastkalardagi ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro kelishuvchanligiga bo'lgan talablarni pasaytirish imkonini beradi.

Yuqorida qayd etilgan tamoyillarda ta'kidlanishicha ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalarida ham zaxiralarni yaratish maqsadga muvofiqdir, aks holda xarajatlari oshib ketadi. Shu bilan birga zaxiralarning optimal kattaligini topish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jarayonlarni logistik tarzda tashkil etilishi, zaxiralar darajasini oshirmasdan bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kamaytirishga, ehtiyot qismlarining yo'qligi sababli, ishlab chiqarishda yuzaga kelgan to'xtashlarni minimallashtirishga, va zaxiralarning qator boshqa funksiyalarini amalga oshirishga imkon beradi.

7.3. Zaxiralarning asosiy turlari

Ta'kidlab o'tilganidek, zaxira tushunchasi moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalariga tegishlidir. Chunki moddiy oqim xom-ashyo manbaidan so'nggi iste'molchigacha bo'lgan «zanjirni» istalgan bo'g'inida zaxira ko'rinishida to'planishi mumkin. Har bir bo'g'indagi zaxiralarni boshqarish esa o'z xususiyatlariga egadir.

Yuqorida tilga olingan «zanjir» bo'ylab harakatlanish chog'ida zaxiralarning 2ta asosiy

turi yaratiladi (7.1-rasm):

- ishlab chiqarish zaxiralari;
- tovar zaxiralari;

O'z navbatida ularning har biri ham uchta turga bo'linadi:

- joriy zaxiralar;
- ehtiyot zaxiralar;
- mavsumiy zaxiralar;

Ishlab chiqarish zaxiralari - bu ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan, moddiy ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari korxonalarida mavjud bo'lgan zaxiralardir. Bu zaxirani yaratishdan maqsad - ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta'minlashdir. Misol tariqasida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonasidagi ushbu mahsulotlar zaxirasini keltirish mumkin.

Tovar zaxiralari - bu ishlab chiqaruvchi korxonalardagi tayyor mahsulot zaxiralari, va shuningdek yetkazib beruvchidan iste'molchiga qadar bo'lgan yo'ldagi zaxiralardir (ulgurji va chakana savdo korxonalaridagi).

Tovar zaxiralari o'z navbatida ishlab chiqarish vositalarining tovar zaxiralari va iste'mol buyumlarining tovar zaxiralari bo'linadi. Masalan, traktor ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan qismlar (shina, motor va x.) zaxirasi bu ishlab chiqarish vositalari tovar zaxirasidir. Turli xil sharbatlar, yog', sut mahsulotlarining zaxirasi esa bu iste'mol buyumlarining tovar zaxiralari kiradi.

Aytib o'tilganidek ishlab chiqarish zaxiralari ham joriy, ehtiyot va mavsumiylarga bo'linadi.

Joriy zaxiralar - ishlab chiqarish va tovar zaxiralari asosiy qismini tashkil etadi. Zaxiralarning bu kategoriyasi, keyingi yetkazishlargacha bo'lgan davr ichida ishlab chiqarish yoki savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Joriy zaxiralar hajmi doimo o'zgarib turadi.

Ehtiyot zaxiralari - turli xil ko'zda tutilmagan hollarda ishlab chiqarish yoki savdo jarayonini uzluksizligini ta'minlash uchun mo'ljallangandir. Bunday hollarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yetkazishlar davriyligi va kattaligi shartnomadagidan farq qilishi;
- materiallar va tovarlarning turli sabablar bilan yo'lda to'xtab qolishi;
- talabni kutilmagan oshib ketishi;


Shunday qilib, ehtiyot zaxiralari yaxshi rivojlanmagan xo'jalik munosabatlari va noto'g'ri bashoratlardan o'zini asrash uchun yaratiladi.

Ehtiyot zaxiralari hajmi, odatda, o'zgarib bo'ladi.

Mavsumiy zaxiralar - ishlab chiqarish, iste'mol yoki tashish mavsumiy xususiyatga ega bo'lganda paydo bo'ladilar. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va tashish uchun ayniqsa muhimdir. Misol tariqasida yig'im-terim mavsumida yoqilg'i iste'molini keltirish mumkin. +ishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligini hisobga olgan holda unga tegishli deyarli barcha zaxiralar mavsumiy deb hisoblanishlari mumkin.

Bundan tashqari moddiy zaxiralarning quyidagi turlari mavjud:

- o'tuvchi;
- tayyorgarlikli;
- noliqvid;
- yo'ldagi zaxiralar va b.



7.1- Rasm. Moddiy zaxiralarning asosiy turlari

O'lovchi zaxiralarga hisob davrining oxiridagi moddiy vositalar resurslarining qoldiqlari kiradi. Zaxiralarning ushbu turi hisob davridan keyingi davrdagi yetkazishgacha bo'lgan vaqt ichida uzluksizlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Tayyorgarlikli zaxiralar - bu ishlab chiqarish jarayonida ishlatishdan oldin qo'shimcha tayyorgarlikni talab qiluvchi ishlab chiqarish zaxiralari bir qismidir.

Nolikvid zaxiralar - bu uzoq vaqt davomida ishlatilmaydigan ishlab chiqarish yoki tovar zaxiralari. Ular, saqlash jarayonida tovarlar sifatining yomonlashishi, ma'naviy eskirishi munosabati bilan paydo bo'ladi. Shuningdek bu zaxiralarga, endilikda ishlab chiqarilmaydigan mahsulot uchun mo'ljallangan zaxiralar ham kiradi.

Yo'ldagi zaxiralar - bu hisob vaqtida tashilayotgan, ya'ni yo'lda bo'lgan zaxiralardir. Zaxiralarni yo'ldagi vaqti deganda, transportga orilganidan to manzilgacha yetib kelishi uchun sarflangan vaqt tushuniladi. Bu ko'rsatkich shartnomada kelishilgan, hamda turli transportlar uchun mavjud me'yorlar bo'yicha belgilanadi.

7.4. Zaxira o'lchamini aniqlash

1. Buyurtma qilinadigan partiyaning optimal o'lchamini aniqlash.

Zaxiralarni to'ldirish tizimi tanlangandan so'ng, buyurtma kattaligini va takrorlanish vaqtini miqdoran aniqlash lozim bo'ladi.

Buyurtmaning optimal kattaligi va chastotasi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- talab hajmi;
- transport-tayyorlov xarajatlari;
- zaxirani saqlashga bo'lgan xarajatlar.

Buyurtma o'lchami oshganda transport-tayyorlov xarajatlari kamayadi, chunki tovarlarni sotib olish va tashish katta partiyalarda, va demak kamroq amalga oshiriladi. Bu bog'liqlikning grafigi 7.2-rasmda tasvirlangan.

7.2- Rasm. Transport-tayyorlov xarajatlarini buyurtma o'lchamiga bog'liqligi

Optimallik mezonini sifatida transport-tayyorlov va saqlashga bo'lgan xarajatlar summasining minimumi olinadi.

Ushbu ikkala xarajatlar ham buyurtma o'lchamiga bog'liq, ammo ularning bog'liqlik

darajalari turlicha.

Saqlashga bo'lgan xarajatlar esa buyurtma o'lchamiga to'g'ri proporsionaldir. Bu bog'liqlikning grafigi 7.3 rasmda keltirilgan.

Yuqoridagi ikkita grafikni qo'shib, transport-tayyorlov va saqlash xarajatlarini buyurtma o'lchamiga bog'liqligini aks ettiruvchi egri chiziqqa ega bo'lamiz. Ko'rib turganimizdek bu egri chiziq minimum nuqtasiga ega, aynan shu nuqtada xarajatlar yig'indisi minimumga teng bo'ladi. Ushbu nuqtaning absissasi esa buyurtmaning optimal o'lchami qiymatini aks ettiradi.

7.3- Rasm. Zaxiralarni saqlashga bo'lgan xarajatlarni buyurtma o'lchamiga bog'liqlig

7.4- Rasm. Transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari summasini buyurtma o'lchamiga bog'liqligi

S_{opt} - buyurtmaning optimal o'lchami.

Buyurtmaning optimal o'lchamini aniqlash masalasi analitik usul bilan ham yechilishi mumkin. Buning uchun transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari

ya'ni:

$$um. \quad saq. + S_{tr.} \quad \min \quad (7.1)$$

summasini aks ettiruvchi funksiyani minimumga intilishi shartlarini aniqlash lozim,

bu yerda:

$S_{um.}$ - tashish va saqlashga bo'lgan umumiy xarajatlar;

$S_{saq.}$ - zaxirani saqlashga bo'lgan xarajatlar;

$S_{tr.}$ - transport-tayyorlov xarajatlari;

Tasavvur qilaylik, aniq bir davr ichidagi aylanma kattaligi Q_{ni} tashkil etsin. Bitta buyuriladigan va yetkaziladigan partiyaning o'lchami S . Oldingi partiya tugab bo'lgandan so'nggina keyingisi olib kelinadi. Unda zaxiraning o'rtacha qiymati $S/2$ ga teng bo'ladi.

Zaxirani saqlash uchun (M) tarifni kiritamiz. M - T davr ichidagi saqlash xarajatlarini o'sha davrdagi o'rtacha zaxira qiymatidagi ulushi bilan o'lchanadi. Masalan, $Mq_{0,1}$ bo'lsa, demak zaxirani saqlash bo'yicha xarajatlar, uning o'rtacha qiymatini 10%ni tashkil etadi. Shuningdek, bir birlik tovarni saqlash xarajatlari ham, uning qiymatini 10%ni tashkil etadi.

Endi T davr ichida tovarlarni saqlashga bo'lgan xarajatlarni hisoblash mumkin:

$$C_{sak} = M - I \quad \text{cak} \quad 2 \quad (7.2)$$

T davr ichidagi transport-tayyorlov xarajatlarining o'lchami, buyurtmalar sonini, bitta buyurtmani olib kelish bilan bog'liq xarajatlarga ko'paytmasi bilan aniqlanadi.

(7.3)

bunda:

K -bitta buyurtmaga bo'lgan transport-tayyorlov xarajatlari;

Q/S - T davrdagi buyurtmalar miqdori;

Olingan ifodalarni joy-joyiga qo'yib chiqib, olib kelinadigan partiyaning optimal o'lchamini topamiz. ($S_{opt.}$)

$$Sum. = S_{saq.} \cdot um. + S_{tr.} \quad \min \quad 7Q$$

$$C = M \cdot \frac{Q}{S} - I \cdot K \cdot \frac{Q}{S} \quad \text{yaxshi} \quad r \quad ci$$

(7.4) $S_{um.}$, uning S bo'yicha birinchi hosilasi nolga teng, ikkinchisi esa noldan katta bo'lgan nuqtada, minimumga erishadi. Birinchi xosilani topamiz:

$$C = \left(\frac{M - K}{2} \right) \cdot \frac{Q}{S} \quad (7.5)$$

$$C = \frac{M - K}{2} \cdot \frac{Q}{S} \quad (7.6)$$

Maqsadli funksiya hosilasini nolga olib keluvchi S ning qiymatini topamiz:

$$M - K - Q = 0, \quad \frac{S^2}{S_{opt}} \quad (7.7)$$

bundan

$$/2 \cdot K \cdot Q \quad (7.8)$$

Tekshiruv, ikkinchi hosilani noldan katta ekanligini ko'rsatadi. Demak, topilgan S_{opt} yetkazish va saqlashga bo'lgan xarajatlar summasini minimumini ta'minlaydi.

Buyurtmaning optimal o'lchamini hisoblashga imkon beruvchi ushbu formula, zaxiralarni boshqarish nazariyasida *Uilson* formulasi deb nomlanadi. [Gadjinskiy]

Buyurtmaning optimal o'lchamini hisoblashga doir misolni ko'rib chiqamiz. Boshlang'ich ma'lumotlar sifatida quyidagi kattaliklarni olamiz.

Bir birlik tovar qiymati - 40 so'm (0,04 ming so'm)

Berilgan tovar pozitsiyasi bo'yicha omborning oylik aylanmasi (oboroti): $Q = 500$ birlik/oy, yoki $Q = 20$ ming so'm/oy

Tovarni saqlash xarajatlari, uning qiymatini 10% ga teng, ya'ni $M = 0,1$.

Bitta buyurtmani joylashtirish va yetkazish bilan bog'liq transport-tayyorlov xarajatlari: $K = 0,25$ ming so'm

$$S = \frac{2 \cdot 20 \cdot 0,25}{0,1} = 100 \text{ ming so'm}$$

Agarda aylanma (oborot) hajmini natural birliklarda ifodalaganda, hisob boshqacha shaklga ega bo'ladi:

Bunda yetkazilayotgan buyurtmaning optimal o'lchami:

$$S = \frac{2 \cdot Q \cdot K}{M \cdot P} \quad (7.9)$$

bu yerda:

Q - natural birliklarda ifodalangan aylanma hajmi (bizning misolimizda $Q = 500$ birlik)

$$R = 0,04 \text{ ming}$$

$$2 \cdot 500 \cdot 0,25 = 250$$

R - bir birlik tovarning qiymati (bizning misolimizda so'm)

1 $0,10 \cdot 0,04$ birlik

Ravshanki, tovarni bir oy ichida ikki marotaba yetkazish maqsadga muvofiq bo'ladi: 20 m.s. : 10 m.s. = 2 marta

Bu xolda transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari:

$$2 \cdot 10 \cdot \frac{C_{ymym}}{0,140 \cdot 0,25 \cdot 20} = 1$$

Olingan natijalarni e'tiborga olmaslik, xarajatlarni oshib ketishiga olib keladi. Masalan: 12 ming so'mga teng bo'lgan partiya olib kelinganda (ya'ni $S = 12$)

$$C_{ymym} = \frac{0,1 \cdot 12}{2} + \frac{0,25 \cdot 20}{12} = 1,02 \text{ ming so'm}$$

8 ming so'mga teng bo'lgan partiya olib kelinganda (ya'ni $S = 8$) esa:

$$C_{ymym} = \frac{0,1 \cdot 8}{2} + \frac{0,25 \cdot 20}{8} = 1,025 \text{ ming so'm}$$

Buyuriladigan partiya hajmini aniqlashdagi 20%lik xatolik, bizning misolimizda korxonaning tashish va saqlash bo'yicha oylik xarajatlarini 2% ga oshiradi. Buni depozit jamg'armasining stavkasi bilan tenglashtirish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, logistika

menedjerining ushbu xatosi, pullarni depozitda «ishlatmasdan», ushlab turgan moliyachi xatosi bilan baravardir.

2. Buyurtmaning optimal o'Ichami formulasining qo'llanilishi

Uilson formulasidagi K va M kattaliklarini hisoblash, transport-tayyorlov va saqlash xarajatlari smetalarini tuzish asosida amalga oshiriladi. Ushbu hisoblashlarning har biri bilan tanishib chiqamiz:

1. Bitta buyurtmaga bo'lgan transport-tayyorlov xarajatlari (K kattaligi), o'tgan davrdagi transport-tayyorlov xarajatlarini ushbu davrda qabul qilingan buyurtmalarga nisbati bilan aniqlanadi.

Transport-tayyorlov xarajatlarining smetasi, quyidagi xarajat turlarini o'z ichiga oladi:

K₁ - yetkazish shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ya'ni xizmat safarlariga, muzokaralar olib borishga va b. bo'lgan xarajatlar;

K₂ - yetkazish jarayonida yukni qo'riqlashga bo'lgan xarajatlar;

K₃ - sug'urta xarajatlari;

K₄ - tashish xarajatlari;

K₅ - buyurtmani joylashtirish va bajarish bilan bog'liq boshqa xarajatlar.

Umumiy transport-tayyorlov xarajatlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K = \frac{\sum_{i=1}^n E_{K_i}}{L} \quad (7.10)$$

bu yerda:

L - belgilangan davrda joylashtirilgan (qabul qilingan) va bajarilgan buyurtmalar miqdori.

2. T davr ichidagi saqlash xarajatlarini, ushbu davrdagi o'rtacha zaxira qiymatidagi ulushini (M kattaligi) hisoblash ham bir necha moddalarni o'z ichiga oladi:

m₁-zaxiralar qiymatini to'lash uchun zarur bo'lgan kredit bo'yicha foizlar.

U quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$m_1 = \frac{S}{P} \cdot \frac{1}{1 + \frac{a}{100}} \quad (7.11)$$

bu yerda:

S - buyurtmaning natural ko'rinishidagi hajmi;

R - bir birlik tovarni sotib olish bahosi, so'm;

a - kredit bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi;

m₂ - zaxiralarni saqlash bilan bog'liq xodimlarning ish xaqi;

m₃ - zaxiralarni saqlashda ishlatiladigan binolar va uskunalar amortizatsiyasi; m₄ - ma'muriy xarajatlar va kommunal xizmatlar;

m₅ - qo'riqlash, yo'qotishlar va zaxiralarni saqlash bilan bog'liq boshqa joriy xarajatlar;

M kattaligi, ya'ni T davrdagi zaxiralarni saqlash xarajatlarining ushbu davrdagi o'rtacha zaxira qiymatidagi ulushi, quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$M = \frac{\sum_{i=1}^n E_{m_i}}{V - P} \quad (7.12)$$

8. Qishloq xo'jaligida logistikada servis xizmati ko'rsatish

8.1. Logistik xizmat ko'rsatish tushunchasi

«Xaridor bozori» sharoitida, sotuvchi, xaridor talabidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirishiga to'g'ri keladi. Bunda talab tovarga bo'lgan talab bilan cheklanmaydi. Xaridor ushbu tovarni yetkazib berish jarayonida unga ko'rsatiladigan xizmatlar tarkibi va sifati bo'yicha ham o'z talablarini ilgari suradi.

Xizmat, atamasining asl ma'nosi, biror-bir kimsaga foyda keltiruvchi yoki yordam beruvchi hatti-harakatlarni anglatadi. Birovlar ehtiyojlarini qondirish, ya'ni ularga xizmat ko'rsatish esa servis deb ataladi.

Logistik faoliyat, moddiy oqim iste'molchisiga turli xildagi logistik xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini nazarda tutadi. Logistik servis taqsimot jarayoni bilan uzviy bog'langan bo'lib, tovarni yetkazish jarayonida ko'rsatiladigan xizmatlar majmuidan iboratdir.

Logistik servisning ob'ekti bo'lib moddiy oqimning turli iste'molchilari xizmat qiladi (-.1 rasm). Logistik servis yetkazib beruvchining o'zi tomonidan, yoki logistik servisga ixtisoslashgan ekspeditorlik firmasi tomonidan amalga oshiriladi.



8.1- Rasm. Iste'molchi tizimiga moddiy oqimni kelib chushish variantlari

Logistik xizmat ko'rsatish sohasidagi barcha ishlarni uchta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

- sotuvdan oldingi, ya'ni logistik servis tizimini shakllantirish bo'yicha ishlar;
- tovarlar sotish jarayonida amalga oshiriladigan, logistik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ishlar;
- sotuvdan keyingi logistik servis.

Realizatsiya jarayonidan oldingi logistik servis sohasidagi ishlar, asosan, xizmat ko'rsatish sohasidagi firma siyosatini belgilash, va xizmatlarni rejalashtirishni o'z ichiga oladi.

Tovarlarni realizatsiyasi jarayonida turli xil logistik xizmatlar ko'rsatilishi mumkin:

- omborda tovar zaxiralarining mavjudligi;
- buyurtmani bajarish, shu jumladan assortimentni tanlash, qadoqlash, yuk birliklarini shakllantirish va boshqa operatsiyalar;
- yetkazish ishonchligini ta'minlash;
- yuklar o'tishi to'g'risida axborot taqdim etish.

Sotuvdan keyingi xizmatlar - bu kafolat xizmati, xaridorlar e'tirozlarini ko'rib

chiqish bo'yicha majburiyatlar, almashinish va boshqalardir.

8.2. Xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish

Iste'molchi yetkazib beruvchi tanlaganda uning logistik servis sohasidagi imkoniyatlarini ham e'tiborga oladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda yetkazib beruvchining raqobatdoshligiga u taklif etayotgan xizmatlarning assortimenti va sifati ham ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi bir tomonidan, xizmatlar safini kengaytirish qo'shimcha xarajatlarga olib keladi.

Logistik servis tizimini shakllantirishga imkon beruvchi harakatlar ketma-ketligini ko'rib chiqamiz (8.2-Rasm).

Истеъмолчи бо зорининг сегментация си, яъни истеъмолчиларнинг муайян
гуру-уларига булиниши, бунда истеъмолчининг хусусиятларига мувафик^уларнинг
(гуру/уларнинг) ^ар бирига аниқ, бир хизматлар керак булиб қолиши мумкин.

Харидор учун энг адамиятли булган хизматлар руйиятини аниқдаш

-----	v
Туз и лг ан руйхатга кирувчи хизматлар ни туркумларга булиш, харидор учун энг адамиятли булган хизматларга эътиборни кдратиш	

О

Бозорнинг айрим сегментлари кеси мида хизматлар сгандартларини анигулаш

Кырсатилаётган хизматларни ба^алаш, сервис да ражаси ва курсат ил адиган хизматлар ^иймати орасида узаро ал о к, а урнатиш, ко мпаниянинг ра^обатдо шлигинитаъминлашучун зарур булган сервисдарахасинитаъминлаш

О

Хизматларни харидор э^тиёсларига мувофи^ булишини таъминлаш учун харидорлар билан тескари алоқани урнатиш.
--

8.2- Rasm. Firmada logistik servis tizimini shakllantirish bo'yicha harakatlar ketma-ketligi

Logistik xizmatlar raqobatdoshlikka o'z ta'sirini o'tkazar ekan, har bir xo'jalik, firma yoki korxona iste'molchilarga logistik xizmat ko'rsatish sohasida aniq belgilangan strategiyaga ega bo'lishi zarur.

Iste'molchi bozorining segmentatsiyasi, jo'g'rofik omil bo'yicha, servis jihatlari bo'yicha yoki boshqa bir omil bo'yicha amalga oshirilishi mumkin. Xaridorlar uchun ahamiyatli xizmatlarni tanlashni, ularning turkumlanishini, xizmatlar standartini aniqlashni, turli xil so'rovlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirish mumkin. Ko'rsatiladigan xizmatlarni baholash turli xil usullar bilan amalga oshiriladi. Masalan, yetkazishning ishonchlilik darajasini o'z vaqtida yetkazilgan partiyalar ulushi bilan

o'lash mumkin.

Kompaniya resurslari esa xaridor uchun eng ahamiyatli bo'lgan xizmatlarni ko'rsatishga yo'naltiriladi.

8.3. Xizmat ko'rsatish sifatining mezonlari

Logistik servis sifatini baholash uchun quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- yetkazish ishonchliligi;
- buyurtma qabul qilgandan to tovarlar partiyalarini yetkazishgacha bo'lgan to'liq vaqt;
- yetkazish egiluvchanligi;
- yetkazib beruvchi omborida zaxiralar mavjudligi;
- kredit olish imkoniyati, va qator boshqa mezonlar.

Bulardan birinchi uchtasini tavsiflab o'tamiz.

yetakazish ishonchliligi. Umumiy holda, ishonchlilik deganda, belgilangan cheklanishlarda o'z tavsiflarini saqlagan holda berilgan funksiyalarni bajarish qobiliyatini o'z ichiga olgan, tizimning majmuaviy xususiyati tushuniladi.

yetakazish ishonchliligi - bu yetkazib beruvchining belgilangan chegaralarda, shartnomada kelishilgan yetkazish muddatlariga rioya qilish qobiliyatidir. yetkazish ishonchliligi, yetkazish jarayoni tarkibiga kiruvchi ayrim turdagi ishlarni bajarish muddatlariga rioya qilishning ishonchliligi bilan aniqlanadi.

yetakazish ishonchliligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan bo'lib, shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlar (kafolatlar) mavjudligi xizmat qiladi, yetkazish muddatlarini buzganlik uchun javobgarlik aynan shu majburiyatlarda belgilanadi.

Buyurtma qabul qilgandan to tovarlar partiyalarini yetkazishgacha bo'lgan to'liq vaqt, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- buyurtmani rasmiylashtirish vaqti;
- ishlab chiqarish vaqti (agarda buyurilgan tovarlarni ishlab chiqarish lozim bo'lsa, bu vaqt yetkazish muddatiga qo'shiladi)
- qadoqlash vaqti;
- yuklash vaqti;
- yetkazish vaqti;

Shartnomada ko'rsatilgan yetkazish muddatlariga rioya qilish, yuqorida sanab o'tilgan ushbu muddatning tarkibiy qismlariga qanday rioya qilinishiga bog'liq. Masalan, tovarni ishlab chiqarishga rejalashtirilgan muddatlarga yoki ekspeditor ta'kidlagan yetkazish muddatlariga rioya qilinmasligi mumkin.

yetakazish egiluvchanligi - yetkazuvchi tizimni mijozning alohida istaklarini (qoidalarini) e'tiborga olishi qobiliyatini bildiradi. Bunga quyidagilarni kiritadilar:

- buyurtma shaklini o'zgartirish imkoniyati;
- buyurtmani yetkazib berish turini o'zgartirish imkoniyati;
- qadoq turini o'zgartirish imkoniyati;
- yetkazib berishga bo'lgan talabnomani qaytarib olish imkoniyati;
- mijozni uning buyurtmasi holati to'g'risida axborot olishi imkoniyati;
- butlanmagan yetkazishlarda bo'lgan e'tirozlarga munosabat.

9. Transport logistikasi


9.1 Transport logistikasining mohiyati va vazifalari

Transport - bu odamlar va yuklar tashishni amalga oshiruvchi, moddiy ishlab chiqarish tarmog'idir. Jamiyat ishlab chiqarishi tuzilmasida, transport moddiy xizmatlar ishlab chiqarish sohasiga mansubdir.(9.1 rasm)

Moddiy oqimning birlamchi xom-ashyo manbaidan oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakati davomidagi logistik operatsiyalarning anchagina qismi, turli xil

transport vositalari yordamida amalga oshiriladi. Bu operatsiyalarning xarajatlari, umumiy logistika xarajatlarining 50%gacha tashkil etishi mumkin.


Transport ishlab chiqarish va savdo jarayonlariga juda yaxshi kirib borgan. Shuning uchun ham transport, logistikaning ko'pgina masalalarida ishtirok etadi. Shu bilan birga logistikaning yetarlicha mustaqil bo'lgan transport sohasi ham mavjud. Unda transport jarayoni ishtirokchilari orasidagi kelishuvlar, ularga mos moddiy oqim harakatining ishlab chiqarish-ombor bo'limlariga aloqasi bo'lmagan tarzda ko'rib chiqilishi ham mumkin.



9.1-Rasm. Transportning jamiyat ishlab chiqarishidagi o'rni

Transport logistikasi vazifalariga, birinchi navbatda, o'z yechimi bilan, transport jarayonining bevosita ishtirokchilari harakatlarini o'zaro kelishilganligini kuchaytiruvchi, vazifalar kiradi. Bunday vazifalarni yechishning dolzarbligi, transport ishlari alohida bir sohaga aylanganida paydo bo'ladi.

Transport jarayonlarini tashkil etishga logistik yondashuv xususiyatlarini, aralash tashishdagi transport zanjiri bo'g'inlarining o'zaro ta'siri misolida tushuntirishimiz mumkin. (9.2 rasm)



9.2-Rasm. Bir necha transport turlari ishtirokida tashishning ana'naviy tashkil etilishi

9.2 rasmdan ko'rinib turibdiki butun moddiy oqimni boshqarishning yagona funksiyasi mavjud emas. Axborot va moliya mablag'larining harakati jarayonida

bo'g'inlarning o'zaro kelishuvi darajasi past, chunki ularning xarajatlarini hiech kim boshqarmaydi.

9.3 rasmda tasvirlangan aralash tashishni tashkil etish butunlay boshqacha xususiyatga ega.


Transportda logistikaning qo'llanilishi, ishlab chiqarish yoki savdodagi kabi raqobatchilarni transport jarayonida bir-birini o'zaro to'ldiruvchi hamkorlarga aylantiradi.

Logistika, aytib o'tilganiday, bu yagona texnika, texnologiya, iqtisod va rejalashtirishdir. Bunga muvofiq transport logistikasi vazifalariga transport jarayoni ishtirokchilarining texnik va texnologik ta'minotini, ularning iqtisodiy manfaatlari o'zaro mos kelishini, hamda rejalashtirishning yagona tizimlarini ishlatishni kiritish lozim. Bu vazifalarning har biriga qisqacha tavsif berib o'tamiz.

Butun yagona tashish jarayonining moddiy oqimini loyihalash va chiqib ketishda berilgan parametrlarga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Aralash tashishlarni tashkil etishga an'anaviy va logistik yondashuvlarning taqqoslama tavsifi 9.1-jadvalda keltirilgan.

Transport majmuidagi o'zaro bog'langan transport turlarining ayrimlari ichida va turlararo qismida parametrlarning kelishilmaganligini bildiradi.



9.3- Rasm. Bir necha transport turlari ishtirokida tashishning logistik tashkil etilishi

9.1-jadval

Aralash va intermodal tashishlarning taqqoslama tavsifi

Arlash tashish	Intermodal tashish.
Transportning 2 va undan ko'p turi.	Transportning 2 va undan ko'p turi.
Tashish jarayoni yagona operatorining yo'qligi.	Tashish jarayoni yagona operatorining mavjudligi.
Bir necha transport hujjatlari.	Yagona transport hujjati.
Yagona tarif stavkasining yo'qligi.	Yagona tarif stavkasining mavjudligi.(fraxt)
Ishtirokchilar o'zaro faoliyati-ning ketma ket sxemasi	Ishtirokchilar o'zaro faoliyati-ning ketma ket markaziy sxemasi.
Yuk majburiyati tarqalgan va buning natijasi past.	Yuk majburiyati yagona va buning natijasi yuqori.

Natija: «Logistikaning oltita qoidasi» bajarilishining ehtimoli pastligi.	Natija: «Logistikaning oltita qoidasi» bajarilishining ehtimoli yuqoriligi.
Kerakli yuk kerakli joyda, kerakli vaqtda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda, minimal xarajatlar bilan.	Kerakli yuk kerakli joyda, kerakli vaqtda, kerakli miqdorda, kerakli sifatda, minimal xarajatlar bilan.

Bu kelishilmaganlik modal tashishni qo'llashga, konteynerlar va yuk paketlari bilan ishlashga imkon yaratadi. Texnologik tashishning yagona texnologiyasini to'g'ridan-to'g'ri yuk ortish-tushurishlarni, yuk ortish - tushishrirlarsiz aloqalarni bildiradi. Iqtisodiy bog'liqlik - bu bozor kon'yukturasi tekshirishni va tarif tizimini barpo etishni umumiy metodologiyasidir. Birgalikdagi rejalashtirish - bu grafiklarning yagona rejalarini ishlab chiqish va qo'llashni bildiradi. Shu munosabat bilan transport logistikasi vazifalariga quyidagilar kiradi.

- transport tizimlarini yaratish;
- transport-ombor jarayonining texnologik yagonaligini ta'minlash;
- transport jarayonining ombor va ishlab chikarish jarayonlari bilan birgalikda rejalashtirish;
- transport vositasi turini tanlash;
- transport vositasi tipini tanlash;
- yetkazishlarning ratsional yo'nalishlarini aniqlash va boshqalar.

9.2. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish jarayonlarida transport vositalarining turlarini va sonini tanlash

Transport vositalarining turlari va sonini aniqlash vazifasi logistikaning boshqa masalalari bilan aloqadorlikda yechiladi. Muayyan bir tashish uchun optimal bo'lgan transport turini tanlash asos bo'lib bo'lib, transportning xar xil turlarining xususiyatlari to'g'risidagi axborot xizmat qiladi. Logistika nuqtai nazaridan transportning asosiy turlarini ustunlarini va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Avtomobil transporti. Kisqa masofalarga (200-300km) tashishlarni amalga oshirish uchun avtomobil transporti ishlatiladi. Asosiy usutunliklardan biri - yuqori harakatchanligidir. **Avtomobil** transporti yordamida yuk «eshikdan eshikgacha» zaruriy tashishning tezkorlik bilan yetkazishi mumkin. Transportning bu turi yetkazishlar muntazamligini hamda kichik hajmlardan yetkazishlar imkoniyatini ta'minlaydi. Bu yerda, boshqa turlarga nisbatan mahsulot qadoqiga u daraja qattiq talablar qo'yilmaydi.

Avtomobil transportining asosiy kamchiligi bu tashishlar tannarxining nisbatan yuqoriligi. Odatda tashish uchun to'lov avtomobilning maksimal yuk kutara olishi buyicha olinadi. Bu turning boshqa kamchiliklariga quydagilarni kiritish mumkin: yukni tushirishni shoshilinchligi, yukni va avtotransportni o'g'irlash mumkinligi, nisbatan kam yuk ko'tara olishi. Avtomobil transporti ekologiya jihatdan ham noqulay, bu esa uni ishlatish imkoniyatini kamaytiradi.

Temir yul transporti. Transportning bu turi yuklarning turli hajmlarini (partiyalarini) barcha ob-havo sharoitlarida tashish uchun qulaydir. Temir yul transporti yukni nisbatan tez vaqtda masofalarga yetkazish imkoniyatini ta'minlayli. Tashishlar muntazam amalga oshiriladi. Bu yerda ortish-tushirish ishlarining samarali bajarilishini tashkil etish mumkin.

Temir yo'l transportining muhim ustunligi, bu yuklarni tashishning nisbatan past narxi va chegirmalar mavjudligidir.

Temir yo'l transportining kamchiliklariga tashuvchilar sonining cheklanganligini va iste'mol joylariga yetkazish imkoniyati pastligidir, ya'ni temir yul o'tkazilmaganda avtomobil transportidan foydalanishga tug'ri keladi.

Dengiz transporti. Xalqaro tashishlarda eng yirik tashuvchi hisoblanadi. Uning asosiy ustunliklari-Yuk tariflarining pastligi va yuqori yuk o'tkazish qobiliyatidir.

Dengiz transportining kamchiliklariga uning past tezligini, yuklarni qadoqi va o'rnatilishiga bo'lgan qattiq talablar, jo'natishlarini kamligini kiritadilar. Dengiz transporti ob-

havo va navigatsiya sharoitlariga bog‘liq bo‘lib, murakab port infrostrukturasini yaratishni talab qiladi.

Ichki suv transporti. Bu yerda yuk tariflari past. 100 t. dan ortiq yukni 250 km dan uzoqroq masofaga tashishda transportning bu turi eng arzon .

Havo transporti. Asosiy ustunliklari - eng yuqori tezlik, uzoq hududlarga yetib borish imkoniyati, yuklarning yuqori darajada saqlanishi.

Kamchiliklariga yuqori yuk tariflari va iqlim sharoitlariga bog‘liqligi kiradi, bu esa yetkazish grafigiga rioya qilishni kamaytiradi.

Quvur transporti. Yuqori o‘tkazish qobiliyatida kam tannarxni ta'minlaydi. Transportning ushbu turiga yuklarni saqlash darajasi ham yuqori. Quvur transportning kamchiligi bu tashishga mo‘ljallangan yuklarning tor nomenklaturasi. Transport turining tanlashga ta'sir etuvchi oltita asosiy omillarni ajratadilar. 9.2 jadvalda ushbu omillarning har biri bo‘yicha transportning har xil turlarining bahosi berilgan. «1» ga eng yaxshi qiymat mos keladi.

Har xil omillarning muhimligining ekspert bahosi, transport turini tanlashda quyidagilarga amal qilishni muhimligini ko‘rsatadi:

- yetkazish grafigiga rioya qilish ishonchliligi.
- yetkazish vaqti.
- tashish narxi.

9.2 jadval

Transport turini tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar kesimida har xil transport turlarining bahosi

Transport turi	Transport turini tanlashga ta'ir etuvchi omillar					
	yetkazish vaqti	Jo‘natishlar chastotasi	Yuk yetkazish grafigiga rioya qilishning ishonchliligi	Turli yuklarni tashish qobiliyati	Yukni xududning istalgan nuqtasiga yetkaza olish qobiliyati	Tashish qiymati
Temir yo‘l	3	4	3	2	2	3
Suv	4	5	4	1	4	1
Avtomobil	2	2	2	3	1	4
Quvur	5	1	1	5	5	2
Havo	1	3	5	4	3	5

Ta'kidlab o‘tish kerkakki 9.2 jadval ma'lumotlari faqatgina u yoki bu transport turini muayyan tashish sharoitlariga muvofiqligi darajasini tahliliy bahosi uchun ishlatilishi mumkin. Tanlovning to‘g‘riligi har xil transport turlari bilan tashishga bog‘liq xarajatlari tahlili asosidagi texnik -iqtisodiy hisoblar bilan tasdiqlanishi lozim.

9.3. Transport tariflari va ularni qo‘llash qoidalari

Transport korxonalari ko‘rsatgan xizmatlar hisobi tariflar yordamida amalga oshiriladi. Tariflar ichiga quyidagilar kiradi:

- Yukni tashish uchun olinadigan to‘lovlar.
- Yukni tashish bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha operatsiyalar uchun yig‘ilmalar.
- To‘lov va yig‘ilmalar hisoblanish qoidalari.

Iqtisodiy kategoriya sifatida transport tariflari bu transport mahsulotiga bo‘lgan narx shaklidir. Ularning tuzilishi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- Transport korxonasiga ekspluatatsiya xarajatlarini va foyda olish imkoniyatlarini:
- Transport xizmatlarini xaridorga transport xarajatlarini qoplashini va foyda olish imkoniyatini.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, tashuvchi tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillaridan biri bu

tashish narxidir. Raqobat sharoitida yuzaga keluvchi mijoz uchun kurash transport tariflariga ham o'zgartirish kiritadi.

Har xil yig'imlar tarif stavkalarini mohirona boshqarilishi, yuk tashish bilan qo'shimcha xizmatlarga (yuklarni ko'riqlash, kuzatish,) talabni oshirishi mumkin.

Transportning har xil turlaridagi tariflar tizimlari o'z xususiyatlariga ega. Ularning qisqacha tavsifiga to'xtalib o'tamiz.

Temir yo'l transportiga yuklarning tashishni tashishining qiymatini belgilash uchun umumiy, maxsus, imtiyozli, mahalliy tariflar qo'llaniladi.

Umumiy tariflar - bu tariflarning asosiy turidir. Ularning yordamida yuklarining asosiy massasini tashish qiymati aniqlanadi.

Maxsus tariflar deb-Maxsus ustamalar yoki chegirmalar bilan umumiy tariflarni farqlanuvchi tariflarga aytiladi. Bu tariflar oshirilgan yoki kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Ular odatda faqat muayyan yuklarga nisbatan qo'llaniladi. Maxsus tariflar tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning joylashuviga ta'sir etishiga imkon beradilar, Chunki ular yordamida qiymatlarni tartibga solish mumkin.

Imtiyozli tariflar muayyan maqsadlar uchun yuklarni tashishda o'zlariga mo'ljallangan yuklarni tashishda qo'llaniladi.

Mahalliy tariflarni ayrim temir yo'llarning boshliqlari o'rnatadi. Bu tariflar ushbu temir yo'l chegralarida amal qiluvchi yuklarni tashish uchun to'lovlar o'lchamini va turli yig'imlar stavkalarini o'z ichiga oladi. Tashish to'lovlaridan tashqari, temir yo'l yuk oluvchi va jo'natuvchilaridan yuklarning tashish bilan bog'liq qo'shimcha xizmatlar uchun ham xaq oladi. Bu to'lovlar yig'imlar deb aytiladi, va temiryo'l tomonidan quyidagi operatsiyalarni bajargani uchun olinadi:saqlash, yuk og'irligini tekshirish, vagonlarni olib kelish va olib tashlash, ortish tushirish ishlari va boshqalar.

Temir yulda yuklarni tashish to'lovlariga ta'sir etuvchi asosiy omilarni sanab o'tamiz.

Jo'natish turi. Temiryo'l bo'ylab yuk vagonli, konteynerli kichik tonnali - 25 t gacha og'irligi va hajmi yarim vagongacha, va mayda tonnajli og'irligi 10 t gacha va xajmi 1/3 vagon hajmigacha, jo'natishlar bilan jo'natilgan bo'lishi mumkin.

Tashish tezligi. Temiryo'l bo'ylab yuk: Yuk , katta yoki yo'lovchi tezligida tashilishi mumkin. Tezlik turi yuk sutkasiga necha km bosib o'tishi lozimlini belgilaydi.

Tashish masofasi. Tashish to'lovi yuk va katta tezlikda tashilganda tarif masofasi uchun, katta hajmga ega bo'lmagan yuklarni tashishda, yoki yuklarni yo'lovchi tezligida tashishda xaqiqatdan bosib o'tilgan masofa uchun olinadi.

Vagon yoki konteynerlarning mansubligi. Vagon, platforma yoki konteynerni, temir yo'lni , yuk oluvchini yoki yuk jo'natuvchini mulki bo'lishi mumkin.

Tashiladigan yuk miqdori-tashish qiymatiga muxim ta'sir etuvchi omil. Avtomobil transportida yuk tashishlar qiymatini aniqlash uchun tariflarni quyidagi turlarini qo'llaydilar:

-yuk tashishga bo'lgan kelishilgan tariflar.

-yuk tashishga bo'lgan to'lanadigan avtotonna - soat shartlaridagi tariflar.

-yuk avtomobillarini ishlatishi vaqti bo'yicha tariflar.

-km hisobi bo'yicha tariflar.

-harakat vositasining tarkibning boshqa joyga jo'natish uchun tariflar.

-shartnomaviy tariflar.

Tarif to'lovi o'lchamiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi.

-tashish masofasi.

-avtomobil yuk ko'tarishini ishlatish imkoniyatini tavsiflovchi yukningt xajmi va og'irligi.

-avtomobil yuk ko'tara olishi.

-umumiy bosib o'tilgan yo'l.

-avtotmobilni ishlatish vaqti.

-avtomobil turi.

-tashish amalga oshiriladigan hudud va bir qator boshqa omillar.

Avtomobil transportidan yuklarni tashishga bo'lgan tariflarning har biri barcha omillar yig'indisini emas balki muayyan tashish uchun ahamiyatli bo'lganlarinigina hisobga oladi.

Masalan: Kelishilgan tarif bo'yicha yuklarni tashish qiymatini hisoblash uchun tashish masofasini, yuk massasini va avtotomobil yuk ko'tar olishi darajasini tavsiflovchi, yuk sinfini e'tiborga olish lozim. Yuk avtomobilalrini ishlatish vaqti tarifi bo'yicha hisoblarni olib borishda avtomobil yuk ko'tara olishini, avtomobildan foydalanishi vaqtini va umumiy bosib o'tgan yo'lini hisobga olish kerak. Barcha hollarda avtomobillardan foydalanish uchun bo'lgan to'lov kattaligiga, tashish amalga oshirayotgan hudud ham ta'sir ko'rsatadi. Bu hududlar bo'yicha yuk tashishlar tannarxi darajasidagi barqaror farqlanishlar bilan tushuntiriladi. Hududiy koeffitsientlar yordamida tarif qiymatiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Daryo transportida yuk tashish tariflari va qo'shimcha xizmatlar uchun yig'imlar bozor konyukturasini hisobga olgan xolda mustaqil ravishda belgilanadi.

Dengiz transportida yuklarni tashish uchun to'lovlar tarif bo'yicha, yoki FRAXT stavkasi bo'yicha amalga oshiriladi. Agarda yuk muntazam amalga oshirilayotgan yuk oqimi bo'yicha harakatlansa, unda tashish chiqimi kemalar yurishi tizimi bilan amalga oshiriladi. Bunda yuk jaddval bo'yicha va e'lon qilingan tarif bo'yicha hisoblanadi.

Yuk muntazam yuk oqimi bo'yicha harakatlanmagan hollarda tashish FRAXT stavkasi bo'yicha to'lanadi. FRAXT stavkasi bozorning kon'yukturasidan kelib chiqib belgilanadi va uning tarnsport tavsiflariga yo'nalish sharoitlariga va xarajatlariga bog'liq.

Har kanday uskuna yoki jixozlarning unumdorligi deyilganda ularning vaqt birligida ishlab chiqargan mahsuloti tushiniladi. Avtomobillar yuk ma'lum masofaga tashib berishni hisobga olib, ularning unumdorligi vaqt birligida tashilgan yuk miqdori va tonna kilometrlarda o'lchanuvchi transport ishidan iboratdir.

Masalan, avtomobilning yuk Bilan bir qatnovidagi yuk miqdorida o'lchanuvchi unumdorligi:

$$Q = q_{H \cdot CT}, t \quad (9.1)$$

bo'lsa, tonna-kilometrda bajargan transport ishi:

$$P_{IOK} = Q_{KJK} \cdot L_{KJK}, \text{ tkm} \quad (9.2)$$

iborat bo'ladi.

Aytilganlarga ko'ra, bir ish kuni davomida avtomobilning unumdorligi:

$$Q_k = \ddot{u}_{IOK} \cdot Z_{KJK} = q_H \cdot \gamma_{CT} \cdot z_{KJK}, \text{ t} \quad (9.3)$$

$$P_K = P_{IOK} \cdot Z_{IOK} = q_H \cdot \gamma_g \cdot \wedge_{IOK} \cdot L_{KIK} \text{ t km} \quad (9.4)$$

bo'ladi.

Bundagi Z_{yuk} - bir ish kuni davomida yukli katnovlar soni.

O'z navbatida nolinch katnovga ham sarflangan vaqtni hisobga olingan bir ish kuni

$$Z_{IOK} = \frac{T_{III}}{T_{IOK}} \quad (9.5)$$

davomida yukli qatnovlar soni.

bo'ladi.

Bunda T_{ish} - avtomobilning ishda bo'li shvaqti, soat:

t_{ayl} - bir to'liq qatnov uchun zarur vaqt, soat.

Bir to'liq qatnov uchun zarur vaqt, avtomobilning yuk ortish punktidan uni tushirish punktigacha yukli qatnovi, yuk tushirish punktidan navbatdagi yuk ortish punktigacha bo'sh qatnov vaqti hamda ortish-tushirish vaqti yiqindisidan iborat bo'ladi:

$$t = t_{ayl} + t_{to-t} + t_{ort-tush} \quad (9.6)$$

bunda t^k - avtomobilning yukli qatnovi xarakat vaqti; t^k - bo'sh qatnovi xarakat vaqti;

t_{to-t} - transport vositasini yuk ortish-tushirish vaqti.

Xarakat vaqtini aniqlashlik uchun yukli va bo'sh qatnovlar masofasini, xarakat tezligiga bo'lishlik lozim:

$$t = \frac{L}{V} = \frac{L_{IOK} + L_{bo'sh}}{V_T} = \frac{L_{IOK}}{V_{SOat}} \quad (9.7)$$

Bunda t_{yuk} - avtomobilning yukli qatnovi masofasi; $L_{bo'sh}$ - avtomobilning bo'sh qatnovi masofasi.

Amalda bo'sh qatnovlar avtomobilning orqasiga yoki navbatdagi ortishgacha bo'ladi;

V_t - avtomobilning texnik xarakat tezligi.

Amalda bo'sh qatnov masofasining aniq miqdoriga ko'ra, uning yukli qatnoviga nisbatan tutuvchi o'rni aniqlanishini hisobga olinib, qatnov masofalaridan unumli foydalanish, ya'ni yukli qatnov koeffitsienti ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bu koeffitsient umum qatnovdan qay darajada unumli foydalanganini xarakterlab, uning miqdorini qatnovlar davomidagi yukli qatnovlar umumiy miqdorini, barcha masofalariga nisbati qilib aniqlaniladi va uni texnika adabiyotlarida β (beta) harfi bilan belgilanadi.

Agar avtomobilning yukli qatnovlar masofasi va yo'l qatnovidan foydalanish koeffitsienti ma'lum bo'lsa, avtomobilning xarakat vaqtini yukli qatnovlar miqdorini, uning texnik xarakat tezligi (km/soat) va marshrutdagi yo'ldan foydalanish koeffitsienti ko'paytmasiga nisbati qilib aniqlanadi:

$$t_k = \frac{l_{IOK}}{v_T} \quad (9.8)$$

bir aylanish vaqti esa:

$$t_{ayl} = t_k + \frac{l_{IOK}}{v_T} + \frac{\epsilon_M \cdot v_T \cdot t_{o-T}}{\epsilon_M \cdot v_T} \quad (9.9)$$

bo'ladi.

Aylanish vaqt iva avtomobilning marshrutda bo'li shvaqti (T_m) ma'lum bo'lsa, ish kuni davomidagi qatnovlar miqdorini quyidagi formula bilan hisoblab topish

$$Z_{IOK} = \frac{T}{t_{ayl}} = \frac{T}{\frac{l_{IOK}}{v_T} + \frac{\epsilon_M \cdot v_T \cdot t_{o-T}}{\epsilon_M \cdot v_T}} \quad (9.10)$$

No'linchi qatnovni ham hisobga olinganda

$$Z_{IOK} = \frac{T}{\frac{l_{IOK}}{v_T} + \frac{\epsilon_M \cdot v_T \cdot t_{o-T}}{\epsilon_M \cdot v_T}} \quad (9.11)$$

mumkin:

bo'ladi.

Bundagi - kun davomidagi, no'linchi qatnovi ham hisobga oluvchi yo'ldan foydalanish koeffitsientidir.

Demak, kun davomidagi yukli qatnovlar sonini oshirish uchun yoki avtomobilning ish kuni (i shvaqti, yoki kasr suratini) uzaytirishlik, yoki bir aylanish vaqti (kasrning mahraji)ni kamaytirish, yoki bir mahalning o'zida kasr suratini oshirish va mahrajini kamaytirish zarur.

Tashish masofasi beridgan holda bir aylanish vaqtini kamaytirish uchun avtomobilning texnik xarakat tezligini oshirish va avtomobilning ortish va tushirish operatsiyalarida bekor turi shvaqtini kamaytirishlik lozim bo'ladi.

Transport vositasining kunlik ish unumdorligi, bu bir qatnovda tashilgan yuk hajmi (t) va bajarilgan transport ishi (yuk oboroti) (tkm). Ular quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_K = \frac{l_{IOK} + \epsilon_X \cdot v_T \cdot t_{o-T}}{t} \quad (9.12)$$

$$P = \frac{\sum_{H} q_H \cdot \gamma_{CT} \cdot \epsilon_X \cdot v_T \cdot l_{IOK}}{l_{IOK} + \epsilon_X \cdot v_T \cdot t_{o-T}}, tkm \quad (9.13)$$

bunda,

q_n - nominal yuk ko'taruvchanligi;

T_{ish} - ish vaqti;

v_t - o'rtacha texnik tezlik;

B - bosib o'tilgan yo'ldan foydalanish koeffitsienti;

Y_{st} - yuk ko'taruvchanlikdan statik foydalanish koeffitsienti;

t_{o-t} - yuk ortish-tushirishda bo'sh turish vaqti.

9.4. yetkazib berishning asosiy bazalariga jahon narxlari. Inkoterm-2000

Inkotermning maqsadi tashqi savdo sohasida keng qo'llanilayotgan savdo atamalarini izohlash bo'yicha xalqaro qoidalar to'plami bilan ta'minlashdan iborat. Shunday qilib, turli mamlakatlarda bunday atamalardan saqlanish yoki hyech bo'lmaganda turli talqinlar noaniqligini ma'lum darajada qisqartirish mumkin.

Inkotermning ta'sir qilish sohasi oldi-sotdi shartnomasi tomonlarining sotilgan

tovarlarni yetkazib berishga nisbatan (bu yerda “tovar” deganda “moddiy tovarlar” tushuniladi, bundan kompyuter dasturiy ta'minot kabi “nomoddiy tovarlar” mustasno) huquq va majburiyatlari bilan bog‘liq masalalar bilan cheklanadi.

Amaliyotda Inkoternsni noto‘g‘ri tushunishning ikkita varianti ko‘p uchraydi. Birinchisi - bu Inkoternsni oldi-sotdi shartnomasiga emas, balki tashish shartnomasiga ko‘proq munosabatga ega sifatida noto‘g‘ri tushunish. Ikkinchisi - bu ba'zida ular tomonlar shartnomaga kiritishni istagan barcha majburiyatlarni qamrab olishi kerak, degan tasavvurning noto‘g‘riligi hisoblanadi.

Xalqaro savdo palatasi tomonidan har doim ta'kidlab kelinganidek, Inkoterns oldi-sotdi shartnomalari doirasidagi faqat ma'lum jihatlarida sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan aloqa qiladi.

Eksportchilar va importchilar nafaqat oldi-sotdi, balki tashishlar, sug‘urta va moliyalash shartnomalari muhim bo‘lgan xalqaro sotish bitimlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan turli shartnomalar o‘rtasidagi haqiqiy munosabatlarni hisobga olishi kerak. Bunda Inkoterns ushbu shartnomalarning biriga, ya'ni aynan oldi-sotdi shartnomasiga taaluqlidir.

Inkoterns shartnomani buzish oqibatlarini va turli to‘siqlar natijasida javobgarlikdan ozod etish bilan shug‘ullanmaydi. Ushbu masalalar oldi-sotdi shartnomasining boshqa shartlari va tegishli qonunlar tomonidan hal etilishi kerak.

Inkoterns boshidan tovarlar milliy chegaralar orqali yetkazib berilishi uchun sotilayotgan holatlarda foydalanish uchun mo‘ljallangan: shunday qilib - bu xalqaro savdo atamalaridir. Biroq Inkoterns amaliyotda ko‘pincha tovarlarni faqat ichki bozorlar doirasida sotish uchun shartnomalarga kiritiladi.

“ye” atamasi sotuvchiga eng kam majburiyatlar yuklaydi: sotuvchi tovarni faqat xaridor ixtiyoriga kelishilgan joyda - odatda sotuvchining shaxsiy binosida taqdim etishi lozim. Ikkinchi tomondan, amaliyotda ko‘p uchraydigan narsa - bu sotuvchi ko‘pincha xaridorga tovarni xaridorning transport vositasiga yuklashga yordam beradi. Agarda sotuvchi majburiyatlari kengaytirilib, yuklashni ham o‘z ichiga olganda, sotuvchining EXW atamasi shartlariga muvofiq eng kam majburiyatlarining an'anaviy tamoyillarini ulardan sotuvchi tovarni yuklashga nisbatan hych qanday majburiyatlarni qabul qilmagan holatlar uchun foydalanish maqsadida saqlash qarorini qabul qilinganida edi EXW atamasi buni yaxshiroq aks ettirgan bulur edi. Mabodo xaridor sotuvchi ushbu vazifani ham bajarishini istasa, bu oldi-sotdi shartnomasida ko‘rsatilishi kerak.

“F” atamasi sotuvchi tovarni xaridor ko‘rsatmalariga muvofiq tashishini ko‘zda tutadi. Tomonlar FCA atamasiga ko‘ra yetkazib berishni amalga oshirishni ko‘zda tutadigan punkt majburiyatlarning turli xilligi tufayli ushbu atama bilan tuzilgan shartnomada uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Masalan, tovar xaridor tomonidan tovarni sotuvchi binosidan olib ketish uchun yuborilgan transport vositasiga ortilishi mumkin; ikkinchi holatda tovar xaridor tomonidan tovarni terminal, ya'ni xaridorga yetkazib berish uchun yuborilgan transport vositasidan tushirishni talab qilishi mumkin. Inkoterns 2000 shartnomada ko‘rsatilgan yetkazib berish joyi sifatida sotuvchi binosi hisoblanib, yetkazib berish yakunlangan, tovar xaridorning transport vositasiga yuklangan holatlar shartlashgan bo‘lsa, boshqa holatlarda yetkazib berish yakunlangan va tovar xaridor ixtiyoriga sotuvchi transport vositasidan tushirilmasdan yetkazib berilgan bo‘lsa ushbu variantlarni hisobga oladi. Transportning turli turlari uchun qayd etilgan variantlari FCA atamasida keltirilgan.

9.3- jadval

INKOTeRMS-2000 (Savdo atamalari tasnifi)

ye guruhi	EXW	Franko zavod (.....kema nomi)
F guruhi	FCA	Franko tashuvchi (.....tayinlangan joy nomi)

Asosiy to'lanmagan tashish	FAS	Kema borti bo'ylab franko (.....yuklash porti nomi)
	FOB	Franko bort (... yuklash porti nomi)
S guruhi Asosiy tashish to'langan	CFR	Narx va yuk (.....tayinlangan port nomi)
	CIF	Narx, sug'urta va yuk (..... tayinlangan port nomi)
	CPT	Yukni tashish gacha to'langan (.....tayinlangan joy nomi)
	CIP	Yukni tashish va sug'urta gacha to'langan (.....tayinlangan joy nomi)
V guruhi yetib kelishi	DAF	Chegaragacha yetkazib berish (..... yetkazib berish joyi nomi)
	DES	Kemadan yetkazib berish (..... tayinlangan port nomi)
	DEQ	Pirstandan yetkazib berish (.....tayinlangan port nomi)
	DDU	Boj to'lamadan yetkazib berish (.....tayinlangan joy nomi)
	DDP	

CFR va CIF atamaları bo'yicha yetkazib berish punktlariga mos keladigan yetkazib berish punkti FOB atamasiga muvofiq ma'lum tortishuvlarga qaramasdan Inkoterms 2000da o'zgarishlarsiz qoldi. Garchi FOB atamasi bo'yicha "tovarni kema bandiga yetkazib berish" tushunchasi hozir ko'pchilik holatlarda to'g'ri kelmasligi mumkin. Biroq shunga qaramay savdogarlar tomonidan ushbu atama tushuniladi va tovarlar hamda yuklash qurilmalari hisobga olingan holda qo'llanilmoqda. yetkazib berish punktini FOB atamasiga ko'ra o'zgartirish ayniqsa dengiz yo'li bilan odatda charter-to'plarda keltiriladigan tovarlarni sotishga nisbatan keraksiz chalkashliklarni yuzaga keltiryapti.

Afsuski, FOB so'zi ayrim savdogarlar tomonidan faqatgina har qanday yetkazib berish punktini - masalan "FOB fabrika", " FOB zavod", " FOB sotuvchi zavodidan" punktlarini belgilash uchun foydalanilmoqda. Bunda "Franko bort" qisqartma so'z tushunchasiga e'tibor berilmayapti. "FOB"dan bu kabi foydalanish chalkashlikni yuzaga keltirish moyilligiga ega bo'lgan vaziyatlar saqlanib qolmoqda va bundan saqlanish kerak.

"S" atamasi sotuvchiga tashishlarni o'z hisobidan oddiy sharoitlarda tashish shartnomasini tuzishni yuklaydi. Shu bois u transport sarf-harajatlarini to'lashi lozim bo'lgan punkt tegishli "S" atamasidan so'ng ko'rsatilishi shart. CFR va CIF atamalariga muvofiq sotuvchi tovarni sug'urtalashi va sug'urta harajatlarini ko'tarishi kerak. Chunki harajatlarni taqsimlash nuqtasi tovar yetkazib berilishi mumkin bo'lgan mamlakatda ro'yxatga olinadi. "S" atamasi ko'pincha yetib kelish shartnomalari bilan noto'g'ri hisob-kitob qiladi. Bunda sotuvchi tovar kelishilgan punktgacha yetib kelmasa barcha tavakkalchilik va harajatlarni ko'taradi. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, "S" atamasi sotuvchi tovar yuklanadigan yoki jo'natiladigan mamlakatda shartnomani bajarishi nuqtai nazaridan "F" atamasi ega bo'lgan xususiyatga ega bo'ladi. Shunday qilib, "S" atamasiga muvofiq oldi-sotdi shartnomalari "F" atamasi bo'yicha shartnomalar kabi yuklash shartnomasi toifasiga kiradi.

Yuklash shartnomalari xususiyatida tovarlarni odatiy yo'nalishlar bo'yicha oddiy usulda kelishilgan joygacha tashishning odatdagi transport sarf-harajatlari sotuvchi tomonidan to'lanishi kerak. Bunda xaridor tovarni yo'qotishi yoki aynishi bo'yicha

tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi, shuningdek, tovar tegishli ravishda tashish uchun yetkazib berilganidan so'ng ham ahamiyatga ega voqyealar natijasida paydo bo'ladigan qo'shimcha sarf-harajatlarni ko'taradi. Shunday qilib, "S" atamasi boshqa atamalardan o'z ichiga ikkita "keskin" nuqtani olishi bilan ajralib turadi. Ulardan biri sotuvchi ungacha transport tashkil qilishi va tashish shartnomasiga ko'ra sarf-xarajatlarni ko'tarishi kerak bo'lgan nuqta, ikkinchisi esa tavakkalchiliklardan o'tish uchun xizmat qiladi. Shu sababli sotuvchiga majburiyatlarni qo'shishda imkon qadar ehtiyotkorlikka rioya qilinishi kerak. Ushbu majburiyatlar sotuvchi tavakkalchilikning yuqorida qayd etilgan nuqtadan tashqariga chiqqanda yuklatiladi. Sotuvchi tashish shartnomasini tuzib, tovarni tashuvchiga topshirib, CFR va CIF atamalariga muvofiq sug'urtalashni ta'minlab oldi-sotdi shartnomalarini tegishli ravishda bajarganidan so'ng uni har qanday keyingi tavakkalchilik va sarf- harajatlardan xalos etish "S" atamasining mohiyati hisoblanadi.

"S" atamasining mohiyati yuklash shartnomalari singari hujjatli kreditlardan bunday holatlarda ishlatiladigan asosiy to'lov uslubi sifatida keng foydalanish orqali izohlanishi ham mumkin. Oldi-sotdi tomonlari sotuvchi hujjatli kredit bo'yicha kelishilgan yuklash hujjatlarini taqdim etganidan so'ng haq olishini kelib oladi. Bunda hujjatli kreditning asosiy maqsadlari sotuvchi hujjatli kreditlar bo'yicha yoki tovarni yuklab, jo'natganidan so'ng haq olganidan keyin ham tavakkalchilik va harajatlarni o'z zimmasiga olishini to'liq inkor etadi. Albatta, sotuvchi tashish shartnomasi bo'yicha yuk haqi oldindan to'langan, u yuklanganidan so'ngmi yoki tayinlangan joyda to'lanishidani qat'iy nazar (yuk haqi yuk oluvchi tomonidan belgilangan portda to'lanishi kerak) barcha sarf-harajatlarni to'lashiga to'g'ri keladi. Biroq yuk ortilib jo'natilganidan so'ng ahamiyatga ega voqyealar natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha harajatlar xaridor tomonidan to'lanadi.

Agarda sotuvchi o'z ichiga boj, soliq va boshqa to'lovlarni oladigan tashish shartnomasini ta'minlashi shart bo'lsa, bunday harajatlar albatta shartnomaga ko'ra sotuvchiga yuklanadi.

Agarda odatda tovarni oraliq punktlarda tayinlangan joyga yetish uchun qayta yuklash bilan bog'liq bir qancha tashish shartnomalari tuzilsa, sotuvchi ushbu barcha sarf-harajatlarni, shuningdek, tovarni bitta transportdan boshqasiga qayta yuklash natijasida yuzaga keladigan harajatlarni ham to'lashi kerak. Biroq agarda tashuvchi o'z huquqlaridan kutilmagan to'siqlardan (masalan, muz, ish tashlash, mehnat buzilishlari, hukumat qarorlari, urush yoki harbiy harakatlar) saqlanish uchun tashish shartnomasiga muvofiq foydalansa, bundan kelib chiqadigan barcha qo'shimcha sarf- harajatlar xaridor hisobiga yoziladi. Chunki sotuvchi majburiyatlari oddiy tashish shartnomasini ta'minlash cheklanadi.

Ko'pincha oldi-sotdi shartnomasini tuzgan tomonlar sotuvchi qay darajagacha tashish shartnomasini, qayta yuklash sarf-harajatlarni ta'minlashi kerakligini aniq aniqlashni istaydi. Negaki, bunday sarf-harajatlar odatda tovar doimiy kema liniyalari bo'yicha tashilsa, oldi-sotdi shartnomasi ko'pincha tovar shu tarzda yoki "yuklarni reys kemalarida tashish shartlari" ga muvofiq tashilishini ko'zda tutsa, yuk hisobidan to'lanadi. Boshqa holatlarda esa CFR va CIF atamalaridan so'ng "qayta yuklashni qo'shib" so'zi qo'shiladi. Shunga qaramay, qisqartma so'zni "S" atamasidan so'ng u tegishli savdo sohasida aniq tushinilmasa va kelishayotgan tomonlar yoki tegishli qonunda yoxud savdo odatlarida qabul qilinmasa qo'shishi tavsiya etilmaydi.

Chunonchi, sotuvchi "S" atamasi xususiyatini o'zgartmasdan o'z zimmasiga tovarning mo'ljallangan joyga yetib kelishi bo'yicha hyech qanday majburiyatni olmasligi kerak. Chunki tashish paytida kechikishni xaridor o'z zimmasiga oladi. Shunday qilib, har qanday majburiyat yuklash yoki jo'natish joyiga tegishlidir.

Tovar bilan savdo qilishda tovarni dengizdagiligida sotib olish hollari uchrab turadi. Bunday hollarda savdo shartidan so'ng " suzishda" so'zi qo'shiladi. Negaki,

bunday holatlarda CFR va CIF atamalariga ko'ra tovarni yo'qotish yoki buzilish xavfi sotuvchidan xaridorga o'tgan bo'ladi, izohlashda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bu borada imkoniyatlardan biri CFR va CIF atamaları odatiy ma'nosini xavfni sotuvchi va xaridor o'rtasida tasqsimlashga nisbatan saqlash hisoblanadi, ya'ni aynan xavf yuk ortilganidan so'ng. Bu xaridor oldi-sotdi shartnomasi kuchga kirganidan so'ng bo'ladigan voqyealar oqibatlarini o'z zimmasiga olishga majbur bo'lishini anglatadi. Xavfning o'tish paytini aniqlaydigan ikkinchi imkoniyat yangi oldi-sotdi shartnomasini tuzish vaqti hisoblanadi. Birinchi imkoniyat haqiqatga yaqinroq, chunki odatda tovar holatini tashish paytida aniqlash mumkin. Shu sababli BMTning 1980 yildagi tovarlar bilan savdo qilish xalqaro shartnomasi to'g'risidagi Konvensiyasining 68-moddasida " agarda ahvol shuni taqozo etsa, xavf xaridor tomonidan tovar tashish shartnomasida tuzilgan hujjatni bergan tashuvchiga topshirilayotgan paytdan boshlab qabul qilinishi" ko'zda tutilgan. Biroq bu qoidada "sotuvchi tovar yo'qotilgan yoki ayniganligini bilgan yoki bilishi shart bo'lgan va bu haqda xaridorga xabar bermaganligi" istisno qilinishi mumkin. Shunday qilib, CFR va CIF atamalarini " suzishda" so'zini qo'shgan holda sharhlash mazkur oldi-sotdi shartnomasiga qo'llaniladigan qonunga bog'liq. Tomonlarga qo'llanilayotgan qonun va har qanday qarorga ishonch hosil qilish tavsiya etiladi. Shubha tug'ilganda esa tomonlarga ushbu masalani o'zlarining shartnomasida aniqlashtirib olish tavsiya etiladi.

"D" atamasiga muvofiq DDPdan tashqari sotuvchi mo'ljallangan mamlakatga import uchune tozalangan tovarni yetkazib berishga majbur emas.

An'anaviy tarzda DTQ atamasiga ko'ra sotuvchi tovarni tozalashga majbur, negaki ushbu tovar pristanga yuklanishi kerak va shu tarzda import qilinayotgan mamlakatga chiqib ketishi lozim. Bojxona tozalashlar tartiblaridagi o'zgarishlar oqibatida ko'pgina mamlakatlarda hozir manfaatdor mamlakatda muntazam yashab kelayotgan tomon tozalashni amalga oshirib, boj va yuboshqa to'lovlarni to'lashi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli FAS atamasidagi o'zgartishlar DEQ atamasiga ham kiritildi.

Ko'pgina mamlakatlarda Inkotermga kiritilmagan savdo atamalaridan asosan yuklarni temir yo'lda tashishlarda (franko chegara) foydalanilmoqda. Biroq bunday sharoitlarda odatda sotuvchining tovarni chegaragacha tashish paytida uni yo'qotish yoki buzilishi bo'yicha tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi ko'zda tutilmaydi. Ushbu holatlarda chegara ko'rsatilgan holda SRT atamasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi tomondan esa, agarda tomonlar sotuvchi tovarni tashishda tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishini nazarda tutsa, bunda chegara ko'rsatilgan holda DAF atamasidan foydalanish lozim.

10. Qishloq xo'jaligi logistikada ombor xo'jaligi

10.1. Omborlar, ular to'grisida tushunchalar va ularning logistikadagi o'rni

Ishlab chiqarish jarayonlarini loyihalash, xom-ashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni logistik zanjirining u yoki bu bo'g'inida biror vaqtga jamlab turish sharoitida, optimal yechimga ega bo'ladi. Umumiy loyiha, jamlash joyida yukni nima qilish kerakligini ko'rsatib beradi. Balki, kelib tushgan yuk birliklarini qayta shakllantirib, tovarlarni qayta qadoqlab, biror vaqt saqlab, keyinchalik yangi yuk birliklarini shakllantirib, lozim bo'lgan vaqtda iste'molchiga yetkazib berish talab qilinishi mumkin. Aynan shu maqsadda logistik tizimlarda omborlar tashkil etiladi.

Omborlar - bu kelib tushgan tovarlarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash, ularni iste'molga tayyorlash va iste'molchiga uzatish uchun mo'ljallangan binolar, inshooatlar va turli xildagi uskunalar majmuidir.

Mahsulot ishlab chiqaruvchiga xom-ashyo va birlamchi materiallarning omborlari lozim bo'ladi. Ularning yordamida ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Tayyor mahsulot omborlari sotuv uzluksizligini ta'minlovchi zaxiralarni saqlab turishga imkon beradilar. Savdo omborlarida tayyor mahsulotlar jamlanib o'z

iste'molchisini kutib turadilar.

To'g'ri tashkil etilgan logistik tizimni, omborlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Logistikada ombor faqatgina logistik jarayon ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin bo'lgan holdagina ishlatiladi. Shunday qilib, omborning asosiy roli bu moddiy oqimni optimallashtirish uchun sharoit yaratishdir.

Logistika, ombor ichidagi jarayonlarni to'g'ri tashkil etilishini, hamda texnik, texnologik va boshqa jarayonlarni iqtisodiy muhit jarayonlari bilan bog'liqligini ta'minlashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Logistikada omborlarni tovar harakati tizimining unsurlari sifatida, va shu bilan birga, mustaqil tizim sifatida ko'radilar. Bunga muvofiq masalalarning ikkita guruhini ajratadilar:

- tovar harakati tizimini loyihalashda, omborlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar;
- omborlar bo'yicha, mustaqil tizim sifatidagi, masalalar.

10.2. Omborlarning turlari

Omborlar logistik tizimlarning muhim unsurlaridan biri bo'lib hisoblanadilar. Zaxiralarni saqlash uchun maxsus jihozlangan joylarga bo'lgan ob'ektiv zaruriyat moddiy oqim harakatining barcha bosqichlarida kuzatiladi. Turli xildagi omborlar ko'pligini aynan shu bilan izohlash mumkin.

Omborlarning o'lchamlari ham har xil bo'lishi mumkin: kichkina xonalardan to bir necha yuz ming kvadrat metr maydonga ega bo'lgan gigant omborlargacha.

Omborlar yuklarni joylash balandligi bo'yicha ham farqlanadilar. Bir omborlarda yuklar odam bo'yidan baland bo'lmagan joyda saqlansa, ikkinchi bir omborlarda maxsus uskunalar yukni 24m balandlikga joylashtiradilar.

Omborlar tuzilishi (konstruksiya) ham turlicha bo'lishi mumkin: ochiq va yopiq.

Omborlarda, agarda lozim bo'lsa, maxsus harorat, namlik va boshqa sharoitlar yaratilishi mumkin.

Ombor bitta korxona tovarlarini saqlash uchun mo'ljallangan bo'lishi (individual foydalanish ombori) yoki lizing shartlarida yuridik yoki jismoniy shaxslarga ijaraga beriladigan bo'lishi (jamoaviy foydalanish ombori) mumkin.

Shuningdek omborlar, ombor operatsiyalarini mexanizatsiya darajasi bo'yicha ham farqlanadilar: mexanizatsiya-lashtirilmagan, majmuaviy - mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan, avtomatik.

Omborlarni moddiy oqimning umumiy harakat jarayonidagi joylashish belgisi bo'yicha turkumlanishini mukammalroq ko'rib chiqamiz (10.1 rasm).

Omborlar turkumlanishining muhim belgisi bu yuklarni temir yo'l yoki suv transporti orqali yetkazish va olib chiqish imkoniyatiga ega bo'lishdir. Bunga **muvofiq stansiyalardagi yoki portlardagi omborlar (temir yo'l stansiyasi yoki port hududida joylashgan), relsli omborlar (vagonlarni berish va olishga mo'ljallangan relslarga ega) va chuqurdagi omborlar mavjud. Yukni stansiyadan yoki portdan chuqurdagi omborga olib borish uchun avtomobil transportidan foydalaniladi.**



10.1- Rasm. Omborlarni joylashishi bo'yicha turkumlanishi

Saqlanayotgan yukning assortimentiga qarab, maxsus omborlar, aralash va universal omborlar bo'lishi mumkin.

Ushbu belgi bo'yicha omborlarni ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Ishlab chiqarish - texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar harakati uchastkasidagi omborlar;

Xalq iste'moli mollari harakati uchastkasidagi omborlar.

1 guruhga kiruvchi omborlar quyidagilar:


- ishlab chiqaruvchi korxonalarning tayyor mahsulot omborlari;
- ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlarni iste'mol qiluvchi korxonalarning xom-ashyo va birlamchi materiallar omborlari;
- ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlarni muomala sohasidagi omborlar.

2 guruhga kiruvchi omborlar quyidagilar:

- xalq iste'moli mollari bilan ulgurji savdo qiluvchi korxonalar omborlari:
- a) ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish joyida joylashgan;
- b) ushbu mahsulotlarni iste'mol joyida joylashgan.

Moddiy oqimni turli korxonalar omborlaridan o'tishining prinsipial chizmasi

10.2 rasmda keltirilgan.



10.2- rasm. Moddiy oqimning, xom-ashyo manbasidan to so'nggi iste'molchigacha bo'lgan, yo'lidagi omborlarni prinsipial chizmasi (sxemasi)

Omborlarning funksiyalari

Turli omborlarda bajariladigan ish hajmi taxminan bir xil. Chunki omborlar turli logistik jarayonlarda quyidagi o'xshash funksiyalarni bajaradilar:

- moddiy zaxiralarni vaqtinchalik joylashishi va saqlanishi;
- moddiy oqimlarni qayta shakllanishi;
- xizmat ko'rsatish tizimida logistik servisni ta'minlash.

Har bir ombor kamida uch xil moddiy oqimlarni qayta ishlaydi: kiruvchi, chiquvchi va ichki.

Kiruvchi oqimning mavjudligi transportdagi yukni tushirish, uning miqdori va sifatini tekshirish lozimligini bildiradi. Chiquvchi oqim bo'lsa yukni ortish, ichkida esa omborlar ichida yukni harakatlantirish nazarda tutiladi.

Moddiy zaxiralarni vaqtinchalik saqlash funksiyasini amalga oshirilishi, yuklarni saqlashga joylashtirish, saqlash uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlash, saqlash joylaridan yuklarni olish bo'yicha ishlarni bajarish zaruriyatini bildiradi.

Moddiy oqimlarning o'zgarishi bir yuk partiyalari yoki yuk birliklari o'rniga boshqalarini tashkil etish yo'li bilan amalga oshadi. Bu yuklarni o'z qadoqlaridan olib, yangi yuk birliklarini tashkil etish va ularni qadoqlash zarur ekanligini anglatadi.

Ammo bu omborlar to'g'risida umumiy tushunchadir xolos. Yuqorida sanab o'tilgan funksiyalarning har biri keng miqyosda o'zgarib turishi mumkin. Bu esa ayrim logistik operatsiyalarning amalga oshirilish intensivligiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bundan keyin, ombordagi logistik jarayonning ko'rinishi umuman boshqacha tus oladi.

Moddiy oqimni birlamchi xom-ashyo manbaidan to oxirgi iste'molchigacha bo'lgan harakatida uchraydigan turli xil omborlarning funksiyalarini ko'rib chiqamiz.

Ishlab chiqaruvchi korxonalarning tayyor mahsulot omborlarida:

- omborga qo'yish;
- saqlash;
- navlarga (turlarga) ajratish;
- qo'shimcha qayta ishlash (lozim bo'lsa);
- belgilash (markirovka);
- ortishga tayyorlash;
- ortish operatsiyalari.

Iste'molchi korxonalarning xom-ashyo va birlamchi materiallar omborlarida:

- yukni qabul qilish;
- tushirish;
- navlarga ajratish;
- saqlash;

- ishlab chiqarish iste'moliga tayyorlash.

Ishlab chiqarish-texnik maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar muomalasi sohasidagi ulgurji-vositachi firmalar omborlarida, yuqorida qayd etilganlardan tashqari:

- tovarlar to'planishi (konsentratsiyasi)ni ta'minlash;
- lozim bo'lgan assortimentni butlash;
- tovarlarni kichik partiyalarda yetkazish (iste'molchi korxonalar va boshqa

ulgurji-vositachi firmalar omborlariga);

- rezerv partiyalarni saqlashni tashkil etish.

Ishlab chiqarish to'plangan joylardagi savdo korxonalari omborlarida:

- ishlab chiqarish korxonalaridan tovarlarni yirik partiyalarda qabul qilish;
- iste'mol joylardagi xaridorlarga tovarlarni yirik partiyalarini butlash va jo'natish;

Iste'mol joylaridagi omborlarda:

- ishlab chiqarish assortimenti tovarlarini qabul qilish;
- keng savdo assortimentini shakllantirish;
- chakana savdo korxonalarini tovarlar bilan ta'minlash.

11. Axborot logistikasi

11.1. Axborot oqimlari tushunchasi

Moddiy oqimlarni boshqarish jarayoni asosida, logistik tizimlardagi axborotni qayta ishlash yotadi. Shunday ekan, logistikaning asosiy tushunchalaridan biri bu axborot oqimidir.

Axborot oqimi -bu logistik tizim ichida, logistik tizim va tashqi muhit orasida harakatlanuvchi, logistik operatsiyalarning boshqaruvi va nazorati uchun zarur bo'lgan xabarlar va ma'lumotlar yig'indisidir. Axborot oqimi qog'oz va elektron hujjatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Logistikada axborot oqimlarining quyidagi turlarini ajratadilar.

- oqim bilan bog'lanuvchi tizimlar turiga ko'ra: gorizonttal va vertikal;
- o'tish joyiga ko'ra: ichki va tashqi;
- logistik tizimga nisbatan yo'nalishiga ko'ra: kiruvchi va chiquvchi.

Axborot oqimi joriy oqimdan oldin, u bilan birga, yoki undan keyin harakatlanishi mumkin. Bunda axborot oqimi moddiy oqim bilan bir tomonga yoki qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan bo'lishi ham mumkin.

- qarama-qarshi yo'nalishdagi, moddiy oqimdan oldin keluvchi axborot oqimi, odatda, buyurtma to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin;

- to'g'ri yo'nalishdagi, moddiy oqimdan oldin keluvchi axborot oqimi, kelishi kutilayotgan tovarlar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlardan iborat bo'lishi mumkin;

- to'g'ri yo'nalishda moddiy oqim bilan birgalikdagi axborot oqimida, moddiy oqimning miqdor va sifat parametrlari to'g'risidagi axborotlar kelishi mumkin;

- qarama-qarshi yo'nalishdagi moddiy oqimdan keyin kelgan axborot oqimida, tovarlarni, moliyaviy mablag'larni qabul qilinganligi natijalari, sifati va miqdori to'g'risidagi, turli xil e'tirozlar to'g'risidagi axborotlar o'tishi mumkin.

Umuman olganda axborot oqimining harakatlanish yo'li, moddiy oqim harakati yo'nalishi bilan bir xil bo'lmasligi mumkin.

Axborot oqimi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

- kelib chiqish manbai;
- oqim harakati yo'nalishi;
- jo'natish va qabul qilish tezligi;
- oqim intensivligi va boshqalar.

Axborot tizimlarining shakllanishi oqimlarining ayrim ko'rsatkichlari kesimidagi tekshirishlarsiz amalga oshmaydi. Misol uchun, biror korxonani hisoblash texnikasi bilan ta'minlash masalasini, ushbu ish joyi orqali o'tadigan axborot hajmi va qayta ishlashining

zaruriy tezligini bilmasdan hal qilib bo'lmaydi.

Moddiy oqimni quyidagi tarzda boshqarish mumkin:

- oqim yo'nalishini o'zgartirib;
- jo'natish tezligini, unga muvofiq bo'lgan qabul qilish tezligigacha cheklab;
- oqim hajmini ayrim bo'lim yoki tarmoqning o'tkazish qobiliyati kattaligigacha cheklab.

Axborot oqimi bir vaqt birligi ichida qayta ishlanadigan yoki o'tkaziladigan axborot miqdori bilan o'lchanadi.

Biror-bir ma'lumotdagi axborot miqdorini tashish usullari, kibernetika fanining axborot nazariyasi bo'limida o'rganiladi. Ushbu nazariyaga muvofiq axborot miqdori birligi sifatida, ikkilangan birlik -Bit qabul qilingan. Elektron hisoblash texnikasini qo'laganda axborot baytlarda o'lchanadi. Bundan kelib chiqan xolda kilobayt, megabayt va gigabaytlardan ham foydalaniladi.

Xo'jalik faoliyati amaliyotida axborot quyidagicha o'lchanishi mumkin:

- qayta ishlagan yoki uzatilgan hujjatlar miqdori bilan*
- qayta ishlanadigan yoki uzatiladigan hujjatlardagi hujjat qatorlarining umumiy soni bilan.


Shuni ham etiborga olish lozimki, iqtisodiy tizimlarda, logistik operatsiyalardan tashqari, axborot oqimi sodir bo'lishi va uzatilishi bilan kuzatiladigan, boshqa operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Ammo logistik axborot oqimi umumiy axborot oqimining eng ahamiyatli qismini tashkil etadi. Ayniqsa ishlab chiqarish korxonalari va ulgurji savdo korxonalarida bu xol yaqqol sezilib turadi.

11.2. Axborot tizimlari

Har bir logistik tizimining muhim unsuri bo'lib, ahborot o'tishi va qayta ishlanishini ta'minlovchi tizimcha xizmat qiladi. O'z navbatida bu «tizimcha» ham turli xil tizimchalardan tashkil topgan murakkab axborot tizimidan iboratdir. Boshqa tizimlar singari, axborot tizimi ham tartibli o'zaro bog'langan unsurlardan tashkil topishi va integrativ jihatlarining biror- bir birligiga, «yig'indisiga» ega bo'lishi lozim. Ko'p hollarda ahborot tizimlarini ikkita tizimchaga ajratadilar: funksional va ta'minlovchi (11.1 - rasm)

Funksional tizimcha, maqsadning umumiyligi belgisi bo'yicha guruhlangan, yechiladigan masalalar yig'indisidan iborat. Ta'minlovchi tizim esa, o'z navbatida, quyidagi unsurlarni o'z ichiga oladi:

- texnik ta'minot, ya'ni axborot oqimlarini qayta ishlashni va uzatishni ta'minlovchi texnik vositalari yig'indisi;
- ahborot ta'minoti, u o'z ichiga turli ma'lumotlar, klassifikatorlar, kodifikatorlar, ma'lumotlarni rasmiy izohlash vositalarini oladi;
- matematik ta'minot, ya'ni funksional masalalarni yechishning uslublari yig'indisi.



Shartli belgilar:

A- texnik ta'minot

B- axborot ta'minoti

V- matematik ta'minot

G- boshqa ta'minot vositalari


11.1. -Rasm. Axborot tizimi tuzilmasi

Logistik axborot tizimlari, odatda logistik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi sifatida namoyon bo'ladilar. Shuning uchun ham logistik axborot tizimlaridagi matematik ta'minot - bu dasturlar majmui va moddiy oqimlar boshqaruvi masalalari yechilishini, matnlarni qayta ishlashni, so'rov ma'lumotlarini olishni va texnik vositalar amal qilishini ta'minlovchi dasturlash vositalari yig'indisidir.

Logistikaning axborot tizimlaridagi unsurlar orasidagi aloqalarni tashkil etilishi, ana'naviy ahborot tizimlarinikidan sezilarli ravishda farq qilishi mumkin. Logistikada axborot tizimlari barcha unsurlarni har tomonlama integratsiyasini, ta'minlashlari lozim. «Logistik tizimlarning axborot texnik ta'minoti, axborot jihatlari va uni qayta ishlashning texnik vositalari to'plami bilan emas, balki ularni barpo etish uchun qo'llaniladigan uslublar va tamoyillar bilan farq qiladi».

Axborot tizimi ta'rifini quyidagicha ifodalash mumkin: axborot tizimi - bu u yoki bu funksional masalalar (logistikada - moddiy oqimlarni boshqarish bo'yicha masalalar) yechimini ta'minlovchi, o'zaro bog'langan hisoblash texnikasi vositalarining muayyan tarzda tashkil etilgan yig'indisi birligidir. Logistikada axborot tizimlari turlari

Logistikada axborot tizimlari ayrim korxona miqyosidagi moddiy oqimlarni boshqarish maqsadida, yoki mintaq, mamlakat va hattoki mamlakatlar guruhlari hududidagi logistik jarayonlarni tashkil etishga yordam berish uchun tashkil etilishlari mumkin. (11.2- rasm).



11.2- Rasm. Logistikada qo'llaniladigan axborot tizimlari turlari

Ayrim korxona miqyosidagi axborot tizimlarini o'z navbatida uch guruhga ajratadilar:

- rejali;
- **dispozitiv** (yoki dispatcherlik);
- **bajaruvchi** (yoki operativ).

Har xil guruhlarga mansub bo'lgan logistik axborot tizimlari, o'zlarining funksional va ta'minlovchi tizimchalari bilan farqlanadilar. Ta'minlovchi tizimchalar o'zlarining barcha unsurlari, ya'ni texnik, axborot va matematik ta'minoti bilan bir-biridan farq qilishlari mumkin. Ayrim axborot tizimlarining xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Rejali axborot tizimlari. Bu tizimlar boshqaruvning ma'muriy darajasida (bosqichida) barpo etiladilar va strategik uzoq muddatli qarorlarni qabul qilishga yordam beradilar. yechiladigan masalalar orasida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- logistik zanjir bo'g'inlarini yaratish va ularni optimallashtirish;
- shartli-muntazam, ya'ni kam o'zgaradigan ma'lumotlarni boshqarish;
- ishlab chiqarishni rejalashtirish;
- zaxiralarni umumiy boshqaruvini amalga oshirish;
- rezervlarni boshqarish va boshqa masalalar.

Dispozitiv axborot tizimlari. Bu tizimlar ombor yoki sexni boshqarish darajasida (bosqichida) barpo etiladilar va logistik tizimlarning yaxshi yo'lga qo'yilgan ishini ta'minlash uchun xizmat qiladilar. Bunda quyidagi masalalar o'z yechimini topishlari mumkin:

- zaxiralarni (omborga qo'yishni) ... boshqarish;
- ombor (q.x. korxonasi) ichidagi transportni boshqarish;
- buyurtmalar bo'yicha yuklarni tanlash, butlash, jo'natiladiganlarini hisobga olish va boshqalar.

Boshqaruvchi axborot tizimlari ma'muriy yoki operativ boshqaruv darajasida (bosqichida) barpo etiladilar. Bu tizimlarda axborotlarni qayta ishlanishi, ularni EHMga kelib tushishi tezligida amalga oshiriladi. Bu ishlarning barchasi birdaniga amalga oshiriladi, hamda ishlab chiqarish va xizmatlarining hozirgi holati to'g'risida ma'lumot olish, hamda boshqaruv ob'ektlariga nisbatan tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish imkonini beradi. Ushbu tizimlar moddiy oqimlar nazorati, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishni operativ boshqaruvi, harakatlanishlar boshqarilishi va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan turli xildagi masalalarni yechishlari mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'minlovchi tizimchalarda ham farqlar mavjud. Rejali, dispozitiv va bajaruvchi axborot tizimchalari dasturiy ta'minotining tavsifiy xususiyatlariga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Moddiy oqimlarni boshqarishning ko'p bosqichli avtomatlashgan tizimlarini yaratish, dasturiy ta'minot ishlab chiqish sohasidagi katta xarajatlar bilan bog'liqdir. Dasturiy ta'minot bir tomondan tizimning ko'p funktsionalliligini, ikkinchi tomondan esa uning yuqori darajadagi integratsiyasini ta'minlashi lozim. Shu munosabat bilan, logistika sohasida boshqaruvning avtomatlashgan tizimlarini yaratishda nisbatan arzon bo'lgan, mahalliy sharoitlarga moslashgan, standart dasturiy ta'minotni ishlatish imkoniyatlari izlanishi kerak.

Hozirgi kunda yetarlicha takomillashgan dasturlar paketlari yaratilmoqda. Ammo ular axborot tizimlarining barcha turlarida qo'llanilavermaydi. Bu moddiy oqimlar boshqaruvida yechiladigan masalalarning standartlashish darajasiga bog'liq.

Rejali axborot tizimlaridagi masalalarni yechishda standartlashish darajasi eng yuqori, bu esa standart dasturiy ta'minotni deyarli qiyinchiliklarsiz moslashtirish imkonini beradi. Dispozitiv axborot tizimlarida standart dasturlar paketini moslashtirish imkoniyati past. Bu bir qator sabablarga bog'liq:

- korxonalardagi ishlab chiqarish jarayoni tarixan shakllanib kelgan va biror- bir o'zgarishlar kiritish juda qiyin kechadi;
- turli foydalanuvchilardagi qayta ishlanadigan ma'lumotlar tuzilmasi keskin farqlanadi.

Bajaruvchi axborot tizimlaridagi boshqaruvning operativ darajasida, ko'p hollarda, individual dasturiy ta'minot qo'llaniladi.

11.3. Shtrix-kodlarni avtomatik aniqlash usullarini qo'llash

Logistik zanjirning har bir bo'g'ini orqali katta miqdordagi tovar birliklari o'tadi. Har bir bo'g'in ichida ham tovarlar bir necha marta saqlash va qayta ishlash joylari bo'ylab harakatlanadilar. «Tovarlar harakatining butun tizimi - bu uzluksiz harakatdagi diskret oqimlardir, ularning tezligi ishlab chiqarish salohiyatiga, yetkazishlar muntazamligiga, mavjud zaxiralar o'lchamlariga, va shuningdek realizatsiya va iste'mol tezligiga bog'liqdir.» Bunday dinamik logistik tizimni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lish uchun unga kiruvchi va undan chiquvchi, hamda uni ichida aylanib turuvchi moddiy oqimlarning assortimenti to'g'risidagi axborotga doimiy ravishda ega bo'lish zarur.

Chet el tajribalariga qaraganda, bu muammoni yechish uchun moddiy oqim bilan bo'lgan logistik operatsiyalarda alohida yuk birligini aniqlash qobiliyatiga ega bo'lgan mikroprotssessorli texnikani ishlatish zarur. Gap, albatta, turli xildagi shtrix- kodlarni «o'qiy oladigan» uskunalar xaqida. Ushbu uskunalar, logistik operatsiya xaqidagi axborotni, u amalga oshirilayotgan vaqtda va joyda - xo'jaliklar, sanoat korxonalari, ulgurji bazalar, do'konlar omborlarida, transportda - olish imkonini beradilar. Olingan axborot vaqtning real miqyosida qayta ishlanadi, bu esa boshqaruv tizimiga optimal muddatlarda javob qaytarish imkonini beradi.

Axborotni avtomatik to'plash turli xildagi shtrix-kodlarni ishlatishga asoslangan, ularning har biri o'z texnologik ustunliklariga ega. Masalan 11.3- rasmdagi ITF-14 kodi o'z ixchamliligi bilan ajralib turadi va tovar partiyalarini kodlash uchun ishlatiladi.

11.1- jadvalda turli mamlakatlar kodlari keltirilgan.

11.1- jadval

EAN assotsiatsiyasi tomonidan mamlakatlarga berilgan kodlar

Mamlakat	1	EAN kodi	mamlakat	EAN kodi
AQSh va Kanada	1	00-13	Iordaniya	625

Fransiya	30-37	Eron	626
Bolgariya	380	Finlyandiya	64
Sloveniya	383	Xitoy	690-692
Xorvatiya	385	Norvegiya	70
Bosniya va Gerse-govina	387	Isroil	729
Germaniya	400-440	Shvetsiya	73
Yaponiya	45,49	Gvatemala	740
Rossiya	460-469	Salvador	741
Tayvan	471	Gonduras	742
Estoniya	474	Nikaragua	743
Latviya	475	Kosta-rika	744
Litva	477	Panama	745
Uzbekistan	478	Dominik Resp	746
Shri-Lanka	479	Meksika	750
Fillipin	480	Venesuela	759
Belarus	481	Shveytsariya	76
Ukraina	482	Kolumbiya	770
Moldova	484	Urugvay	773
Armeniya	485	Peru	775
Gruziya	486	Boliviya	777
Kazaxstan	487	Argentina	779
Gonkong	489	Chili	780
Buyuk Britaniya	50	Paragvay	784
Gretsiya	520	Ekvador	786
Livan	528	Braziliya	789
Kipr	529	Italiya	80-83
Makedoniya	531	Ispaniya	84
Malta	535	Kuba	850
Irlandiya	539	Slovakiya	858
Belgiya,	54	Chexiya	859
Portugaliya	560	Yugoslaviya	860
Islandiya	569	Turkiya	869
Daniya	57	Niderland	87
Polsha	590	Janubiy Koreya	880
Ruminiya	594	Tailand	885
Vengriya	599	Singapur	888
JAR	600-601	Indiya	890
Mavrikiy	609	Vetnam	893
Marokko	611	Indoneziya	899
Aljir	613	Avstriya	90-91
Tunis	619	Avstraliya	93
Suriya	621	Yangi Zelandiya	94
Misr	622	Malayziya	955

Logistikada shtrix kodlarni avtomatik aniqlash texnologiyasini qo'llash, logistik jarayonning barcha bosqichlarida moddiy oqimlarni boshqarishni yaxshilash imkonini beradi. Uning asosiy ustunliklarini aytib o'tamiz.

Ishlab chiqarishda:

- mahsulotlar va ularni butlovchi qismlarini har bir uchastkadagi harakatini va shuningdek umuman korxonadagi logistik jarayonning holatini, hisobga olish va nazorat qilishning yagona tizimi barpo etilishi;

- yordamchi personal va hisobot hujjatlar sonini kamayishi, xatolar yo'qolishi;

Ombor xo'jaligida:

- moddiy oqimni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilishi;
- moddiy zaxiralarni inventarizatsiyalash jarayonini avtomatlashtirilishi;
- moddiy va axborot oqimlari bilan bo'ladigan logistik operatsiyalar vaqtini qisqarishi;

Savdoda:

- moddiy oqimni hisobga olishni yagona tizimini yaratilishi;
- tovarlar buyurtmasi va inventarizatsiyasini avtomatlashtirilishi; xaridorlarga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqarishi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan tovarlarning ichki va xorij bozorlarida raqobatbatdoshligini oshirish, tovar ishlab chiqaruvchini tovar raqami xalqaro tizimi doirasida identifikatsiyalash, iste'molchi huquqlarini himoya qilish, tovarlarni ishlab chiqarishni avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 21 sentyabrda " O'zbekiston Respublikasida shtrixli kodlashni joriy qilish to'g'risida" 438-sonli qaror qabul qildi.

Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi To'var ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi tomonidan tovarlari " EAN" shtrixli kod bilan markalanadigan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini ro'yxatga olish, tovarlarni xalqaro talablarga muvofiq identifikatsiyalash tizimidan foydalanuvchilar faoliyatini uslubiy boshqarish uchun tovar va xizmatlarni avtomatik tarzda identifikatsiyalash " EAN UZBEKISTAN" markazi tashkil etilganligi qayd etilgan.

Tovar va xizmatlarni avtomatik tarzda identifikatsiyalash " EAN UZBEKISTAN" markazi EAN International a'zosi sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni raqamlash bo'yicha yagona tashkilot - EAN International vakili hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Anikin B.A. Logistika: Ucheb.posobie. M.: Infra M. 2000
2. Anikin B.A Praktikum po logistike. Uchebnoe posobie. Moskva Infra-M 2002
3. Gadjinskiy A.M. "Logistika" M 2003 - 407s.
4. Gadjinskiy A.M. Praktikum po logistike. M.: IVS «Marketing», 2001
5. Mirotin L.B., Sergeev V.I. Osnovo' logistiki. Uchebnoe posobie. Moskva, "Infra-M", 1999 g.
6. Nerush Yu.M. Logistika. Uchebnik dlya vuzov.-3-ye izd., pererab. i dop.- M.: YuNITI-Dana, 2003
7. Nerush Yu.M. "Kommercheskaya logistika" M "Banki i birji" Izdatelskoe obedinenie "YuNITI" 1997.-240 s.: il
8. Sarkisov S.V. Upravlenie logistikoy. Uchebnoe posobie. Moskva ZAO «Biznes-shkola «Intel-Sintez» 2001.
9. Samatov G'.A. Yo.K.Qorieva. B.Payziev. Raqobat muhitida xalqaro transport tizimi faoliyatining logistik ishonchligi. Toshkent 2003
10. Chudakov A.D. Logistika. Uchebnik. M.: OOO «Izdatelstvo RDL», 2001
11. Ballou R.H. Basic Buisness logistics. New York, 1987
12. Cristopher M. The Strategy of distribution management. London, 1986
13. Kearney A.T. Logistics Productivity the Competitive edge in Europe. - Chicago, 1994
14. Magee J., Capacino W., Rosenfiueld D. Modern logistics management. - New York, 1986

Mundarija

- 1.
- 1.1. Kirish
2. Logistik tizim to'g'risida asosiy tushunchalar
3. Logistikaning rivojlanish bosqichlari
- 3.1. Logistik tizim va moddiy oqimlar tushunchasi
- 3.2. Ishlab chiqarish logistikasi
- 3.3. Ishlab chiqarish logistikasi tushunchasi
- 3.4. Ishlab chiqarishni tashkil etishning an'anaviy va logistik konsepsiyalari
- 3.5. Ishlab chiqarish tizimlarining sifat va miqdor egiluvchanligi Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlarni boshqarishning rag'batlantiruvchi tizimlari
- 3.6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish logistikasida moddiy oqimlar boshqaruvining yetaklovchi tizimlari
- 4.1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda moddiy oqimlarni boshqarishga logistik yondashuvni qo'llashning samaradorligi
- 4.2.
- 4.3. Xarid logistikasi
- 4.4. Xarid logistikasining mohiyati va vazifalari.
- 4.6. Qishloq xo'jaligi korxonalarida ta'minot funksiyalarini amalga oshirish
5. Xarid logistikasida «ishlab chiqarish yoki xarid qilish» masalasi yetkazib beruvchini tanlash masalasi
- 5.1.
- 5.2. Tez amal qilish uslubi
- 5.3. Taqsimot logistikasi
6. Taqsimot logistikasi tushunchasi
7. Taqsimot logistikasining vazifalari Logistik kanallar va logistik zanjirlar.
- 7.1. Logistika va marketing Qishloq xo'jaligi logistikada zaxiralar
- 7.2.
- 7.3. Moddiy zaxira tushunchasi Zaxiralar hosil qilishning zarurligi Zaxiralarning asosiy turlari Zaxira o'lchamini aniqlash
- 7.4. Qishloq xo'jaligida logistikada servis xizmati ko'rsatish
8. Logistik xizmat ko'rsatish tushunchasi
- 8.1. Xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish
- 8.2. Xizmat ko'rsatish sifatining mezonlari
- 8.3. Transport logistikasi
9. Transport logistikasining mohiyati va vazifalari Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish jarayonlarida transport vositalarining turlarini va sonini tanlash.
- 9.1.
- 9.2. Transport tariflari va ularni qo'llash qoidalari. yetkazib berishning asosiy bazalariga jahon narxlari. Inkoterms-2000.
- 9.3. Qishloq xo'jaligi logistikada ombor xo'jaligi
- 9.4. Omborlar, ular to'g'risida tushunchalar va ularning logistikadagi o'rni Omborlarning turlari va vazifalari
- 10.1. Axborot logistikasi.
- 10.2. Axborot oqimlari tushunchasi.
11. Axborot tizimlari.
- 11.1. Shtrix-kodlarni avtomatik aniqlash usullarini qo'llash.
- 11.2.
- 11.3. Adabiyotlar